- amaliy masalalarni yechishda nazariy tushunchalardan foydalana bilish;
- masalani yechishning to'g'ri usulini tanlay bilish;
- masalani mustaqil yechish ko'nikmasini hosil qilish;
- masalaning yechimini mustaqil tahlil qila bilish.

1.3.3. Amaliyot mashg'uloti topshirig'ini bajarishdan kutiladigan natijalar:

mavzu yuzasidan bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash; amaliy masalalarni yechishda nazariy tushunchalardan foydalana bilish; masalani yechishning to'g'ri usulini tanlay bilish; masalani mustaqil yechish ko'nikmasini hosil qilish; masalaning yechimini mustaqil tahlil qila bilish.

1.3.4. Laboratoriya mashg'uloti topshirig'ini bajarishdan kutiladigan natijalar:

mavzu yuzasidan bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash; laboratoriya mashg'uloti topshirig'ini bajarishda nazariy tushunchalardan foydalana bilish; topshiriqni bajarishning to'g'ri usuli va ketma-ketligini tanlay bilish; topshiriqni mustaqil bajarish va uni amaliyotga qo'llay bilish ko'nikmasini hosil qilish; topshiriqning yechimini mustaqil tahlil qila bilish.

1.3.5. Seminar mashg'uloti va mustaqil ish topshirig'ini bajarishdan kutiladigan natijalar:

javzuga oid qo'shimcha materiallarni axborot manbalari (kutubxona, internet tarmog'i, vaqtli matbuot va hokazo) dan topish, konseptlashtirish va ularni o'rghanish; mavzu yuzasidan matn bilan ishslash, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash; fikrlar ketma-ketligini tanlay bilish; o'z ustida malakaviy ishslashni o'rghanib borish; nutqni rivojlantirish va eslab qolish qobiliyatini kuchaytirish; o'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelib, yakuniy xulosani bayon qilish; mavzuni hayotiy voqyealar bilan bog'lash; mustaqil tahlil va xulosalar chiqara bilish; pedagogik mahoratni shakllantirib borish.

1.3.6. Mustaqil ish turlari:

- takrorlash va mashq qilish: takrorlash; tahlil qilish; qayta ishslash; mustahkamlash; chuqurlashtirish; eslab qolish; ko'nikma hosil qilish; malakani shakllantirish;

- *yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish*: yangi mavzular; axborot manbaini izlab topish va konseptlashtirish; mustaqil fikrlar tuzish;
- *ijodiy xarakterdag'i ishlar*: muammoli vaziyatlarni aniqlash; test va topshiriq tuzish; slaydlar tayyorlash; mustaqil qaror qabul qilish; yangi usullar yaratishga intilish.

1.3.7. Mustaqil ta'limgan tashkil qilishda foydalanadigan vositalar:

- nazariy mashg'ulotlarda foydalanadigan vositalar (garslik; o'quv qo'llanma; masala va mashq to'plami; diapozitivlar; lug'atlar; masalalar to'plami; magnit yozuv; video yozuv; o'rgatuvchi dasturlar; multimedia va hokazo);
- amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan vositalar (yo'riqnomalar to'plami; tabiiy o'qitish vositalari; xarakatlanuvchi modellar; o'quv plakatlari; yo'riqnomalar; texnologik xaritalar; trasparantlar; modellar; elektron kitoblar; maketlar; testlar va hokazo).

1.3.8. Referat yozish bo'yicha qisqacha ko'rsatmalar:

- *Referat tayyorlashda hal etilishi nazarda tutiladigan vazifalar*: o'quv predmetning dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga oid olingen nazariy bilimlarni ijodiy qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish; tanlangan kasbiy sohada mavjud mahalliy va xorijiy tajribalarni mavjud sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlari va muammolarni o'zlashtirish; tanlangan mavzu bo'yicha har xil manbalarni (monografiyalar, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilar) o'rganish qobiliyatini takomillashtirish va ularning natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish; yozma ko'rinishdagi ishlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- *Referat ustida ishslash tartibi*: mavzuni tanlash; mavzu bo'yicha asosiy manbalarni o'rganish; zaruriy materiallarni konseptlashtirish; tadqiqot rejasini tuzish; yig'ilgan materiallarni tartibga solish va yozish; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirish; referatni rasmiylashtirish.
- *Referatni rasmiylashtirish tartibi*: A4 shakldagi qog'ozga 12-shrift, 1,5 interval, qog'ozning bir tomonida chapdan – 2,5 sm, o'ngdan – 1,5 sm, yuqori va pastdan – 2 sm xoshiya qoldiriladi; matn sahifalariga tartib raqami beriladi, 1-titul varag'i, 2-reja, 3-betdan boshlab sahifalanadi; referat hajmi 20-25 betdan oshmasligi lozim.
- *Referat matnini rasmiylashtirish tartibi*: titul varag'i; ish rejasi; kirish; asosiy qism (kamida 3 ta banddan iborat bo'lishi lozim); xulosa; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati; ilova (jadval, diagramma, grafik, rasm, sxema va hokazo).

1.3.9. Ta'lim umumiy shakllari: jamoaviy, guruh bo'lib, yakka tartibda (frontal, zveno, individual).

1.3.10. Ta'lim usullari:

- *an'anaviy usullar* (og'zaki, amaliy, ko'rgazmali, kitob bilan ishslash, video va audio usullar);
- *aniq maqsadli usullar* (bilimlarni egallah; malaka va ko'nikmalarni shakllantirish; bilimlarni qo'llash; ijodiy faoliyat; mustahkamlash; bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish);
- *idrok etish-bilish faoliyati xarakteriga ko'ra usullar* (tushuntirish – illyustrativ (axborot – reseptiv); reproduktiv; muammonli bayon qilish; qisman ijodiy (evristik); tadqiqiy);
- *didaktik maqsadli yo'naltirilgan usullar* (ilk bor bilimlarni o'zlashtirish; egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish).

1.3.11. Yangi pedagogik va innovation texnologiyalar uslublari: «Ma'ruza», «Tanishuv», «Tushunchalar tahlili», «Zinama-zina», «Charxpalak», «Bumerang», «Rezyume», «Muammo»,

«Labirint», «Blis-so’rov», «Fikr, sabab, misol, umumlashtirish (FSMU)», «Skarabey», «Yelpig’ich», «Muloqot», «Yozma bahs», «Kuzatish, bahslashish, ishontirish (KBI)», «Munosabat», «Tashviqot guruhi», «Amaliyotda jamoaviy ijodiy ishlar», «Ssenariy (sahna)», «Ishontirish maktabi», «Kelishuv va ziddiyat», «Uchlik - samarali, axloqiy, nazokatli (SAN)», «Tushuntiruvchi, talqin qiluvchi (germenevtik)», «Aniq vaziyat, hodisa (keys-stadi)», «Haqiqiy vaziyatlarni o’yin qilib ko’rish (simulyasiya)», «Taqdimot», «Olmos», «Jadvallar», «Kungaboqar», «3x4», «6x6x6», «Muzyorar», «Yumaloqlangan qor», «Fikrlar hujumi», «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Insert», «Tarmoqlar (klaster)», «Babs-munozara», «Davra suhbati», «Davra stoli», «Kim ko’p, kim tezroq», «Kim chaqqon, kim topqir», «Kuchsiz halqa», «Loyiha», «To’rt pog’onali», «So’qrot suhbati», «Tanqid qilishni o’rganing», «Iyerarxiya», «Boshqaruv», «Murabbiy va jamoa» va hokazo.

1.3.12. *Ta’lim vositalari:*

- *matnli vositalar* (o’quv dastur; darslik; o’quv qo’llanma; elektron darsliklar va qo’llanmalar; uslubiy qo’llanma va ko’rsatmalar; tarqatma materiallar; imtihon va nazorat variantlari; testlar va hokazo);
- *tasvirli vositalar* (otosuratlar; eskiz; chizma; sxema; ramziy tasvir; reja jadvallar; simvollar; diagrammalar; grafiklar; slaydlar va hokazo);
- *audio-video vositalar* (videofilmlar; kompakt disklar; audio va video kassetalar; tasvir va matnni yozish va saqlash; doskalar (oq doska, flipchart doska, pinbord doska); videomagnitafon; kamera; kompyuter va hokazo);
- *modelli vositalar* (asbob-uskunalar; stanoklar; yarim tayyor va tayyor mahsulotlar).

1.3.13. *Didaktik tamoyillar tizimi:* ilmiylik, qulaylik, izchillik, uzviylik, nazariyaning amaliyot bilan bog’liqligi, onglilik, faollik va mustaqillik, ko’rgazmalilik, mustahkamlik, guruh qilib o’qitish hamda unda individual yondashishni qo’shib olib borish, o’qitishning tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi xarakteri, o’qitishning kasbiy yo’naltirilganligi.

1.3.14. *Ta’limda o’quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish shakllari:* dars, fan, texnika to’garaklari, o’quvchilar ilmiy uyushmalari, sayohatlar.

1.3.15. *Tarbiya usullari:* ishontirish; ijobiy namuna; mashq qilish; talablar; xulqi ustidan nazorat; faoliyatning boshqa ko’rinishlariga o’tish.

1.3.16. *Dars turlari:*

- *an’anaviy* (yoki standart, uning tuzilishi: so’rash, tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish),
- *zamonaviy* (uning tuzilishi: didaktik (asosiy), mantiqiy - psixologik, motivlangan va uslubiy);
- *noan’anaviy* (yoki nostandard), uning turlari:
 - muammoli;
 - texnologik;
 - virtual;
 - musobaqa va o’yin (tanlov, turnir, estafeta, duel, KVN, tadbirli, rolli (rassom, loyihachi, bezatuvchi, muharrir, rejisser va hokazo), krossvord, viktorina);
 - ijtimoiy amaliyotga ma’lum bo’lmagan ish shakllari, janrlari va uslublariga asoslangan (tadqiq etish, ixtirochilik, birlamchi manbalar tahlili, intervyu, reportaj, taqriz);
 - muloqotning og’zaki shaklini eslatuvchi (matbuot anjumani, auksion, benefis, miting, vaqt chegaralangan munozara, panorama, teleko’prik, bildirgi, muloqot, «jonli gazeta», og’zaki jurnal);

- o'quv materialini noan'anaviy tashkil etishga asoslangan (donolik, ochiq tan olish, «dublyor harakat boshlaydi»);
- hayoliylashgan (ertak, sovg'a, XXI asr darslari);
- muassasa va tashkilotlar faoliyatiga o'xshash asoslangan (sud, tergov, tribunal, patent byurosi, ilmiy yoki muharrirlik kengashi va h.k.).

1.3.17. Dars ko'rinishlari: ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlari, o'quv-seminar, suhbat, kinodars, kompyuter mashg'ulotlari, mashqlar, maslahatlar, ekskursiya, ekspedisiya, o'quv ishlab chiqarish va pedagogik amaliyoti, kurs, loyiha va bitiruv malakaviy ishlari, talabalarning mustaqil tahsili va hokazo.

1.3.18. Darsning asosiy tarkibiy elementlari: tashkiliy qism; uyg'a berilgan yozma vazifalarni tekshirish; talabalar bilimini og'zaki tekshirish (yoki so'rash); yangi materiallarni tushuntirish; yangi materiallarni mustah-kamlash; uyg'a vazifa berish; darsni uyushqoqlik bilan yakunlash.

1.3.19. Dars tahlilining asosiy tarkibiy qismlari: o'qituvchining darsga tayyorlarlik darajasi, darsning maqsad va vazifalari, tashkiliy ishlari, didaktik, uslubiy, metodologik, psixologik, pedagogik, o'quvchilar bilan hamkorlikda ishslash va yakuniy tahlillar.

1.3.20. Darsga kirgan o'qituvchining qo'lida bo'lishi lozim: guruh jurnali, fan o'quv dasturi, kalendar-mavzu rejasi, dars texnologik xaritasi, o'quv-uslubiy materiallar.

1.3.21. O'qituvchining darsga kirishdan oldin o'ziga qo'yadigan savoli: nega, nimani va qanday o'qitaman?

1.3.22. Abu Ali Ibn Sinoning o'qituvchiga qo'ygan talablari:

- talaba (o'quvchi)lar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'ling;
- berilayotgan bilimni talaba (o'quvchi)lar qanday o'zlashtirib olayotganligiga alohida e'tibor bering;
- ta'limda turli uslub va shakklardan foydalaning;
- talaba (o'quvchi)larning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini biling;
- talaba (o'quvchi)larni fanga qiziqtira biling;
- talaba (o'quvchi)larga uzatilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bering;
- bilimlarni talaba (o'quvchi)larga tushunarli hamda ularning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda bering;
- har bir so'zning talaba (o'quvchi)lar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lismiga erishing.

1.3.23. Didaktik vositalar

- *jixozlar va uskunalar, moslamalar:* videoproyektor; elektoron doska; kodoskop;
- *video-audio uskunalar:* videokamera;
- *kompyuter va multimediali vosita:* kompyuter, videoglazok; sab-bufer.

1.4. TAQVIM MAVZUIY REJA

(*Taqvim mavzuiy reja o'quv materialini to'g'ri taqsimlashda mazkur fan boshqa fanlar va amaliyotlar bilan bog'lashda, darsga kerakli o'quv materiallari va vositalarini tayyorlashda yordam beradi, o'qitish jarayonini loyixalashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi*).

No	Mavzu	Ajratilgan soat	Ta'lim shakli	Dars turi	Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	Mustaqil ish topshiriqlari
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

5-semestr (120 soat)

Ma'ruzalar (M) mavzusi bo'yicha (22 soat)

1.	1-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	1-4 MI
2.	2-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	5-8 MI
3.	3-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	9-12 MI
4.	4-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	13-16 MI
5.	5-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	13-16 MI
6.	6-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	13-16 MI
7.	7-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	13-16 MI
8.	8-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	13-16 MI
9.	9-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	13-16 MI
10.	10-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	13-16 MI
11.	11-M	2	Frontal	Standart	Arif.algeb. geom.infor.	An'anaviy	Matnli, tasvirli	3,4,6-8	13-16 MI

Amaliyot mashg'ulotlari (AM) mavzusi bo'yicha (12 soat)

1.	1-AM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	1-3 MI
2.	2-AM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	4-MI
3.	3-AM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	5-MI
4.	4-AM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	6-MI
5.	5-AM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	7-8 MI
6.	6-AM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	9-11 MI

Seminar mashgulotlari (SM) mavzusi buyicha (26 soat)

1.	1-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	1-3 MI
2.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb.	Aniq	Matnli,	1,2,5	4-MI

					geom.infor.	maqsadli	tasvirli		
3.	3-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	4-MI
4.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	1-3 MI
5.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	4-MI
6.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	4-MI
7.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	1-3 MI
8.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	4-MI
9.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	4-MI
10.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	1-3 MI
11.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	4-MI
12.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	4-MI
13.	2-SM	2	Zveno	Didaktik	Arif.algeb. geom.infor.	Aniq maqsadli	Matnli, tasvirli	1,2,5	4-MI

1.5. REYTING BAHOLASH MEZONLARI

Talabalar o'zlashtirishi monitoringi:

- nazorat (ta'lism oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni), xususan tekshirish (bilim darajasini aniqlash; joriy baholash; oraliq baholash; yakuniy baholash);
- hisobga olish (ta'limga muayyan davrida talabalar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash) va uning usullari (og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish).

Baholash mezonlari jadvali (Texnologik xarita):

Ishchi o'quv dasturidagi mavzular tartib raqami (qo'shimcha topshiriq mazmuni)	Umumiy soat					Bahola sh turi	Nazorat shakli	Ball		Muddati (hafta)
	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Seminar	mashguloti	Mustaqil ish			Max. ball	Sar. ball	
5 – semestr										
1 – 3 1 – 6	22	12	26	60	120	JB-1	Kundalik nazorat, uy ishi, referat, kollokvium, test	17		Yanvar, 1- hafta
4 – 6 7 – 13	22	12	26	60	120	JB-2	Kundalik nazorat, uy ishi, referat, kollokvium, test	18		Yanvar, 1- hafta
1 – 11	22	12	26	60	120	OB	Og'zaki	35	19	Fevral, 1- hafta

								70	39	
1 – 11 1 – 6 1 – 13	22	12	26	60	120	YaB	Yozma	30		Jadval bo'yicha
								100	55	

Fan bo'yicha joriy nazoratlarda talabalar bilimi va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash mezoni (max ball-35, o'tish bali-19)

Maksimal ball		Nazorat kilinadigan va baxolanadigan ish turlari			Baxolashda e'tibor qaratiladigan jixatlar			
1-JN	2-JN							
3	4	Mavzular bo'yicha nazariy tayyorgarlik darajasi va darsdagi faollik			Asosiy tushunchalar, ta'riflar, teoremlar va formulalarni bilish, moxiyatini tushunish, ijodiy fikrlay olish, bilimlarni amalda ko'llay olish			
3	4	Uyga berilgan topshiriqlarni bajarish sifati			Topshiriqlarni to'g'ri va to'lik bajarish, masalalarni xal kilishga ijodiy yondashish, tushuntirib bera olish			
7	7	Nazorat ishlarini bajarish sifati			Topshiriqlarni to'g'ri va to'lik bajarish, ijodiy yondashish, mustakil fikrlash, yechimni asoslay olish			
4	3	Mustaqil topshiriqlarni bajarilish sifati			Berilgan topshiriqlarni to'g'ri va to'lik bajarish, mustakil mulokaza yurita olish, bilimlarni amalda ko'llay olish, masalaga ijodiy ijodiy yondashish, moxiyatini tushunish va aytib bera olish			
17	18							

**Fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazoratlarda talabalar bilimi va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash mezoni
(ON bo'yicha max ball-35, o'tish bali-19; YaB bo'yicha max ball – 30, o'tish bali – 17)**

Savol lar		ON (max ball)	YaN (max ball)	Baholashda e'tibor qaratiladigan jihatlar
Nazari y	1	6	6	Asosiy tushunchalar, ta'riflar, formulalar, teoremlarini va ularni isbotini bilish, mohiyatini tushunish, tasavvur qilish va aytib bera olish, ijodiy fikrlay olish va mustaqil mulohaza yurita olish
	2	8	6	
Amali y	3	6	6	Topshiriqlarni to'g'ri va to'liq bajarish, ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, yechimni asoslay olish, mohiyatini tushunish
	4	8	6	
Mustis h	5	7	6	Savolga to'liq va to'g'ri javob berish, misollar bilan asoslash, ijodiy yondashish, mohiyatini tushunish va tushuntirib bera olish
Jami	35	30		

Fan bo'yicha reyting nazoratlarida o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash mezoni

JN	ON	YaN	Baholashlarda e'tibor qaratiladigan asosiy jihatlar
31-35 ball	31-35 ball	27-30 ball	Asosiy tushuncha, ta'rif, formula, teoremlar isbotlarni bilish amalda qo'llay olish, mohiyatini tushunish, ijodiy fikrlay olish, tasavvurga ega bo'lism, aytib bera olish, mustaqil mushohada yurita olish, topshiriqlarni aniq va to'g'ri bajarish.
25-30 ball	25-30 ball	22-26 ball	Asosiy tushuncha, ta'rif, formula, teoremlarini bilish, yengil isbotlarni bajara olish, bilimlarni amalda qo'llay olish, ijodiy yondashishga harakat qilish, tasavvurga ega bo'lism, topshiriqlarni to'g'ri bajarish va

			tushuntirish.
19-24 ball	19-24 ball	17-21 ball	Asosiy tushuncha, ta'rif, formula va teoremlarni bilish va amalda qo'llay olish, mohiyatini biroz tushunish va to'liq bo'lmaslik tasavvurga ega bo'lish. Amaliy topshiriqlarni deyarli to'g'ri bajarish va tushuntirib berishga harakat qilish.
0-18 ball	0-18 ball	0-16 ball	Asosiy tushuncha, ta'rif, formula va teoremlarni to'liq bilmaslik va amalda qo'llay olmaslik mustaqil mulohaza yurita olmaslik, yetarlicha tasavvurga ega bo'lmaslik va tushuntira olmaslik, topshiriqlarni to'liq bajarmaslik va qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yish.

1.6. TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

- 1.Alihanov S. Matematika o'qitish metodikasi. – T.;O'kituvchi, 1993 y.
2. Myetodika pryepodavaniya matyematiki. Obshaya myetodika. M:Prosvyeshcheniye, 1985 g.
- 3.Myetodika pryepodavaniya matyematiki. Obshaya myetodika. Yu.M.Kolyagin i dr. – M: 1975 g.
- 4.Myetodika pryepodavaniya gyeomyetrii. Planimyetriya.. –M, 1967 g.
- 5.Geometriya 7, Geometriya – 8, Geometriya – 7-11. O'kuv darsliklari.
- 6.Ta'lim tarakkiyoti. 4 – maxsus son. T.,O'kituvchi ,1999 yil.
- 7.Matematika – 5, Matematika – 6. – T.:O'kituvchi 1999 y.
- 8.Algebra – 7, Algebra – 8, Algebra –9, O'quv darsliklari. – T.ukituvchi-1998 yil.
9. Myetodika pryepodavaniya matyematiki. Chastnaya myetodika. Pod ryed. V.I.Mishina.- M:Prosvyeshcheniye, 1987 g.
- 10.Myetodika pryepodavaniya matyematiki. Chastnaya myetodika. Yu.M.Kolyagin i dr. – M.1977 g.

Qo`himcha adabiyotlar

1. Mamatov Sh.S., Amridinov S.A., matematika va informatika o'qitish metodikasi. Ma'ruza matnlari. 2004 yil
2. Oganyesyan V.A., Kolyagin Yu.M.i dr.-Myetodika pryedpodovaniya matyematiki. Obshaya myetodika. M. 1980
3. Blok A.L., Kanin Ye.S. I dr.- Myetodika pryedpodovaniya matyematiki. Obshaya myetodika. M. 1980.
4. Myetodika pryedpodovaniya matyematiki. Chastnaya myetodika M. 1977.
5. Myetodika pryedpodovaniya matyematiki. Chastnaya myetodika M. 1987
6. Laboratoriya i praktichyekiy zanyatiya po myetodikye pryedpopovaniya matyematiki. M. 1981.
7. Myetodika pryedpodovaniya giometryi. M. 1975
8. Algebra va geometriya bo'yicha o'quv qo'llanmalari.
9. Informatika va X.T. asoslari 8-9 sinflar uchun o'quv qo'llanma.
10. Informatika va xisoblash texnikasi asoslari. – T., 1999 yil.
11. Ta'lim tugrisidagi Konun.
12. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
13. Maktab matematika darsliklari.
14. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari buyicha darsliklar.
15. Stolyar A.A. Pyedagogika matyematiki. – M., Prosvyeshcheniye, 1982 g.
16. Myetyelskiy A. Didaktika matyematiki. – Minsk, 1991 g.

3. Internet saytlari

1. <http://www.edu.ru> va <http://www.edu.uz> – ta’lim saytlari.
2. <http://www.eqworld.ru> – adabiyotlarning elektron varianti.
3. <http://ru.wikipedia.org> – erkin ensiklopediya «Vikipediya».
4. <http://www.prepodu.net> – adabiyotlarning elektron varianti.
5. <http://www.twirpx.com> – adabiyotlarning elektron varianti.

4. Moddiy-texnik va yordamchi vositalar

1. Ko’rgazmali plakatlar.
2. Slaydlar dastasi.
3. Kompyuter dasturlari: MathLab, MathCad, Mathematika, Maple va boshqa.
4. Dasturlar paketi, masalan, ANSYS va boshqa.

5. Pedagogik texnologiyaga oid ba’zi adabiyotlar

1. Ostonov Q. Yangi pedagogik texnologiyalarni matematika o’qitish jarayonida tadbiq etish usullari. Uslubiy qo’llanma.– Samarqand: SamDU nashri, 2006.–72 b.
2. Avliyokulov N. Zamonaviy o’kitish texnologiyalari.-T., 2001.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat - T.: TDPU, Nizomiy, 2003.
4. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va rejalshtirish. – Toshkent: Iktisodiyot, 2009.
5. Byespalko V.P. Slagayemyye pyedagogichyeskoy tyexnologii. - M.: Pyedagogika, 1989.
6. Golish L.V. Tyexnologii obuchyeniya na lyeksiyax i syeminarax: Uchyebnoye posobiye //Pod obysh. ryed. akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
7. Yepishyeva O.B. Osnovnyye paramyetry tyexnologii obuchyeniya. //Shkolnyye tyexnologii -2004.- № 4.
8. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovation texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o’kituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.
9. Yo’ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O’kituvchi, 2004.
10. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Karshi, 2000.
11. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni ko’llash namunalari. - T.: RTM, 2000.
12. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
13. Syelyevko G.K. Sovryemyennyye obrazovatyelnyye tyexnologii: Uchyebnoye posobiye. - M.: Narodnoye obrazovaniye, 1998.
14. Tolibov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbikiy asoslari. – Toshkent, 2006.
15. Tolipov O’, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.
16. Farbyerman B.L. Pyeryedovyye pyedagogichyeskiye tyexnologii. -T.: Fan, 2000.
17. Xolmuxamedov M.M. va boshkalar. Ta’lim pedagogik texnologiyalari. Uslubiy ko’llanma. – Samarkand, 2005. – 49 b.

«TASDIQLAYMAN»
SamDU o'quv bo'limi boshlig'i

E.Turumov

«___» 2011 y.

**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti mexanika-matematika fakulteti
«Hisoblash usullari» kafedrasи «5480100 - Amaliy matematika va informatika » ta'lif
yo'nalishi bakalavr 4-kurs talabalari uchun « Matematika va informatika o'qitish
metodikasi» fanidan 2010-2011 o'quv yiliga**

KALENDAR ISh REJA

O'quv soatlari (5-semestr): 60 soat. Shundan: 22 soat ma'ruza, 12 soat amaliyot, 26 soat seminar.

№	Mavzu	Rejada		Amalda		O'qituv-chi imzosi
		Soat	Ijro muddati	Soat	Ijro sanasi	
Ma'ruza						
1.	Matematika ukitish uslubiyati fani predmeti	2		2		
2.	Matematika ukitishning mazmuni va vazifalari	2		2		
3.	Matematika ukitishning ilmiy usullari	2		2		
4.	Matematika o'qitishning ilmiy usullari (davomi)	2		2		
5.	Matematika o'qitishda tafakkur uslublari va shakllari	2		2		
6.	Matematik ta'lif usullari	2		2		
7.	Matematika o'qitish prinsiplari.	2		2		
8.	Matematika o'qitish vositalari.	2		2		
9.	Matematika o'qitishni tashkil etish. Matematika darsi.	2		2		
10.	Matematika o'qitishda masalalar yechishning axamiyati va o'rni	2		2		
11.	Matematika bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari mashgulotlar	2		2		
Jami		22		22		
Amaliyot						
1.	Matematika o'qitishning ilmiy usullari	2		2		
2.	Matematika o'qitishning ilmiy usullari (davomi)	2		2		
3.	Matematika o'qitishda tafakkur uslublari va shakllari	2		2		
4.	Matematik ta'lif usullari	2		2		
5.	Matematika o'qitish prinsiplari.	2		2		
6.	Matematika oqkitish vositalari.	2		2		
Jami		12		12		
Seminar						
1.	Matematika oqitishni tashkil etish.	2		2		
2.	Matematika darsi.	2		2		
3.	Matematika oqitishda masalalar yechishning axamiyati va o'rni	2		2		
4.	Matematika bo'yicha sinfdan va maktabdan	2		2		

	tashkari mashgulotlar				
5.	Son va xisoblashlarni o'rganish	2		2	
6.	Maktabda turli sonlar sistemalarini o'rganish	2		2	
7.	Algebrani o'kitish uslubiyati	2		2	
8.	Algebraik ifodalarni ayniy shakl almashtirish-larni urganish uslublari	2		2	
9.	Tenglama va tengsizliklarni o'rganish	2		2	
10.	Funksiyalar va grafiklarni o'rganish	2		2	
11.	Geometriya oqitish uslubiyati masalalari. geometriya o'quv predmeti sifatida	2		2	
12.	Fazoda to'gri chizik, tekisliklar va fazoviy jismalarni o'rganish	2		2	
13.	Maktabda informatika o'gitishning mazmuni va vazifalari	2		2	
Jami		26		26	

Kafedra mudiri:

dots. A.Abdirashidov

O'qituvchi:

dots. Sh. Mamatov

2 - BO'LIM

**«MATEMATIKA VA INFORMATIKA
O'QITISH METODIKASI» FANINING
O'QUV-USLUBIY MATERIALLARI**

MUNDARIJA

2. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining o'quv - uslubiy materiallari.

2.1. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining ma'ruza mashg'ulotlari materiallari

- 2.1.1. Matematika ukitish uslubiyati fani predmeti
- 2.1.2. Matematika ukitishning mazmuni va vazifalari
- 2.1.3. Matematika ukitishning ilmiy usullari
- 2.1.4. Matematika o`qitishning ilmiy usullari (davomi)
- 2.1.5. Matematika o`qitishda tafakkur uslublari va shakllari
- 2.1.6. Matematik ta'lim usullari
- 2.1.7. Matematika o`qitish prinsiplari.
- 2.1.8. Matematika o`qitish vositalari.
- 2.1.9. Matematika o`qitishni tashkil etish. Matematika darsi.
- 2.1.10. Matematika o`qitishda masalalar yechishning axamiyati va o'rni
- 2.1.11. Matematika bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari mashgulotlar

2.2. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining ma'ruza mashg'ulotlari ta'lim texnologiyalari

2.3. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining amaliy mashg'ulotlari materiallari

- 2.3.1. Matematika o`qitishning ilmiy usullari
- 2.3.2. Matematika o`qitishning ilmiy usullari (davomi)
- 2.3.3. Matematika o`qitishda tafakkur uslublari va shakllari
- 2.3.4. Matematik ta'lim usullari
- 2.3.5. Matematika o`qitish prinsiplari.
- 2.3.6. Matematika oqkitish vositalari.

2.4. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining amaliy mashg'ulotlari ta'lim texnologiyalari

2.5. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining seminar mashg'ulotlari materiallari

- 2.5.1. Matematika oqitishni tashkil etish.
- 2.5.2. Matematika darsi.
- 2.5.3. Matematika oqitishda masalalar yechishning axamiyati va o'rni
- 2.5.4. Matematika bo'yicha sinfdan va maktabdan tashkari mashgulotlar
- 2.5.5. Son va xisoblashlarni o'rganish
- 2.5.6. Maktabda turli sonlar sistemalarini o'rganish
- 2.5.7. Algebrani o'kitish uslubiyati
- 2.5.8. Algebraik ifodalarni ayniy shakl almashtirish-larni urganish uslublari
- 2.5.9. Tenglama va tengsizliklarni o'rganish
- 2.5.10. Funksiyalar va grafiklarni o'rganish
- 2.5.11. Geometriya oqitish uslubiyati masalalari.
geometriya o'quv predmeti sifatida
- 2.5.12. Fazoda to'g'ri chizik, tekisliklar va fazoviy jismlarni o'rganish
- 2.5.13. Maktabda informatika o'gitishning mazmuni va vazifalari

2.6. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining nazoratlari materiallari

2.1 - BO'LIM

«MATEMATIKA VA INFORMATIKA O'QITISH METODIKASI» FANINING MA'RUDA MASHG'ULOTLARI MATERIALLARI

MUNDARIJA

2.1 «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining ma'ruza mashg'ulotlari materiallari

- 2.1.1. Matematika ukitish uslubiyati fani predmeti
- 2.1.2. Matematika ukitishning mazmuni va vazifalari
- 2.1.3. Matematika ukitishning ilmiy usullari
- 2.1.4. Matematika o'qitishning ilmiy usullari (davomi)
- 2.1.5. Matematika o'qitishda tafakkur uslublari va shakllari
- 2.1.6. Matematik ta'lim usullari
- 2.1.7. Matematika o'qitish prinsiplari.
- 2.1.8. Matematika o'qitish vositalari.
- 2.1.9. Matematika o'qitishni tashkil etish. Matematika darsi.
- 2.1.10. Matematika o'qitishda masalalar yechishning axamiyati va o'rni
- 2.1.11. Matematika bo'yicha sinfdan va mакtabdan tashqari mashgulotlar

MAVZU: MATEMATIKA O'QITISH USLUBIYATI FANI, MATEMATIKA O'QITISH MAZMUNI VA VAZIFALARI

- 1.** Matematika – fan va o'quv predmeti sifatida.
- 2.** Matematika o'qitish uslubiyati fani maqsad va vazifalari.
- 3.** Maktabda matematika o'qitish mazmuni va vazifalari
- 4.** Matematika o'qitishda predmetlararo aloqalar.

Tayanch iboralar: matematika, matematika o'qitish uslubiyati, davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, o'quv rejasи.

1.Matematika - fan va o'quv predmeti sifatida.

“Matematika” so'zi grekcha “bilish, fan” so'zidan olingan bo'lib, bizga qadimgi Yunonistondan yetib kelgan. Bu fan o'z rivojlanish davri mobaynida quyidagi davrlarni bosib o'tgan:

1) *Matematikaning paydo bo'lism davri* - amaliy hisoblashlar va o'lchashlar, son va figura tushunchalari shakllanishi bilan belgilanadi. Bu davrda arifmetika va geometriya kabi matematikaning bo'limlari o'z boshlang'ich asoslariga ega bo'ldi.

2) *O'zgarmas miqdorlar davri* –eramizgacha VI-V asrlardan boshlanib, bu davrda matematika fani tadqiqot tushunchalariga (son va shakl), usullariga ega bo'lgan mustaqil fan sifatida shakllandı. Bu davrda matematikaning yangi sohasi – algebra fani paydo bo'ldi va rivojlandi.

Bunda buyuk vatandoshlarimiz Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy , Umar Xayyom, Abu Ali Ibn Sino , Ulug'bek , Al-Farg'oniy-larning xizmati katta bo'lgan.

3)*O'zgaruvchi miqdorlar davri* XVII asrdan boshlanib XIX asr birinchi yarmigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, matematikaning tadbiq qilish sohalari ko'paydi, funksiya va u bilan bog'lik, uzluksizlik va harakat g'oyalari asosiy o'rinni egalladi. Matematik analiz tarkib topdi va takomillashtirildi.

4) *O'zgaruvchi munosabatlar davrida* abstrakt nazariyalar, matematik tuzilmalarning roli oshdi va modellashtirish usuli keng qo'llanila boshlandi. Bu davr XIX asr ikkinchi yarmidan boshlanib to hozirgacha bo'lgan davrni qamrab olib, fanda algebraik strukturalar, yangi nazariya va yo'nalihsarning paydo bo'lishi va rivojlantirilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi paytda matematika yanada taraqqiy etib, turli nazariy kashfiyotlar bilan birlgilikda uning amaliy tadbiqlari ko'payib bormoqda.

Matematika fan sifatida ham, o'quv predmeti sifatida ham yosh avlodga o'rgatilishi talab etiladi. Bunga sabablar quyidagilar:

Matematika fan sifatida: moddiy borliqning fazoviy va miqdoriy munosabatlarini aks ettiruvchi qonunlarni to'la va chuqur o'rganish, targ'ib etishni talab etadi; o'rganilayotgan qonuniyatlarning qanday mazmunga egaligi va ularning qanday usul bilan asoslanganligi rivojlanish darajasi bilan hisoblashmaydi; unda tadqiqotchining shaxsiy fazilatlari, u yoki bu matematik qonunning qanday kashf etilganligi muhim emas; matematika fani ma'lum tizimda yaratiladi va rivojlanadi, u bir –biriga bog'liq qat'iy ketma–ket keluvchi qonunlarni ochib beradi. fanda asosiy tushunchalar, qabul qilingan aksiomalar uning boshlangich asosi bo'lib hisoblanadi.

Matematika o'quv predmeti sifatida: o'quvchilarga matematikadan bilim, ko'nikma va malakalar beriladi; matematik bilimlar berishda o'quvchilar yosh xususiyatlari hisobga olinadi; yangi matematik tushuncha yoki qonun kiritishga yondashish muhim ahamiyatga ega va shu asosda uni bayon etish usuli tanlanadi; abstrakt tushunchalar izohlar va misollar bilan beriladi; o'qitishda takrorlash ham amalga oshiriladi; o'quv predmeti fan tizimini qisqartirishi va buzishi mumkin emas.

2. Matematika o'qitish uslubiyati fanining maqsad va vazifalari

Insoniyat o'z rivoji davrida yosh avlodga bilimlar berar ekan asosiy e'tiborini o'z faoliyati va taraqqiyot talablarini hisobga olib, fanlar asoslarini o'rgatishga harakat qiladi. Shu sababli o'quvchilarga barcha bilimlar qatori matematikadan chuqur bilimlar berish vazifasi va

uni ilmiy amalga oshirish asosiy masalalardan hisoblanadi. Bunda matematika o'qitish uslubiyati asosiy o'rnlardan birida turadi.

"Metodika" so'zi yunoncha "metod" yoki "usul" so'zidan olingan. Matematika o'qitish metodikasi (uslubiyati) fani deb jamiyat tomonidan qo'yilgan ta'lim maqsadlarga mos ravishda matematika o'qitish usullarini, qonuniyatlarini uning ma'lum rivojlanish darajasida o'rganadigan va tadqiq etadigan pedagogikaning bo'limiga aytildi.

Matematika o'qitish uslubiyati fani "matematika pedagogikasi" sifatida ta'limning umumiyligini qonuniyatlarining matematika sohasida namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganadi.

Matematika o'qitish uslubiyati fani avvalo uzaro bir-biriga boglik to'rtta savolga javob berishi lozim.

Birinchisi – nima uchun matematikani urgatish kerak?

Bu savolga javobni ta'lim va tarbiya umumiyligini vazifalariga asoslanib topish mumkin, uz navbatida bu vazifalar jamiyat rivojining ma'lum bir boskichida uning oldida turgan umumbashari maksad va vazifalar bilan aniklanadi.

Ikkinchisi – kimni matematikaga urgatish kerak?

Bir tomonidan bu savol yosh xakida bo'lib, kachondan boshlab bolalarni matematikaga urgatish maksadga muvofik va kachon barcha uchun majburiy dastur urnatishni tugatish zarurligini ifoda etadi. Ikkinci tomonidan, mакtabdan keyingi matematik ta'limning uzviyligini ifodalaydi.

Uchinchisi – urganiladigan matematika mazmuni kanday bulishi kerak? Yoki nimani urgatish kerak?

Bu savolga javob matematika ukitish maksadlari xakidagi savol bilan mustaxkam boglik. Matematika fanidan uni ukitish va urgatish uchun kanday xajmda va kanday ma'lumotlar olish masalasi baxsli masalalardan xisoblanadi.

Turtinchisi – matematikani kanday urgatish kerak?

Bu savolga javob matematika ukitish uslubiyatining muxim kismi bulib, eng xarakatchan, eng ilgor va eng kulay ukitish usullari bilan birga ijodiy yondashishni talab etadigan usullar tizimini asoslash va targib kilish talab etiladi.

Matematika ukitish uslubiyati fanining **asosiy vazifalari** kuyidagilar: matematikani urganishning maksadlari va ukuv predmeti maz-munini aniklash; kuyilgan masalalarni amalga oshirish uchun eng kulay usullar va asosiy ukitish shakllarini yaratish.

Matematika ukitish uslubiyati uchta bulimdan iborat: matematika ukitish *umumiyligini uslubiyati* (masalan, ukitish usullari prinsiplari va xokazo masalalar kiradi); matematika ukitish *xususiy uslubiyati* (maktab matematika kursining ayrim bulimlari yoki tushunchalari yunalishlarini urganish usul va yullari karaladi); matematika ukitish *maxsus uslubiyati* (masalan, akademik lisey, kasb-xunar kollej va maxsus ukuv yurtlarida matematika ukitishning xususiyatlari urganilishi mumkin).

Matematika ukitish uslubiyati fani uz oldida turgan vazifalar kulamiga kura boshka fanlar bilan uzviy alokada. Avvalo matematikaning uzi bilan mustaxkam boglik bulib, shu asosda ukitishning mazmuni va usullari takomillashib boradi.

Matematika o'kitish uslubiyati pedagogik fan bo'lganligi uchun tabiiy ravishda *pedagogika fani* yutuklariga tayanadi. Bundan tashkari u *psixologiya* konuniyatlarini asosida matematika o'kitish konuniyatlarini ochib beradi, chunki ta'lim jarayonida o'kuvchilarning ma'lum guruxi(sinf) va xatto ayrim o'kuvchilar xususiyatlariga e'tibor berish, ularning kizikish va dikkat-e'tiborlari, xotiralarini xisobga olish, o'zlashtirish boskichlari, akl, xulki xususiyatlari va x.k.larni xisobga olish talab etiladi.

Maktabda matematika o'kitish uslubiyati *mantikka* xam tayanadi. Bunga sabab bir tomonidan matematika o'kitish bir vaktning o'zida mantikiy matematik tilga o'rgatish xisoblansa, ikkinchi tomonidan, fan sifatida matematikaning o'zi mantik konunlari asosida kurilgan.

Maktabda matematika o'kitishda asosiy narsa o'kituvchining pedagogik maxorati bo'lib, u xech kanday ta'rif va tavsifga muxtoj emas, chunki bu san'atdir. San'atni o'rganish lozim,

san'atni egallash kerak. Pedagogik maxoratni egallashdagi birinchi va zarur boskichlardan biri matematika o'kitish uslubiyatini o'rganish xisoblanadi.

3.Maktabda matematika o'kitishning mazmuni va vazifalari

Maktabda matematika o'kitishning asosiy maksadlari kuyidagi-lar:*umumta'lim, tarbiyaviy va amaliy maksadlar.*

Umumta'lim maksadlari: o'kuvchilarga ma'lum matematik bilim, ko'nikma va malakalar sistemasini berish; o'kuvchilarga olamni o'rganishning matematik usullarini egallashlariga yordam berish; o'kuvchilarni ogzaki va yozma matematik nutkka o'rgatish; o'kuvchilarning ta'lim jarayonida va o'z ustida ishlashlarida faol bilish faoliyatini oshirish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan kurollanishga xamda ko'llashlari uchun yetarli matematik ma'lumotlarni olishiga erishish.

Tarbiyaviy maksadlari: matematika faniga bo'lgan turgun kizikishni tarbiyalash; o'kuvchilarni axlokiy, ma'naviy-ma'rifiy, iktisodiy, estetik va ekologik tarbiyalash(masalan, mexnatga xurmat, burch xissi, go'zallik, ziyraklik, iroda va chidamlilik va x.k. xislatlarni tarbiyalash); o'kuvchilarning matematik tafakkur va kobiliyatlarini rivojlantirish, ularda matematik madaniyatni shakllantirishdan iborat.

Amaliy maksadlari: olingen bilimlarni oddiy xayotiy masalalarni yechishga, boshka o'kuv fanlarni o'rganishda ko'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish; matematik asboblar va jixozlardan foydalana olishga o'rgatish; bilimlarni mustakil egallay olish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinflari uchun *matematikadan davlat ta'lim standarti* (Ta'lim tarakkiyoti. 4-maxsus son.-T:Shark, 1999 y.-101-170-b.) maktabda o'kuvchilarga matematikani o'kitishdan ko'zda tutilgan maksadlarni kuyidagicha belgilaydi:

- o'kuvchilarning xayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, matematik tushuncha va munosabatlarni ular tomonidan ongli o'zlashtirilishida xamda xayotga tadbik eta olishiga intilish;
- o'kuvchilarda izchil mantikiy fikrlashni shakllantirib borish natijasida ularning akl-zakovat rivojiga, tabiat va jamiyatdagi muammolarni xal etishning makbul yo'llarini topa olishlariga ko'maklashish;
- insoniyat kamoloti, xayotning rivoji, texnika va texnologiyaning takomillashib borishi asosida fanlarning o'kitilishiga bo'lgan talablarni xisobga olgan xolda maktab matematika kursini ularning zamonaviy rivoji bilan uygunlashtirish;
- vatanparvarlik, milliy gururni tarkib toptirish, rivojlantirish, matematika rivojiga komusiy olimlarimiz ko'shgan ulkan xissalaridan o'kuvchilarni xabardor kilish;
- jamiyat tarakkiyotida matematikaning axamiyatini xis kilgan xolda umuminsoniy madaniyatning tarkibiy kismi sifatida matematika to'grisidagi tasavvurlarni shakllantrish;
- o'kuv jarayonini demokratiyalashtirish, gumanitarlashtirishga eri-shish.

Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida *matematik ta'limning vazifalari* kuyidagilar: son xakidagi tasavvurlarni rivojlantirish va xisoblashning inson tajribasidagi o'rnini ko'rsatish; xisoblashning amaliy ko'nikmalarini va xisoblash madaniyatini shakllantirish; algebraik amallarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish va ularning matematika va boshka soxadagi masalalarni yechishda ko'llash; elementar funksiyalarning xossalari, grafiklarini o'rganish va ularni tabiatdagi mavjud munosabatlarni taxlil kilish xamda ularni bayon kilishda foydalanish; planimetriyaning usullari va asosiy ma'lumotlarini o'zlashtirish; o'rganilayotgan tushuncha va uslublar xayotda va tabiatda ro'y berayotgan xodisalarni matematik modellashtirish vositasi ekanligi to'grisida tasavvurlarni shakllantirish; fazoviy jismlarning xossalarni o'rganishda bu xossalarning amaliyot masalalarini yechishga tadbik kilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Davlat ta'lim standarti(DTS): matematikadan ta'lim mazmunining majburiy xajmini; o'kuvchilarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini xisobga olgan xolda tanlanadigan o'kuv yuklamasining yukori mikdoridagi xajmini; asosiy yo'nalishlar bo'yicha o'kuvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga ko'yiladigan talablar va ularni baxolash me'yorlarini belgilaydi.

Yosh avlodga xozirgi zamon fani yangiliklarini, uning murakkab kirralarini o'rgatish bilan bir katorda o'tmish merosimizni o'rganishga imkoniyat tugdirilishi lozim. Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Axmad Fargoniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abul Vafo Buzjoniy, Fiyosiddin al-Koshiy, Umar Xayyom, Nasriddin At-Tusiy, Mirzo Ulugbeklarning va xozirgi zamon mashxur o'zbek matematiklarining matematika faniga ko'shgan xissalari xakida tushuncha berish maksadga muvofik.

Matematik ta'larning *asosiy yunalishlari*: son va xisoblashlar; ifodalarni ayniy shakl almashtirishlar; tenglamalar va tengsizliklar; funksiyalar va grafiklar; geometrik shakllar va kattaliklar.

Bu yo'nalishlar bo'yicha standartda majburiy minimum belgilangan.

Ukuvchilarning *matematik tayyorgarligiga ko'yiladigan talablarda*:

a) matematik ta'limgarayonida o'kuvchilarga beriladigan imkoniyatlar bayon etiladi;
v)o'kuvchilarning matematikadan egallashlari majbur bo'lgan bilim va malakalar, masalalar yechish ko'nikmalari ko'rsatiladi.

Shunday kilib, maktabda matematika o'kitish mazmuni va uni o'kitishni tashkil etish bo'yicha me'riy xujjatlarga DTS, o'kuv rejasiga dastur kiradi. Ular matematika o'kitish mazmunini aniklashni ta'minlaydi; xar bir sinf o'kuvchisi egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar xajmini belgilaydi; dasturning maktabda o'kitish asosiy maksadlariga mos kelishini va o'kuvchilar matematik tayyorgarligini ta'minlashi uchun yetarlilagini aniklab beradi.

4. Matematika o'kitishda predmetlararo alokalar

Matematika boshka o'kuv fanlari bilan uzviy alokada. Ayniksa fizika, astronomiya, biologiya, chizmachilik, kimyo va xokazo fanlar bilan bunday boglanishlarga ega, bu alokalar predmetlararo alokalar deyiladi. Matematika o'kitishda bu alokalar xisobga olinishi zarur. Xar bir matematik tushunchani o'rganishda boshka fanlardagi bunga mos tushunchalar va bilimlar muvofik ravishda o'rgatish talab etiladi.

Masalan, tenglamalarni o'rganishda fizik tushunchalar: xarakat, issiklik va boshka xodisalarni ifodalovchi tenglamalar ma'nosini bayon etish va ularga doir matnli masalalarni yechish mumkin, yoki funksiyalarni o'rganishda xam turli fizik, kimyoviy, biologik jarayonlarni tavsiflovchi funksiyalarga misollar keltirish va ularning grafiklarini yasash va tekshirishni amalgaga oshirish mumkin.

Matematika boshka predmetlar bilan birga ichki alokalarga ega, ya'ni geometriya va algebra orasida xam alokalar mavjud. Bunday alokalarni, masalan, geometriya masalalarini yechishda algebraik usullarni ko'llash va aksincha, geometrik usullar yordamida algebraik masalalarni xal kilish mumkin. Algebrani o'kitishda geometriya bilan uzviylikni geometrik tasvir va usullardan foydalanishda ko'rish mumkin. Masalan, funksiya grafiklarni siljitishlarda, funksiyalar xossalarni keltirib chikarishda geometrik usullarni ko'llash ichki predmetlararo alokalarni o'rnatish uchun imkon beradi.

Mustakil o'rganish uchun savollar:

1. "Matematika" atamasi ma'nosi nimani anglatadi?
2. Matematika fani kanday rivojlanish davrlarini bosib o'tgan?
3. Matematika fan sifatida kanday xususiyatlarga egi?
4. Matematika o'kuv predmeti sifatida kanday belgilarga ega?
5. Matematika o'kitish uslubiyati fani kanday savollarga javob berishi lozim?
6. Bu fanning asosiy vazifalarni nimalarni ko'zda tutadi?
7. Matematika bo'yicha davlat ta'limgarayonida standarti nima?
8. Matematik ta'limgarayonida nimalarni o'z ichiga oladi?
9. Matematika ukitishning asosiy yunalishlari nimalardan iborat?
10. Matematika o'kuv dasturi va o'kuv rejasiga kanday tuzilish va mazmunga ega?

3-4- MA’RUZA

MAVZU: MATEMATIKA O’QITISHDA ILMIY USULLAR

1. Ilmiy tadkikot usullarining umumiy tavsifi.
2. Kuzatish va tajriba.
3. Takkoslash va analogiya.
4. Analiz va sintez.
5. Umumlashtirish, maxsuslashtirish, konkretlashtirish va abstraksiya-lash.
6. Induksiya va deduksiya

Tayanch iboralar: ilmiy-tadkikot usuli, kuzatish, tajriba, analogiya, takkoslash, sintez va analiz, umumlashtirish, maxsuslashtirish, konkretlashtirish, abstraksiyalash, induksiya, deduksiya.

1. Ma’lumki, matematika fani ideal obyektlar bilan shugullanadi, lekin uning mazmunida barcha matematik obyektlar moddiy olam predmetlarini aks ettiradi, ularning moxiyati moddiy predmetlar xossalari karashda ikkinchi darajalilarini xisobga olmaslikni anglatib, tekshirilayotgan xossalari eng umumi va sof xolda namoyon bo’ladi. Shuning uchun xam barcha matematik tushunchalar va koidalar borlikning eng chukur va umumiy xossalari bilishni talab etadi.

Tabiat konunlarini o’rganishda matematika maxsus vositalar, tadkikotning *ilmiy usullaridan* foydalanadi. O’kitish jarayonida esa o’kuvchilar matematik xakikatlarni kashf etuvachilar xolatiga ko’yiladi va shuning uchun matematik tadkikotlar ilmiy usullari bir vaktning o’zida o’kuvchilarning o’kish usullari xam xisoblanadi. Shunday kilib, matematik tadkikotning matematika o’kitishda ko’llaniladigan asosiy usullari kuyidagilaridir: kuzatish va tajriba; takkoslash va analogiya; analiz va sintez; umumlashtirish, maxsuslashtirish, konkretlashtirish va abstraksiyalash.

2. **Kuzatish** deb atrof olam aloxida obyektlar va xodisalarining xossalari va munosabatlarini ular mavjud bo’lgan tabiiy sharoilarda o’rganish usuliga aytildi.

Kuzatishni oddiy kabul kilishdan fark kilish lozim. U yoki bu obyektni kabul kilish bu obyektning sezgi organlarimizga ta’sir etish paytidagi ongda bevosita aks etish jarayoni bo’lib, kuzatish uni o’z ichiga oladi va u bilan chegaralanmaydi.

Kuzatish xotirada saklash va keyin kuzatish natijalarini so’zda (yoki yozuvda) aks ettirilishiga xam boglikdir.

Tajriba deb obyektlar va xodisalarni o’rganishning shunday usuliga aytildiği, bunda biz ularning tabiiy xolatiga va rivojiga aralashamiz, ular uchun sun’iy sharoitlar yaratamiz, kismlarga ajratib boshka obyektlar va xodislar bilan boglanishlar xosil kilib tadkik etamiz.

Xar bir tajriba kuzatish bilan boglik. Tajriba o’tkazayotgan shaxs tajriba borishini kuzatadi, ya’ni obyekt va xodisalarning yaratilgan sun’iy sharoitlardagi xolati, o’zgarishi va rivoqlanishini kuzatish amalga oshiriladi.

Kuzatish va tajriba usullari tabiiy fanlar, fizika, kimyo, biologiyada asosiy o’rinni egalaydi. Matematika esa umumiy xolda tajribaviy fan emas, shuning uchun matematik tadkikotlarda bu usullar muxim o’rin egallamaydi.

1. Natural sonlarni tub kupaytuvchilarga ajratishni kuzatib, turli natural sonlar uchun bu yoyilmalarni topib, tub va murakkab son tushunchalari ma’nosini tushunadilar.

2. Uchburchak ichki burchaklari yigindisining kiymatlarini tajriba yo’li bilan aniklab, uning yoyik burchakka teng ekanligini topadilar, xuddi shunga o’xshash kuzatish va tajriba orkali yasash va o’lchashlar natijasida muxim geometrik xossa, konuniyatni ochishga va uni isbotlashga zamin tayyorlanadi.

Xulosa kilib aytganda, kuzatish va tajriba matematik tadkikotlarda asosiy usullar katoriga kirmasada, uni o’kitish va o’rganishda ko’llanilishi mumkin. Bu usullarni ko’llash natijalari u yoki bu matematik ma’lumotni kat’iy asoslash uchun to’lik yetarli emas, vaxolonki, uni topish va izlashda ko’l keladi.

3.Takkoslash – o’rganilayotgan obyektlarning o’xshashlik va farklarini fikran ajratishdan iborat.

Takkoslash tadkikot usuli sifatida obyektlarga matematik xossalarni o’rganish uchungina emas, balki bu xossalarni o’rnatishda xam foydalaniladi.

Takkoslashni ko’llashda kuyidagi **talablar** bajarilishi lozim:

1.Biri-biri bilan ma’lum boglanish va alokalarga ega obyektlarni takkoslash lozim, ya’ni ma’noga ega bo’lishi talab etiladi. Masalan, ikkita funksiya xossalarni, ikkita bir jinsli mikdorlarni takkoslash o’rinli, lekin uchburchak perimetri va tetraedr massasini takkoslash ma’noga ega emas.

2.Takkoslash reja asosida amalga oshirilishi kerak, ya’ni takkoslash o’tkazilayotgan boskichlar, xossalarni anik belgilanishi zarur. Masalan, ko’pburchaklar bir xil perimetrga ega bo’lganda yuzalarini takkoslash, ichki burchaklari yigindisiga ko’ra takkoslash, ichki va tashki chizilgan aylanalar radiuslari bo’yicha takkslash kabi boskichlar yoki xossalarni bo’yicha takkoslanishi mumkin.

3. Matematik obyektlarni bir xil xossalari bo’yicha takkoslash to’la bo’lishi, ya’ni oxirigacha yetkazilishi lozim. Buning ma’nosini shuki, takkoslanayotgan xossa bo’yicha obyektning yetarlicha barcha xossalarni tadkik etish talab etiladi. Masalan, ichki chizilgan burchak kattaligini turli xolatlar uchun tekshirib, uning yagona umumiy xossasini keltirib chikarish zarur.

Matematika o’kitishda xam takkoslashdan foydalanish muxim axamiyatga ega. Masalan, arifmetik progressiyani o’rganishda o’kuvchilarga bir nechta turli sonli ketma-ketliklar berilib, ular orasidan umumiy xossaga ega bo’lganlarini topish, keyin ularning tuzilishi konuniyatini aniklash talab etiladi: 1) 2,4,6,8,.. ; 2) -3,-5,-7,-9,..; 3) 1,-1,1,-1,..; 4) 2,2,2,..; 5) 2,5,8,11,14,.. 6) 3, 9,27,.. sonli ketma-ketliklarni takkoslashda 1), 2), 4), 5) ketma-ketliklar umumiy xossaga, ya’ni ketma-ketlikning xar bir xadi (birinchisidan tashkari) bu ketma-ketlikning oldingi xadiga bu ketma-ketlik uchun o’zgarmas bo’lgan sonni ko’shish bilan xosil kilinish konuniyatini aniklaydilar.

Shu bilan birga arifmetik progressiyaning boshka muxim xossalari: istalgan xadi ikki ko’shni xadlari o’rta arifmetigiga tengligi, tok sondagi arifmetik progressiya chetlaridan bir xil uzoklikdagi xadlar yigindisi p-chi xadga tengligi va xokazo, ya’ni bunda takkoslashdan tadkikotga o’tish imkoniyatlari mavjud.

Analogiya-takkoslanayotgan obyektlarning xususiy xossalari (belgi-lari) o’xshashligiga asoslangan tasdik bo’lib taxlil kilish natijasida xosil kilinadi. Masalan, xar kanday parallelogrammda karama-karshi tomonlar juft-jufti bilan teng, xar kanday parallelepipedda karama-karshi yoklar juft-jufti bilan teng. Parallelogramm va parallelepiped simmetriya o’klariga ega, parallelogramm yuzi va parallelepiped xajmi o’xshash formulalar bilan xisoblanadi. Xuddi shunday sfera bilan aylana, shar va doiranining ko’pgina xossalari analogiyani ko’llash asosida keltirib chikariladi. Va ular o’rinliligini ko’rsatish mumkin, lekin kat’iy isbotlash talab kilinadi.

Analogiya o’kitishda keng ko’llaniladi. Uni ko’llash tushunchalarni o’zlashtirishni osonlashtiradi, masalan, o’nli kasrlar xossalarni va ular ustida amallarni o’rganishda butun sonlar ustidagi amallar va xossalarni bilan analogiya o’tkazishdan foydalanish mumkin. Xuddi shunday algebraik kasrlarni o’rganishda oddiy kasrlar orasidagi analogiyani ko’llash mumkin.

Analogiya kat’iy matematik isbot bo’lib sanalmasada, unga asoslangan xulosalar oddiy va tushunarli bo’ladi, shuning uchun nazariyani o’rganishda xam, masalalar yechish usullariga o’rgatishda xam foydalanish mumkin. Bunda o’kuvchilar o’tilganlarni chukur o’zlashtirishlari lozim, chunki analogiyaga asoslanib ish ko’rishda xatolarga yo’l ko’yish mumkin va noto’gri xulosalarga kelish mumkin.

Matematika o’kituvchisi analogiya bo’yicha noto’gri tasdiklar uchrash imkoniyatini oldindan ko’ra bilishi va ularga o’rinli javob kaytarishi zarur. Masalan, o’kuvchilar kasrlarni kiskartirishda, ayrim irrasional ifodalarni almashirishlarda analogiya bo’yicha noto’gri xulosalarni chikarishlarga yo’l ko’ymaslik va uning moxiyatini anik ochib berishi talab etiladi.

4. Analiz va sintez tadkikot usullari matematika o'kitishda turli shakllarda namoyon bo'ladi: masalalar yechish usuli, teoremalarni isbotlash usuli, matematik tushunchalar xossalarini o'rganish usuli va xokazo.

Analiz va sintez bir-biridan ajralmas bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi va yagona analitiko-sintetik usulni tashkil etadi. Masalan, analiz yordamida masala bir nechta oddiy masalalarga ajratiladi, so'ngra sintez yordamida bu oddiy masalalar yechimlari birlashtiriladi.

Dastlab analiz tafakkur uslubi sifatida karalib, butundan kismlarga o'tishni, sintez esa kismlardan butunga o'tish yo'li sifatida karaladi. Keyinchalik analiz tafakkur uslubi sifatida karalib, natijadan uni keltirib chickargan sababga o'tishdan iborat tafakkur uslubi sifatida karaladi.

Va nixoyat, analiz tadkikot usuli sifatida tushunilib, son va o'lchov tushunchasiga tayanib obyektni mikdoriy o'rganishdan iborat. Sintez – obyekt sifatiy xossalarini o'rganishdan iborat tafakkur uslubidir.

Matematika o'kitishda analiz va sintez ikkinchi boskich tushunish ma'nosida ko'llaniladi. Bu usullar na fakat ilmiy-tadkikot usuli, o'kuv materialini o'rganish usullari sifatida, balki tafakkur jarayoni shakllari sifatida xam namoyon bo'ladi.

Analiz ikki xil shaklda "**filtr**" shaklida va **sintez orkali** ko'llaniladi. Birinchi shakldagi analizda masalani yechayotgan kishi tasodify ravishda yechish usulini izlab birin-ketin mavjud usullarni ko'llab ko'radi. Masalan, 6 ta gugurt chupidan 4 ta teng tomonli uchburchak yasash masalasini yechishda masalaning turli yechish usullari karalib, fakat masalani fazoda karalgandagina yechim mavjudligi keltirib chikariladi.

Analiz sintez orkali ko'llanilishiga misol sifatida masalan, aylanaga tashki chizilgan teng tomonli uchburchak perimetri bu uchburchakka ichki chizilgan teng tomonli uchburchak perimetridan ikki marta katta ekanligini isbotlashni karalsa. Avvalo AOS uchburchak karaladi va A_1S_1 bu uchburchak o'rta chizigi ekanligi ibotlanadi, so'ngra esa xuddi shunday ichki chizilgan uchburchak tomonlari yarmiga teng ekanligi isbotlanadi. Demak, bulardan tashki chizilgan uchburchak perimetri ichki chizilgan uchburchak perimetridan ikki marta katta ekanligi kelib chikadi.

Analiz va sintez teoremalarni isbotlashda xam keng ko'llaniladi. Masalan, ikki son o'rta arifmetigi ularning o'rta geometrigidan katta yoki teng ekanligini isbotlashda avvalo berilgan tengsizlikdan to'gri tengsizlikka kelish, so'ngra esa to'gri tengsizlikdan berilgan tengsizlikni keltirib chikarish amalga oshiriladi. Analitik usulda teorema isbotlanayotgan muloxazadan mantikiy asoslangan kadamlar bilan xakikat sifatida ma'lum muloxaza keltirib chikariladi. Sintetik usulda esa shunday xakikat muloxaza izlanadiki, ularidan mantikiy asoslangan kadamlar bilan berilgan muloxazani keltirib chikarish mumkin bo'lsin. Shuning uchun bu usul sun'iy o'ylab topilganga o'xshab ketadi.

Shunday kilib, matematik tadkikotda va o'kitish jarayonida analiz va sintez birlgilikda ko'llaniladi. O'kituvchi kayerda analiz, kayerda sintez ko'llash lozimligini ajrata olishi, bunda analiz- kashfiyotga yo'l bo'lsa, sintez – asoslashga yo'l ekanligini xisobga olinishi zarur.

5.Umumlashtirishda obyektlar to'plamiga tegishli va bu obyektlarni birlashtiruvchi birorta xossa fikran ajratiladi. Masalan, arifmetik progressiya p-xadi formulasini o'rganish uning berilgan birinchi xadi va ayirmasiga ko'ra turli xadлarni topishga doir konkret misollar asosida karaladi va umumiyl formula keltirib chikariladi. Bunda umumlashtirish orkali arifmetik progressiya p-chi xadini topish formulasini topish imkoniyati paydo bo'ladi.

Umumlashtirishda: a) obyekt biror o'zgarmasni o'zgaruvchi bilan almashtirish(uchburchakni ko'pburchak bilan); b) o'rganilayotgan obyektga ko'yilgan cheklashni olib tashlash(masalan, birinchi chorakdag'i burchakni ixtiyoriy burchak bilan) usullari ko'llaniladi.

Maxsuslashtirishda o'rganilayotgan obyekt xossalari to'plamidan birorta xossa fikran ajratishdan iborat. Masalan, romblar to'uplamidan teng diagonalli romblarni ajratib kvadratlar tuo'lamenti xosil kilamiz.

Maxsuslashtirish –berilgan to'plamdan bunda yotuvchi to'plamga karashga o'tishdan iborat. Masalan, musbat kasr sonlar to'plamini karashdan natural sonlar to'plamini karashga

o'tish maxsuslashtirishdan iborat. Bunda o'zgaruvchi mikdorni o'zgarmas bilan almashtirish yoki o'rganish obyektiga cheklashni kiritishni (uchburchak-teng yonli uchburchak) maxsuslashtirish deb xisoblanadi.

Abstraksiya analiz va umumlashtirish kabi ikki xil shaklda bo'ulishi mumkin. Birinchi shakli, predmetni xissiy bilish bo'lib, bunda predmetning bir xossasiga karamasdan boshka uning xossalarni ajratishdir. Geometrik jism sifatida karab predmetning shakli, o'lchovlari, tekislikda yoki fazo-dagi vaziyatiga karaladi. Ikkinci shakli abstraksiya xissiy bilishdan umuman olganda kelib chikadi. Masalan, uchburchakning turli burchaklar buyicha sinflashda abstraktlashtirib uchburchakning turlicha tomonga egaligi xossasiga e'tibor bermay, abstrakt uchburchak tushunchasi bilan ish ko'rildi. Salbiy tomoni shundaki, o'rganilayotgan obyekt ba'zi xossalariiga e'tibor bermaydi. Lekin bu xossalardan tashkari bizga muxim bo'lган xossalari ajratib karaladi. Demak, abstraksiyalash –o'rganilayotgan obyekt ba'zi muxim bo'lмаган xossalariiga fikran e'tibor bermasdan xossani tadkik etish uchun muxim xossa ajratib karaladi.

Konkretlashtirish o'kitishning dastlabki boskichlaridagi ko'llani-ladi. U o'rganilayotgan obyektning bir tarafi bir yoklama o'rganiladi va bu o'rganish uning boshka tomonlariga boglik bo'lмаган xolda amalga oshiriladi. U ko'rgazmali ko'rinishda yoki abstrakt koidaga misol sifatida ko'llanilishi mumkin. Masalan, rasional sonlarni ko'shishning o'rin almashtirish yoki guruxlash konunlari konkret misollarni karash asosida keltirib chikarilishi mumkin. Yoki birorta formulani o'rganishda bu formulani ko'llab xisoblashlarning konkret xollari karalishi konkretlashtirishdan iborat.

6. **Induksiya.** Tasdik chikarishning ikki xil turi mavjud: induksiya va deduksiya. Bulardan induksiya kadimgi grek olimi Sokrat (eramizgacha 469-399 yillar) nomi bilan boglik. Induksiya – yo'naltirish, uygotish ma'nosida bo'lib, uch asosiy ko'rinishga ega: 1) ikki yoki bir nechta birlik yoki xususiy xukmlardan yangi umumi y xukm xulosa chikariladi; 2) tadkikot usuli bo'lib, obyektlar to'plami barchasiga tegishli xossalari ba'zi alovida olingan obyektlarda o'rganiladi; 3) materialni bayon kilish usuli bo'lib o'kitishda unchalik umumi y bo'lмаган koidalardan umumi koidalari(xulosa va natijalar)ga kelinadi. Misollar: birlik xukmlar: aylana, ellips va boshka chiziklar to'gri chizik bilan ikkitadan ko'p bo'lмаган nuktada kesishadi. Xususiy xukmlar: ellips, giperbola va xokazo konik kesimlar turlari bo'lib, ikkinchi tartibli egri chiziklar to'gri chizik bilan ikkitadan ortik bo'lмаган nuktada kesishadi.

Ikki xil induksiya mavjud: to'lik bo'lмаган va to'lik. *To'lik bo'lмаган induksiyada* berilgan vaziyatga taalukli barcha xususiy xollar karab chikilmaydi. Masalan, $5+2=2+5$ tenglikdan $a+v=v+a$ yoki arifmetik progressiya p-chi xadi formulasini keltirib chikarish, bunda faraz keltirib chikariladi, isbot esa deduktiv yo'l bilan amalga oshiriladi.

To'lik induksiya berilgan vaziyatga taalukli barcha birlik va xususiy xukmlarni karashga asoslangan xulosa chikarishga tayanadi. Masalan, birinchi 10 ta son orasidagi tub sonlar sonini aniklash uchun barcha sonlarni karab chikish mumkin. Ba'zida to'lik induksiya isbotlash uchun ko'l keladi, masalan, ichki chizilgan burchakni o'lchashda uchta xususiy xol karalishi mumkin: burchakning bir tomoni diametr, burchak ichida diametr, diametr burchakdan tashkarida.

Deduksiya lotincha deduktio – keltirib chikarish ma'nosini anglatib, tasdikning bir shakli bo'lib, bitta umumi y xukmdan va bitta xususiy xukmdan yangi unchalik umumi y bo'lмаган yoki xususiy xukm keltirib chikariladi. Umumi y xukm EKUB (6,7)=1. Yangi xususiy xukm: 6 va 7 o'zaro tub sonlar.

Deduktiv xulosalar uch xilda bo'ladi: a) umumi yrok koidadan umumi yrok bo'lмаган (yoki birlik) xukmga o'tish, masalan, yuqoridagi misol bundan dalolat beradi; b) umumi y koidadan umumi y koidaga o'tish

(masalan, barcha juft sonlar 2 ga bo'linadi, barcha tok sonlar 2 ga bo'linmaydi, xech kanday juft son bir vaktda tok son xam bo'lomaydi);

v) birlikdan xususiyga o'tish (2 soni-tub son, 2 -natural son, ba'zi natural sonlar tub sonlardir).

Matematikada yana **matematik induksiya prinsipi** mavjudki, u orkali ko'pgina mulloxxazalarni isbotlash mumkin bo'ladi.Uning boskichlari kuyidagilardan iborat: 1) kuzatish va tajriba; 2)faraz; 3) farazni asoslash(isbotlash). U uch kadamda amalga oshirilishi mumkin: 1)

$p=1$ uchun muloxaza to'griligi tekshiriladi: 2) $p=k$ uchun muloxaza to'gri deb, muloxazaning $p=k+1$ uchun to'griligi isbotlanadi. 3) isbotning oldingi ikki kadami va matematik induksiya prinsipiiga asosan teorema yoki muloxaza xar kanday p uchun to'gri degan xulosaga kelinadi. Bundan o'kitishda keng ko'llanib, turli xil sonli tengliklar va tengsizliklarni isbotlashda foydalanish mumkin.

Mustakil urganish uchun savollar:

1. Matematika ukitishda kanday ilmiy-tadkikot usullari kullaniladi?
2. Kuzatish va tajriba ukitishda kanday kullaniladi?
3. Takkoslash va analogiyaning kanday xususiyatlari mavjud?
4. Analiz va sintez kanday matematika o'kitishda amalga oshirish mumkin?
5. Umumlashtirishning kanday belgilari mavjud?
6. Maxsuslashtirish va konkretlashtirish xususiyatlari xakida nimalarni bilasiz?
7. Induksiya va uning xossalari xakida nimalarni bilasiz?
8. Deduksiya va uning o'kitishda ko'llanilish xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Matematik induksiya prinsipi bilan matematik muloxazalar kanday isbotlanadi?

5- MA'RUZA

MAVZU:MATEMATIKA O'QITISHDA TAFAKKUR USLUBLARI VA SHAKLLARI.

1. Tafakkurning kiskacha tavsifi.
2. Matematik tushunchalar va ularni shakllantirish.
3. Xukmlar va ularning turlari.
4. Matematik tasdiklar va isbotlash usullariga o'rgatish.
5. Matematika o'kitishda induksiya va deduksiya.

Tayanch iboralar: tafakkur, matematik tushuncha, xukm va tasdiklar, tushuncha xajmi va mazmuni, shakllantirish boskichlari, aksioma, teorema, postulat, induksiya va matematik induksiya prinsipi, deduksiya.

1. Matematikaning rivoji inson tafakkuri ta'sirida amalga oshadi. Shu sababdan xam matematikani o'rganish o'rganuvchidan tafakkurni rivojlantirishni talab etadi. Bunda matematik tafakkurning o'ziga xos usul va shakllaridan foydalanishga to'gri keladi. Bu xakda ayniksa fransuz matematigi Anri Puankare xamda German Veyning matematik tafakkur xakidagi fikrlari, uni yoshlikdan tarbiyalab borish zarurligini tasdiklaydi (2, 3).

Tafakkur- inson ongida ask etgan obyektlar tomonlar va xossalari ajratish va ularni yangi bilim olish uchun boshka obyektlar bilan tegishli munosabatlarda ko'yish jarayoniga aytildi. Umuman olganda, tafakkur obyektiv borlikning inson ongida faol aks ettirish jarayonidir.

Tafakkur xam mazmun va shaklga ega. Aloxida fikrlar tuzilmasi va ularni maxsus birlashmalariga tafakkurning shakllari deyiladi. Tafakkurning shakllari kuyidagilar: tushuncha, xukm va tasdiklar. Uning xakikatliligi – ularni to'gri o'rganish, mustaxkam va ishonchli sistemani ta'minlaydi.

2. **Tushunchalar** obyektlarning turli xil sifatlari, belgilari va xususiyatlarini aks ettiradi, bunda birlik va umumiylit xossalari mavjud. Birlik xossalari fakat shu obyektga tegishli bo'lib, uni boshkalaridan farklovchi belgilarini o'z ichiga oladi, umumiylit xossalari – obyektlarga tegishli muxim xossalarni ifodalash uchun tushunchani boshka tushunchalardan farkli belgilari va umumiyligini ta'minlash uchun ko'llaniladi.

Tushunchaning xususiyatlari: moddiy dunyoni aks ettiruvchi kategoriya xisoblanadi; bilishda umumlashgan narsa sifatida paydo bo'ladi; tushuncha o'ziga xos inson faoliyatini bildiradi; inson ongida tushuncha shakllanib, u nutkda, yozuvda va belgilarda ifodalanishi bilan xarakterlanadi.

Tushunchaning shakllanish jarayoni boskichlari: kabul kilish, xissiy bilish, tasavvur, tushunchaning shakllanishi.

Umumlashtirishda bir necha obyektlarga tegishli umumiylilklar ajratilib, farklari karalmaydi, abstrakt tushunchalar shunday paydo bo'ladi. Bunda obyektlarning kattarok to'plami karalib, ularga xos umumiylar va turgun xossalari ajratiladi.

Tushuncha **mazmun** va **xajmga** ega: mazmun – bu tushunchaning barcha muxim belgilari to'plamidan iborat, xajmi esa – bu tushunchani ko'llash mumkin bo'lgan obyektlar to'plami, demak, mazmun – belgi, xossalari, xajm- obyektlarni ifodalaydi.

Parallelogramm tushunchasi mazmuniga kuyidagi belgilari kiradi: karama-karshi tomonlar teng, karama-karshi burchaklar teng, kesishish nuktasida diagonallari teng ikkiga bo'linadi. Xajmiga esa parallelogrammlar, romblar, to'gri to'rtburchaklar, kvadratlar kiradi.

Tushunchaning mazmuni va xajmi o'zaro alokada. Mazmun xajmni belgilaydi, xajm esa mazmunni to'la aniklaydi. Ular o'zaro teskari boglanishda, ya'ni mazmun o'zgarishi bilan xajm o'zgaradi, lekin birining kengayishi ikkinchisining torayishiga sabab bo'ladi.

Masalan, parallelogramm tushunchasi mazmunini kengaytirsak, ya'ni uning diagonallari o'zaro perpendikulyar belgisini ko'shimcha kilsak, uning xajmi torayadi va unga fakat romb va kvadratlar kiradi. Agar mazmunnni kichraytirsak, ya'ni juft-juft karama-karshi tomonlari parallelligini olib tashlasak, u xolda uning xajmi kengayib, unga yana trapesiyalar xam kiradi.

Agar ikkkita tushuncha p₁ va p₂ berilgan bo'lsa va ularningg xajmlari tegishlilik munosabatida bo'lsa, ya'ni p₂ tushuncha kattarok xajmga ega bo'lsa, u xolda p₂ tushuncha p₁ ga nisbatan jinsdosh, p₁ esa p₂ ga nisbatan turdosh deb ataladi. Masalan, romb parallelogramma turdosh tushuncha, aksincha, parallelogramm rombga jinsdosh tushuncha xisoblanadi.

Tushuncha mazmunini ochishda uning belgilari yordamida ta'riflash muxxim axamiyatga ega. Tushunchanining ta'rifida xar bir belgi zaruriy, barchasi esa yetarli bo'lishi zarur. Masalan, parallelogramm- ikki juft karama-karshi tomonlari teng va parallel bo'lgan to'rtburchak, kvadrat – tomonlari teng va to'rtta burchagi to'gri bo'lgan parallelogrammdir kabi ta'riflar bunga misol bo'la oladi. Umuman olganda, ixtiyoriy tushunchani kengaytirib nuktali to'plamlargacha olib borish mumkin. Masalan, kvadrat tushunchasining kengayishini kuzatsak: kvadrat – romb – parallelogramm – ko'pburchak – geometrik shakl – nuktali to'plam.

Tushunchalarni ta'riflashda kuyidagi usullar mavjud: yakin jinsdosh va turdosh orkali ta'riflash: masalan, kvadrat – teng tomonli to'gri to'rtburchak, romb – diagonallari o'zaro perpendikulyar parallelogramm, genetik usul – tushunchalarning kelib chikishini ko'rsatish orkali: masalan, aylana ta'rifi, bunga misol bo'la oladi. Induktiv ravishda ta'riflash – rekurrent tengliklar yordami bilan ta'riflash, masalan, arifmetik progressiya ta'rifini p-chi xadi umumiylar formulasi orkali berilishi bunga misoldir. Abstrakt ta'riflashda tushunchaga xos belgi va xossalari asosida ta'riflanadi, masalan, natural sonni ekvivalent chekli to'plamlar xarakteri sifatida ta'riflanadi.

Tushuncha xajmi uni sinflash uchun imkoniyat yaratadi, masalan, natural son=tub son + murakkab son + bir, kavarik ko'pburchak = kavarik to'rtburchak + to'rburchak emas.

Matematik tushunchalarni shakllantirish kuyidagi boskichlarni o'z ichiga oladi: kabul kilish va sezgi; kabul kilishdan tasavvurga o'tish; tasavvurdan tushunchaga o'tish; tushunchani shakllantirish; tushunchani o'zlashtirish.

Matematik xukmlar obyektlar xakidagi fikrlar tuzilmasidan iborat bo'lib, tushunchaning biror xossa yoki boshka tushunchalar bilan munosabatini o'rnatish uchun ko'llaniladigan tafakkur shakli xisoblanadi, tushunchadan farkli tomoni to'gri yoki rostligi asoslanilishi talab etiladi yoki bunday usul mavjudligi ko'rsatilishi lozim.

Matematik xukmlarning kuyidagi turlari mavjud: aksiomalar, teoremlar, postulatlar.

Aksiomalar xakida gapirganda ta'kidlash kerakki, isbot talab kilmaydigan fikr bo'lib, matematika fani asosida bunday boshlangich fikrlar – aksiomalarga tayanilgan xolda ish ko'rildi. Natural sonlar Peano aksiomalar sistemasiga, geometriya Yevklid aksiomalar sistemasini asosida kurilishi bunga misol bo'la oladi. Aksiomalar boshlangich ta'riflanmaydigan tushunchalar orasidagi dastlabki munosabatlarni ifodalash uchun ishlatalib, shu asosda nazariy

koida va teoremlar keltirib chikariladi. Masalan, bir to'gri chizikda yotmaydigan uchta nukta orkali fakat bitta tekislik o'tkazish mumkin.

Teoremlar esa matematik xukmlarning eng ko'p ishlataladigan turi bo'lib, u aksiomalar yordamida o'rnatilayotgan nazariy natijalarni ifoda etib, isbotlanishi talab etiladi. Teorema ikki kismdan iborat: shart va xulosa va $A \Rightarrow V$ shaklda belgilanishi mumkin. Berilgan teoremaga asoslanib uchta teoremani tuzish mumkin: teskariga teorema $V \Rightarrow A$, karama-karshi teorema $\neg A \Rightarrow \neg B$; teskariga karama-karshi $\neg B \Rightarrow \neg A$.

Teoremaning turlari orasida kuyidagi boglanish mavjud: agar to'gri teorema rost bo'lsa, karama-karshi teorema xam rost va aksincha. Teskariga teorema rost bo'lsa, teskariga karama-karshi teorema xam rost bo'ladi.

Zarur va yetarli shartlarni xam o'rganish talab etiladi. Umuman olganda, r muloxaza uchun x uchun yetarli shart bo'ladi, agar $x \rightarrow r$ implikasiya rost natija bersa, r muloxaza x uchun yetarli shart bo'ladi, agar $r \rightarrow x$ implikasiya rost bo'lsa. Masalan, natural son 6 ga bo'linishi uchun u juft bo'lishi zarur, lekin yetarli emas, natural son juft bo'lishi uchun u 6 ga bo'linishi yetarli. Natural son 2 ga bo'linishi uchun u juft bo'lishi zarur va yetarli.

Zarur va yetarli shartlar: r shart uchun zarur va yetarli shart bo'ladi, agar bir vaktning o'zida $x \rightarrow r$ va $r \rightarrow x$ implikasiyalar rost bo'lishi kerak.

Tushuncha ostiga kiritish. U yoki bu obyekt yoki munosabat berilgan tushuncha xajmidan iborat obyektlar yoki munosabatlardan to'plamiga mos ravishda tegishliligini isbotlash faoliyati tushuncha ostiga kiritish deyiladi.

Maktabda o'kuvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda isbotlashga doir masalalarni yechish muximdir. Ayniksa, algebra darslarida bunday masalalarni yechishga o'rgatish uchun yetarli imkoniyatlar mayjud. Ko'p ko'llaniladigan teskarisidan faraz kilish, matematik induksiya usullaridan tashkari o'kuvchilarga ba'zi o'ziga xos usullarni xam o'rgatish ularning matematik fikrlash faoliyatlarini rivojlantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday usullarni 7-9-sinf algebra darslarida foydalanish jixatlariga to'xtalib o'tamiz.

1. **Kontrapozisiya bo'yicha isbotlash.** Bu usulda $A \Rightarrow V$ muloxazani isbot-lash o'rniiga V ga karama-karshi muloxazani rost deb faraz kilib, A ga karama-karshi muloxazanining xakikatligini keltirib chikarishga xarakat kelinadi. Mazkur usul bevosita isbotlash ancha murakkab bo'lган xolda ko'llanib, dastlab o'kuvchilarga $A \Rightarrow V$ muloxazadan $\neg A \Rightarrow \neg B$ muloxazani tuza olish, so'ngra esa isbotlash usulini tadqik etishga o'rgatiladi. Masalan, kiska ko'paytirish formulalarini o'rganishda: agar $9a^2 - 12as + 2v < 0$ bo'lsa, u xolda $b \leq 5s^2$ o'rinni bo'lishini isbotlash o'rniiga, "agar $b > 2c^2$ bo'lsa, $9a^2 - 12ac + 2b \geq 0$ tengsizlik o'rinni bo'lishini isbotlash oson ekanligini ko'rsatish mumkin:

$$9a^2 - 12ac + 2b > 9a^2 = 12ac + 4c^2 = (3a - 2c)^2 \geq 0$$

2. **Konrmisol va tasdiklovchi misol keltirish usullari.** Konrmisol sifatida $(\forall x / P(x)) \Leftrightarrow (\exists a. (\forall x) \overline{P(x)})$ muloxazalar teng kuchliligini xisobga olib, $\forall x \in X, P(x)$ muloxaza yolg'onligini ko'rsatish uchun X soxadagi shunday x kiymatni topish kerakki, uning uchun P xossa bajarilmasligini ko'rsatish yetarli. Masalan, "Tengsizliklar" mavzusini o'rganishda " $c > 1/c$ bo'lsa, $s > 1$ bo'lishi to'grimi" muloxazasiga konrmisol sifatida $s = -0,5$ ni olish mumkin, chunki $-0,5 > 1/-0,5 = -2$ bo'lsa, u xolda $s = -0,5 < 1$ bo'ladi. "Ko'pxadni ko'paytuvchilarga ajratish" mavzusini o'rganishda " $n^3 + 5n - 1$ ifodanining kiymati ixtiyoriy natural n da tub son bo'lishi to'grimi" muloxazasi uchun $n = 6$ konrmisol bo'ladi va x.k.

Tasdiklovchi misol usulida $\exists x \in X, P(x)$ muloxaza rostligini isbotlash uchun X soxada xech bo'limganda bitta x kiymatni topish kerakki uning uchun R xossa bajarilishi ko'rsatiladi. Masalan, "Natural ko'rsatkichli daraja" mavzusini o'rganishda " $x^5 + u^5 = 33^6$ " tenglikni kanoatlantiruvchi x va u natural sonlar mavjudmi?" mashki uchun tasdiklovchi misol $x = 66$, $u = 33$ kiymatlar xisoblanadi. Yoki bunga o'xshash $\sqrt{xy} = xy$ tenglikni kanoatlantiruvchi x va u sonlar

mavjudmi?” (tasdiklovchi misol: $x=1, u=1$), “ $|a-b|=|a|-|b|$ tenglik ayniyat bo’ladimi?” (kontrmisol: $a=3, v=-4$) va xokazo.

Bu usulni ko’llashda o’kituvchi asosiy e’tiborni isbotlash talab etilayotgan mashklar talabida “to’grimi?”, “mavjudmi?”, “mumkinmi?” degan savollarning borligiga xamda berilgan shartda ikkita A yoki \bar{A} tasdiklardan birortasining xakikatligini ko’rsatish zarurligiga karatish lozim.

3. Analiz va sintezning turli xususiy ko’rinishlaridan foydalanish usuli. Bunday usullarga algebra darslarida: a) kasrning butun kismini ajratish; b) butun kismlarga ajratish (analiz); v) butun kismlar bo’yicha kayta tuzish (sintez); g) ularning kombinasiyasidan iborat usul (analiz va sintez) lar kiradi.

Birinchi usul asosan “Algebraik kasrlar” va “Rasional tenglamalar” mavzularini o’rganishda ifodalarni ayniy shakl almashtirish yoki tenglamalar yechimlarini topish uchun ko’llaniladi. Masalan, $u=(x^2-5)/(x^2+1)$ kasrning eng kichik kiymatini topishda bu ifodaning butun kismi ajratilib $u=1-6/x^2+1$ ning $x=0$ dagi $u=-5$ ga teng kiymati ekanligi keltirib chikariladi. Bundan keyinchalik funksiyalar eng kichik va eng katta kiymatlarini topishda, funksiya kiymatlar soxasini topishda yoki funksiyaning o’suvchi yoki kamayuvchiligini isbotlashda xam keng ko’llaniladi. Masalan, $u=x/x+1$ funksiyaning $x>-1$ da o’suvchi ekanligini isbotlash uchun uni $u=1-1/x+1$ ko’rinishga keltirib, isbotlanadi. Ikkinchi usulda ifoda kismlarga ajratib tadkik etiladi. Masalan, “ a^3+3a^3+8a ifoda ixtiyoriy natural a da 6 ga bo’linishini isbotlash uchun $(a^3+3a^2+2a)+va=a(a+1)(a+2)+va$ ko’rinishga keltirilib, muloxaza isbotlanadi. Uchinchi usulda butunning kismlari kayta tuzilib, yangi ko’rinishga keltiriladi. Masalan, $9x^2-2ux+6$ ifodaning xamma vakt musbat ekanligini ko’rsatish uchun “to’lik kvadrat ajratilib” $(3x-4)^2+47>0$ ekanligi isbotlanadi. Va nixoyat, to’rtinchi usulda ifoda oldin kismlarga ajratilib, so’ngra ularni tuzish amalga oshiriladi. Masalan, $a>0, v>0, s>0$ bo’lsa,

$$av(a+v-2s)+vs(v+s-2s)+as(a+s-2v)>0$$

ekanligini isbotlashda

$$\begin{aligned} & v^2s-2avs+a^2s+av^2-2avs+as^2+a^2v-2avs+vs^2=s(v^2-2av+a^2)+a(v^2-2vs+s^2)+v(a^2-2as+s^2)= \\ & =s(a-v)^2+a(v-s)^2+v(a-s)^2 \geq 0 \end{aligned}$$

dan foydalanish mumkin.

4. Barcha xususiy xollarни karab chikish usuli. Bu usulda muloxazaga tegishli barcha xususiy xollar karalib, karama-karshilikka yoki to’gri muloxazaga kelish amalga oshiriladi. Masalan, sonlarning irrasionalligini isbotlashda bo’linish alomatidan foydalanib kuyidagi masalani yechish mumkin.

1-masala. $A=\sqrt{5k+3}$ - bunda k-butun son ko’rinishidagi sonning irrasionalligini isbotlang.

Isbot. Xar kanday butun son 5 ga bo’linganda, fakat 0,1,2,3,4 koldiklar bergani uchun butun sonning kvadrati fakat 0,1 va 4 koldiklarni beradi. Shuning uchun $a \notin \mathbb{Z}$ va a^2 ning tub ko’paytuvchilari yoyilmasida kandaydir r ko’paytuvchi tok daraja bilan kiradi. Lekin $a=m/n$ -kiskarmas rasional son bo’lsin, u xolda $m^2=a^2n^2$ va $m:p, n:p$ karama-karshilik.

Yana shunga o’xhash kuyidagi masalani yechishda xam biror xususiy xol karalib, keyin karama-karshilik xosil kilishdan foydalaniladi.

2-masala. 0,12345.. (barcha sonlar tartib bilan yozilgan) sonning irrasionalligini isbotlang.

Isbot. Faraz kilaylik, bu davriy kasr davri n ta belgidan iborat bo’lsin. Lekin bu kasrda katorasiga $2n+1$ ta nolga joy topiladi. Bu oralikda butun bir davr joylashishi lozim, ya’ni butun bir davr joylashadi, ya’ni davr nollardan tashkil topgan, lekin bu unday emas, karama-karshilikka keldik.

Algebra darslarida ayniksa tengsizliklarni isbotlash usullariga o’rgatish muximdir. Bunda kuyidagi usullarni ko’llashni o’rgatish zarur:

1. Ikki son o’rtalari arifmetigi va o’rtalari geometrigi orasidagi tengsizlikdan foydalanish usuli, ya’ni $\frac{a+b}{2} \geq \sqrt{ab}$ tengsizlikdan foydalanib isbotlash. Avvalo o’kuvchilarga uning sodda ko’rinishlarini isbotlashni taklif etish mumkin:

$$1. 1+x \geq 2\sqrt{x}; 2. x+\frac{1}{x} \geq 2; 3. \frac{x^2+y^2}{2} \geq xy; 4. 2(x^2+y^2) \geq (x+y)^2$$

Shundan so'ng, kuyidagi ko'rinishdagi tengsizliklarni isbotlashga o'tish mumkin:
Agar x, y, z - musbat sonlar bo'lsa,

$$x^4 + y^4 + z^4 \geq xyz(x+y+z)$$

tengsizlik o'rini bo'lishini isbotlang.

Buni isbotlash ikki marta asosiy tengsizlikni ko'llash orkali amalga oshiriladi.

2. Xarfiy ifodani yigindi yoki ayirma shaklida tasvirlash usuli. Bunda kulay shakl almashtirishlar yordamida ifodani xadlarini 1 yoki 0 bilan oson takkoslash mumkin bo'lган ko'rinishga keltiriladi.

Misol. x ixtiyoriy son bo'lganda

$$x(x+1)(x+2)(x+3) \geq -1$$

tengsizlikni isbotlashda uning birinchi va to'rtinchi, ikkinchi va uchinchi xadlarni aloxida ko'paytirib, tengsizlikning

$$(x^2 + 3x + 1)^2 - 1 \geq -1$$

isbotini olish mumkin.

3. Xarfiy ifodalarni ko'paytuvchilarga ajratish usuli, bunda agar o'suvchi funksiya va a, v bu funksiya aniklanish soxasiga tegishli sonlar bo'lsa, u xolda $((a-b)(f(a)-f(b)) \geq 0$ tengsizlik o'rini bo'lishidan foydalaniladi. Masalan, musbat x va u sonlar uchun

$$x^4 + y^4 \leq \frac{x^6}{y^2} + \frac{y^6}{x^2}$$

tengsizlikni isbotlashda $x^2 = a, y^2 = b$ belgilashlarni kiritib, yukoridagi koidadan foydalanamiz.

4. Darajani o'z ichiga olgan sonli ifodalarni ayniy shakl almashtirish usuli, bu asosan darajaga boglik ifodalarni katta yoki kichikligini aniklashga doir masalalarini yechishda ko'llaniladi. Bunga doir kuyidagi mashklardan foydalanish mumkin:

Takkoslang: kaysi katta 7^{92} mi yoki 8^{91} , 2^{40} mi yoki 3^{37} ?

5. Matematik induksiya prinsipi asosida isbotlash usuli natural sonlar va ularning yigindilarini bilan boglik ko'p tengsizliklarni isbotlashda ko'llaniladi. Bunda o'kuvchilarga xar bir kadamning asoslanishi xamda uning turli xil ko'rinishlarini xisobga olgan xolda isbotlashga o'rgatish maksadga muvofik.

Masalan, agar ikkita natural sonlar ketma-ketligi berilgan bo'lib, biror natural son m uchun $a_m \geq b_m$ o'rini bo'lib, barcha $k \geq m$ lar uchun $a_{k+1} - a_k > b_{k+1} - b_k$ bo'lsa, u xolda barcha $n > m$ lar uchun $a_n > b_n$ o'rnliligidan foydalanib, tengsizliklarni isbotlash mumkin. Masalan, $n \geq 2$

$$\text{da } \frac{1}{2^2} + \frac{1}{3^2} + \dots + \frac{1}{n^2} < 1 - \frac{1}{n} \text{ tengsizlikni shu usul bilan isbotlash mumkin.}$$

Xuddi shunga o'xshash, biror natural son m uchun $a_m \geq b_m$ o'rini bo'lib, barcha $k \geq m$ lar uchun $\frac{a_{k+1}}{a_k} > \frac{b_{k+1}}{b_k}$ ($a_i, b_i > 0$) bo'lsa, u xolda barcha $n > m$ lar uchun $a_n > b_n$ o'rini bo'lishidan esa 1) $n \geq 2$ da $n^n > (n+1)^{n-1}$; 2) $n! > 2^n$ ($n \geq 4$); 3) $2^n > 2n$ ($n \geq 3$) tengsizliklarni isbotlash imkoniyati vujudga keladi.

Shunday kilib, maktabda algebra darslarida o'kuvchilarga isbotlash usullarini o'rgatishda xar xil usullar tadbiqlarini misollarni muxokama kilish orkali amalga oshirilishi yaxshi natijalar beradi. Bunda universitetlar talabalarini uslubiy tayyoragarligini amalga oshirishda xam bunga aloxida e'tibor berish talab etiladi va amaliy mashgulotlarda xamda pedagogik amaliyotda ko'llash usullariga bo'lajak o'kituvchilarni o'rgatib borish maksadga muvofik.

Mustakil o'rganish uchun savollar:

1. Matematik tafakkur nima?
2. Matematik tafakkurning kanday shakllari mavjud?
3. Tushuncha mazmuni va xajmi, ularning o'zaro boglikdagi kanday xususiyatlari mavjud?
4. Tushunchani ta'riflashning kanday usullari mavjud?
5. Matematik tushunchani shakllantirishning kanday boskichlari mavjud?
6. Matematik xukm va uning turlari xakida nimalarni bilasiz?
7. Aksioma nima va uning xossalari kanday?
8. Teorema va uning turlari kanday xossalarga ega?
9. Zarur va yetarli shartlar kanday xususiyatlarga ega?
10. Induksiya va uning xossalari xakida nimalarni bilasiz?
11. Deduksiya va uning o'kitishda ko'llanilish xususiyatlari nimalardan iborat?
12. Matematik induksiya prinsipi bilan matematik muloxazalar kanday isbotlanadi?

Matematikaning mavzusi shunchalik jiddiyki, uni biroz kizikarlirok kilishga imkon beradigan vaziyatni o'tkazib yubormaslik foydadan xoli emas.

Blez Paskal

6 - MA'RUZA MAVZU: MATEMATIK TA'LIM USULLARI

1. Matematika ukitishning an'anaviy usullari.
2. Muammoli ta'lism usuli.
3. Matematika ukitishning yangi texnologiyalari.

Tayanch iboralar: suxbat, mustakil ishlar, ma'ruza, amaliy va laboratoriya ishlari, muammoli ta'lism, muammoli vaziyat, nostandard o'kitish usullari.

1. Matematika ukitishning an'anaviy usullari

Xozirgi davrda matematika **ukitishda** ukuvchilarni yodlashga yoki ularni fikrlamasdan fakat olingan bilimlarni kayta suzlab berish kabi usullardan voz kechilib, darsning ta'limi jixatlarini kuchaytiradigan usullariga aloxida e'tibor kelinmokda. Bunda o'kuvchilar bilan bajariladigan barcha ishlar, u yangi mavzuni o'rganish olingan bilimlarni mustaxkamlash, so'rash yoki suxbat bo'lsin, ular o'kuvchilarning kulay yechimlarni izlashga, rasional almashtirishlar bajarishga, xulosa chikarish va isbotlashlarga jalb kilishga karatiladi.

Mustakil ishlar masalalar yechish bo'yicha mashklar bo'lishi, yangi teoremani taxlil kilish bo'yicha ish, yangi formulani chikarish bo'yicha masalalar bo'lishi mumkin. Masalan, ikki son yigindisi kvadrati formulasi chikarilgandan so'ng mustakil ravishda ikki son ayirmasi kvadrati formulasini keltirib chikarish taklif etilishi mumkin.

$$(a+b)^2 = a^2 + 2ab + b^2$$

formula keltirib chikarilgandan so'ng mustakil xolda

$$(a-b)^2 = a^2 - 2ab + b^2$$

formulani keltirib chikarish taklif etiladi.

O'kitishda **leksiya (ma'ruza)** usuli kam ko'llaniladi, bunda o'kituvchi materialni o'zi bayon etadi. Bu usul asosan yukori sinflarda foyda beradi. **Amaliy va laboratoriya ishlari** xam matematika o'kitishda an'anaviy usullardan xisoblanadi.

2. Muammoli ta'lism.

Matematika o'kitishda muammoli ta'lism usuli xam keng ko'llanish imkoniyatlari mavjud, chunki ko'pgina tushunchalarni o'rganish muammoli vaziyatni yaratishga olib kelinishi mumkin.

Muammoli ta'lim usuli bilan bayon etishda kuyidagi mavzularni yoritilish imkoniyatlari mavjud:

1. Logarifmik funksiyaning xossalari va grafigi. Bunda dastlab kuyidagi masalalar karaladi.

a) berilgan funksiyaga teskari funksiyani topish masalasi.Bunda berilgan funksiyaning teskarisini aniklash va o'zgarish soxalari orasidagi bogliklikni aniklashga e'tibor karatiladi.Savollar ko'yiladi: kanday funksiya xamma vakt teskarilanuvchi ?Teskari funksiya formulasini kanday xosil kilish mumkin? O'zaro teskari funksiyalar grafiklari kanday joylashadi?

b) Ko'rsatkichli funksiyaning xossalarni takrorlash. Ikkala xolda xam grafiklardan foydalanish lozim, uning aniklanish, o'zgarish soxalari, monotonligi, natijada muammoli savol ko'yiladi: ko'rsatkichli funksiya teskari funksiyaga egami? Bu savolni o'kuvchilar muxokama asosida xal kilishga xarakat kiladilar, buning uchun ularda zarur bilimlar mavjud.

Keyin kuyidagi *muammoli savollar* taklif etiladi:

1. Ko'rsatkichli funksiya uchun teskari funksiya formulasini kanday xosil kilish mumkin?

2. Logarifmik funksiya grafigini kanday xosil kilish mumkin?

2. Logarifmik funksiyaning aniklanish soxasi kanday?

4. Materialni o'rganish logarifmik va ko'rsatkichli funksiyalar barcha xossalarni so'rash va bu xossalarni ko'llashga doir mashklarni yechish bilan amalga oshiriladi.

"Tekisliklar parallelelligi" mavzusini o'rganishda o'kuvchilarga avvalo ularga ma'lum ikki tekislik joylashish xollarini eslash taklif etiladi, kesishishi, ustma-ust tushishi va parallel bo'lishi, shundan so'ng o'kuvchilarga bu xollardan boshka, ikki tekislik joylashishi vaziyati mavjud yoki mavjud emasligini kilish taklif etiladi.

3. Matematik ta'lim yangi texnologiyalari.

Matematika o'kitishdagi usullar xam xozirgi davrda takomillashib, yangicha pedagogik texnologiyalar asosida ko'llanilib kelinmokda. Masalan, *tayanch konspektlarga asoslangan o'kitish usuli* (V.F. Shatalov usuli), *yiriklashgan didaktik birliklar usuli* (P.M.Erdniyev usuli) va x.k.lar shular jumlasiga kiradi.

Ta'limni *differensiallashtirish usuli* xam shular jumlasidandir.

Darslarni nostandard usullarda tashkil kilish keyingi yillarda o'yin tarzida o'tkazish usullarini xam amaliyotda keng ko'llashga alovida e'tibor berilmokda. Masalan, darslarni *mo'jizalar maydoni, didaktik o'yinlar* tarzida tashkil kilish mumkin. Bunday usullarga bir nechta misollar keltiramiz:

1. Matematik mashk.

Bu o'yin ko'p sondagi o'kuvchilarga bilimlarni tezlikda tekshirishga imkon beradi. Sinf katorlar bo'yicha jamoalarga bo'linadi. Xar bir kator esa ikki variantga bo'linadi. Xar bir variant o'kuvchilari, agar ular javob beradigan obyekt xakida so'z borganda yoki o'rnidan turadi, yoki ko'l ko'taradi.

2. Auksion uyini.

Savdoga biror mavzu bo'yicha topshiriklar ko'yiladi, bunda o'kituvchi oldindan o'kuvchilar bilan o'yining mavzusini kelishib olishi kerak. Masalan, 7 -sinfda "Algebraik kasrlar ustida amallar" mavzusi bo'lsin. O'yinda 4-5 jamoa katnashadi. Kodoskop bilan ekranga 1-lot: kasrlarni kiskartirishga doir beshta topshirik namoyish kilinadi. 1-jamoa topshirik tanlaydi va unga 1 dan 5 ballgacha baxo ko'yadi.

Agar bu jamoa baxosi boshkalarga karaganda yukori bo'lsa, bu topshirikni jamoa oladi va uni bajaradi.

Shunday kilib, matematika o'kitish usullari rang –barang va ulardan foydalanish matematika o'kituvchisi maxoratiga va boshka yukorida ko'rsatilgan imkoniyatlarga boglik bo'ladi.

Mustakil o'rganish uchun savollar:

1. Matematika o'kitishda kanday an'anaviy usullar mavjud?

2. Muammoli ta'limning xususiyatlari va uning ko'llanilishi imkoniyatlari nimalarga boglik?

3. Matematika o'kitishning kanday nostandard usullari mavjud?
4. Maktab matematika kursini o'kitishda yangi pedagogik texnologiyalarning ko'llanilishi kanday xususiyatlarga ega?

7 - MA'RUZA MAVZU: MATEMATIKA O'QITISH PRINSIPLARI.

1. Matematika o'kitish prinsiplarining moxiyati.
2. Ilmiylik va tarbiyaviylik prinsipi.
3. Ko'rgazmalilik prinsipi.
4. Onglilik va faollik prinsipi.
5. Puxta o'zlashtirish prinsipi
6. Sistemalilik va ketma-ketlilik prinsipi.
7. Moslik prinsipi.
8. Tabakalashtirish va individuallashtirish prinsipi.

Tayanch iboralar: matematika o'kitish prinsiplari, ilmiylik, tarbiyaviylik, ko'rgazmalilik, onglilik, faollik, puxta o'zlashtirish, sistemalilik, ketma-ketlilik, moslik, tabakalashtirish va indivi-duallashtirish.

1. Pedagogikada umumiyl **ta'lim prinsiplarini** matematika o'kitish jarayoniga ko'llash maktab va umuman o'kuv yurtlarida matematika o'kitishga ko'yildigan yagona talablar majmuasidan iborat. Boshkacha aytganda, matematika o'kitishga jamiyat va fan ko'yadigan asosiy talablarni o'z ichiga oladi. Matematika o'kitish uslubiyati bu prinsiplarni kuyidagicha belgilaydi: [2,3,1] a) ilmiylik; b) tarbiyaviylik; v) ko'rgazmalilik; g) onglilik va faollik; d) puxta o'zlashtirish; ye) sistemalilik va ketma-ketlilik; j) moslik; z) tabakalashtirish va individuallashtirish.

Umuman olganda, matematika o'kitish prinsiplari maktabda o'kitish- ning jamiyat talablariga mos ravishda kanday amalga oshirilishi va bunda asoslaniladigan asosiy talablarni o'z ichiga oladi.

Ilmiylik prinsipi matematika o'kitish mazmunining ilmiy bo'lishi, matematikaning xozirgi axvoli va uning rivojlanishini obyektiv aks ettirishni ifodalaydi. Moxyiyati o'kitish mazmuni va o'kitish usullari xozirgi paytdagi matematika fani saviyasi va talablariga mos kelishini ta'minlashdan iborat. Masalan, matematik tushuncha va xukmlarni ifodalashda ilmiy ravishda to'gri yondashish xam bunga kiradi. Bundan tashkari, xar bir matematik xukmga tankidiy karab, u asoslangan bo'lsa xam isbot deb karamaslik, ta'rif va teoremalarni bir-biridan ajrata olish kabi uslubiy jixatlarga e'tibor berish talab etiladi. Masalan, birorta tenglamaning kaysi to'plamda o'rinali ekanligini aniklashda xakikiy sonlar to'plamidan xam kengrok to'plam kompleks sonlar to'plami xam mavjudligini ta'kidlab o'tish mumkin. Yoki nolinchi daraja, logarifm ta'riflarini tenglik ko'rinishda yozilishi ta'rif ekanligi va ular isbotlanmasligi aytib o'tish mumkin. Ko'pincha masalalar yechimlarini tavsiflashda ularning real amaliy xayotga mos kelish yoki kelmasligini tekshirish xam matematika ko'llanilishi moxiyatini tushunishga imkon beradi.

2. Tarbiyaviylik prinsipi o'kuvchilarga fanga bo'lgan kizikishni uygotish, yangi bilimlarni o'zlashtirishga xarakatini, ularni egallah va mustakil kengaytira olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi, shu bilan birga ularda tafakkurni shakllantirish, matematik tushuncha va tasavvurlar bilan boyitish, xotira va dikkatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarbiyalash kabi ishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Bu prinsip o'kitishda o'kuvchida ziyraklik, topkirlik, akllilik xislatlari bilan birga iroda, chidam, ko'yilgan maksadga erishishda sabot, puxtalik va aniklik, shuningdek vatanga muxabbat kabi xamda rostguylig, mexnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalash xam matematika darslarida amalga oshirilish imkoniyatlari mavjudligini ifodalaydi.

3. Ko'rgazmalilik prinsipi matematika o'kitishning eng muxim prinsipleridan biri bo'lib, u o'kuvchilarning chukur va puxta bilim olishlari uchun asosiy sharoitlarni ta'minlashga xizmat kiladi. Ko'rgazmalilik matematika o'kitishda kuyi sinflarda keng ko'llanilishi bilan birga ayniksa geometriya o'kitishda keng foydalaniladi. Bu prinsipni chek pedagogi Ya.A.Komenskiy asoslagan, rus pedagogi K.D.Ushinskiy esa ko'rgazmalilik bolalar ruxiy xususiyatlarga javob beradi deb xisoblagan. U o'kuvchilar tasavvurlar doirasini kengaytiradi, ta'limda konkretlilik, kizikuvchanlik va fikrlashni rivojlantiradi.

3. Onglilik, faollik va mustakillik prinsipini amalga oshirish kuyidagi shartlarni bajarishni talab etadi: o'kuvchilarning fan ma'lumotlarini, o'kuv materialini egallashi, uni chukur fikrlay olishi, bilimlarni yangi sharoitlarda amaliyotda ko'llay olish ko'nikmasi, bilimlarni ishonchga, amalda ko'llanmaga aylanishi sifatida tushuniladi.

4. Puxtalik prinsipi o'kuvchilarning ta'limni muvaffakiyatli davom ettirishlari uchun, ilmiy dunyokarashni shakllantirish, ularni kobiliyatlarini rivojlantirish amaliy faoliyatga tayyorlash uchun zarur.

5. Tabakalashtirish o'kitishda o'kuvchilarni o'z bilim saviyasi va kobiliyatlariga ko'ra guruxlarga ajratgan xolda, tabakalarga bo'lgan xolda o'kitishni nazarda tutadi.

Shunday kilib prinsipler – matematika o'kitishning ilmiy pedagogik konuniyatları va amaliy pedagogik tajribani taxlil kilish natijasida vujudga keladigan asosiy yo'naltiruvchi koidalardir.

Mustakil o'rghanish uchun savollar

1. Matematika o'kitish prinsiplerining umumiy moxiyati nimada?
2. Ilmiylik prinsipi kanday ko'llaniladi?
3. Kurgazmalilik prinsipining axamiyati nimadan iborat?
4. Onglilik va faollik prinsipleri kanday xususiyatlarga ega?
5. Puxtalik prinsipini ko'llash kanday afzalliklarga ega?
6. Matematika o'kitishda sistemalilik va ketma-ketlilik prinsipleri ko'llanilishining asosiy axamiyati nimadan iborat?
7. Matematika o'kitishda moslik prinsipi kanday ko'llaniladi?
8. Tabakalashtirish va individullashtirish prinsipining xozirgi davrda ta'limda kanday ko'llanilmokda?

8 - MA'RUZA

MAVZU: MATEMATIKA O'KITISH VOSITALARI

1. Matematika o'kuv ko'llanmasi va darsligi.
2. Didaktik materiallar va ko'shimcha uslubiy ko'llanmalar.
3. Matematika bo'yicha spravochniklar va ma'lumot beruvchi adabiyotlar bilan ishlash.
4. Matematika bo'yicha o'kuv jixozlari.

Tayanch iboralar: matematika darsligi, o'kitish vositalari, didaktik materiallar, spravochniklar, priborlar, asboblar, o'kitishning nashr va ekran vositalari, grafik kurgazmalilik, texnika vositalari.

1. Matematika darsligi, o'kuv ko'llanmasi dastur va didaktika talablari bilan aniklanuvchi o'kitish maksadlariga mos keluvchi matematika bo'yicha bilimlar asoslarini bayon etuvchi kitob xisoblanadi.

U kuyidagi talablarga javob berishi lozim: a) u o'kuvchilarda ilmiy dunyokarash va mantikiy fikrlashni rivojlantirishi; b) matematika bo'yicha ma'lumotlarni sistemali va ilmiy bayon kilishi; v) uslubiy nuktai nazardan ketma-ket joylashtirilgan yetarli sondagi turli xil masala va mashklarni o'z ichiga olishi kerak.

Shuningdek, darslik bayon kilingan material zarurligini asoslashga e'tibor berishi, masalalarning taksimoti, o'rni va axamiyatini aniklashi, ko'rgazmalilik vazifasini yoritilishini ta'minlashi lozim.

Ukitish vositalariga o'kuv ko'llanmalaridan tashkari, *masalalar to'plamlari, ko'rgazmalik urollar va texnika vositalari* kiradi. Ukv ko'llanmasi o'kitish jarayonida o'kuvchilarga beriladigan axborotni o'z ichiga oladi. Uni to'gri ko'llaganda o'kuvchilarga matematika fani asoslarini o'zlashtirishga yordam beradi, bilimlar bilan kurollanishga va xotirani rivojlantirishga imkon beradi. Xozirgi zamon o'kuv ko'llanmalari nazariy ma'lumot va mashklarni o'z ichiga oladi. Teng kuchli o'kuv ko'llanmalar mavjudligi bir tomondan o'kituvchining o'kitishda o'z imkoniyatlari va o'kuvchilar bilim saviyalariga mos ravishda undan ijodiy foydalanishga, ikkinchi tomondan, nazariy va amaliy jixatlarni o'zaro muvofik xolda bayon etishga, sinf va uy vazifalarini taksimlashni osonlashtiradi.

Ukv ko'llanmasidan tashkari xar bir sinf uchun o'kitish vositalar tizimiga o'kituvchi *uchun kitoblar (uslubiy ko'llanmalar) va didaktik materiallar* kiradi. Ukituvchi uchun kitoblarda zarur tavsiyalar, masalalarni yechish yo'llari berilgan, taxminiy rejalashtirish keltiriladi. U o'kitishning xar bir boskichida erishilishi zarur bo'lgan bilimlar xajmini ta'lim standartlari talablari asosida aniklab beradi. Didaktik materiallar esa mustakil va nazorat ishlari matnlari, testlar va ularni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar xamda javoblarni beradi.

Ukvchilar bilan o'kuv *darsligi ustida ishni* tashkil etishda birinchi kadam – masalalar matnini o'kishga o'rgatish xisoblanadi. Masala o'kilgandan so'ng masala shartlarini ajratish va ularni kiska yozuvlarda kayd etish taklif etiladi va bundan so'ng suxbat-izoxlash o'tkaziladi.

Ukv ko'llanmasi bilan ishslashda darsning xar bir boskichi xususiyatlarini xisobga olish zarur.

Masalan, 7-sinfda geometriya darsida yangi mavzuni mustakil o'rganishni tashkil etishda mos bandini o'kish xamda teorema mazmuni va uning isbotini taxlil etishlari talab etiladi (5).

8-9-sinflarda esa yangi mavzuni o'kuv darsligi bo'yicha o'rganishda o'kuvchilarga mustakil bu mavzuni o'kib kelish va tushunmagan joylarini savollar orkali ifodalashni toshirish mumkin. Masalan, uchburchaklar o'xshashlik alomatlari xakidagi teoremani o'rganib, kolgan ikkitasini sinfda o'kuv darsligidan mustakil o'rganib chikish taklif etiladi. Barcha xollarda mustakil o'rganilgan isbot o'kuvchi tomonidan sinfda takrorlanishi, bunda o'kituvchi javob beruvchidan anik va tugri javob berishga erishishi talab etiladi.

10—11-sinflarda esa bu ish yana xam takomillashtirilishi o'kuvchilar teoremlar yoki mavzularni mustakil o'rganib ma'ruza yoki referat shaklida yozib. Uni ximoya kilish uchun tayyorgarlik ko'rishlari zarur buladi.

Ukv ko'llanmasi ko'rgazmaliligiga ko'yiladigan talablar kuyidagilarni o'z ichiga oladi: a) *bilish vazifikasi* shundan iboratki oddiydan murakkabga boriladi, o'kuvchilar faoliyatini ko'rgazmalilik vosita va usullari bilan boshkaradi, nazorat va kommunikativ amallarni bajarishga imkon beradi; b) *interpretasion funksiyasi*, turli xil belgi va rasmlar orkali mavzu va tushunchalar konkretlashtiriladi; v) *estetik vazifalari*— uning ko'rinishi va bezalishi o'kuvchilarda go'zallikni va estetik did kabi tuygularni uygotishi uchun xizmat kilishi zarur.

Didaktik materiallar o'kuvchilarning mustakil faoliyatlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'kuvchilarning masalalar yechish bo'yicha mustakil ishlarni, individual va frontal ravishda kursning mavzulari bo'yicha tekshirish nazorat ishlari uchun materiallarni o'z ichiga oladi. U xar bir mavzu bo'yicha 4 ta va undan ortik mustakil ish va mavzular bo'yicha ko'shimcha mustakil ishlarni o'z ichiga oladi. Ularni o'kitishda ko'llash xususiyati shundan iboratki, o'kituvchi ular yordamida mustakil ishlarni tashkil etishi va nazoratlarni amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun didaktik materiallarga xar bir chorak bo'yicha yakuniy nazoratlar uchun yozma ishlarni bilan birga testlar xam beriladi.

3. Matematika bo'yicha **spravochniklar va ma'lumotli matematikadan adabiyotlar** kuyidagilarni o'z ichiga oladi: xisoblash uchun jadvallar, turli xil elementar matematika bo'yicha spravochniklar, o'kuvchilarning kundalik o'kuv faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga imkoniyat yaratadi; kizikarli matematik adabiyotlar; ilmiy-ommabop matematika

bo'yicha adabiyotlar. Ular bilan ishslash sinfda va sinfdan tashkari mashgulotlarda amalga oshirilib, ularning kizikish va bilimlarini rivojlantirish uchun xizmat kilishini xisobga olishi zarur. Ayniksa bunda matematikadan masalalar to'plamlari, testlar to'plamlari, kizikarli matematik kitoblar va xokazolar bu ishda keng ko'llanilishi mumkin.

Matematika bo'yicha o'kuv jixozlari kuyidagi uch turkum jixozlarni o'z ichiga oladi: priborlar, asboblar; o'kitishning nashr vositalari; o'kitishning ekran vositalari. 1-turdagi vositalarga turli xil geometrik modellar, stereometrik shakllar komplekti, chizma yasash asboblari va xokazolar kiradi. Ikkinchisiga esa jadvallar va kartochka-toshiriklar, nashr asosli daftарlar, ishchi va ma'lumotli jadvallar va xokazolar kirib, darslar samaradorligini oshirishga xizmat kiladi va o'kuv vaktini tejashga xamda o'kuvchilar bilimlarini chukur va ongli bo'lishiga erishishga yordam beradi.

Ukitishning **texnik vositalariga** kinofilm, diafilm, diapozitiv, kodopozitiv kabi ko'rgazmalilik vositalari va ularni ekranga tushiruvchi kinoapparat, diaproyektor, epidiaskop kabi asboblar kirib, bunga yana tele-radio, video-audio vositalar xam kiradi. Bu ekran vositalariga EXM kompyuterlari xam kirib, darslarni jonli kizikarli o'tilishini ta'minlash uchun ko'llaniladi. Ulardan foydalanishning o'ziga xos chegaralari, uni ko'llash sanitariya-gigiyena koidalari mavjud, bunga o'kituvchilar kat'iy e'tibor berishlari talab etiladi. Ko'pincha uslubiy adabiyotlarda o'kitishning ekran vositalari o'kitishning texnik vositalari(TSO) deb xam ataladi va shu bilan birga ularning vazifalari va imkoniyatlari, sinflari va turlari yetarlicha bayon kilingan.

Texnik vositalarni o'kitishda ko'llashning asosiy xususiyati o'kuvchilarni o'kuv vaktidan unumli foydalanishga, bilimlarni ko'rgazmali ravishda egallab olishlari uchun imkon berishi xisoblanadi. Bulardan tashkari, grafikaviy ko'rgazmalilik vositalari xam mavjud bo'lib, matematika o'kitishda, ayniksa, geometriya darslarida keng ko'llaniladi. Bu vositalar turkumiga rasm, diagramma, sxema, va boshqa grafikaviy tasvirlar, grafikaviy modellar kiradi. Ularni ko'llash xususiyatlariga ko'ra: jadvallar, diafilmlar, diapozitivlar va transporantlarga ajratish mumkin.

Mustakil o'r ganish uchun savollar:

1. Matematika o'kuv ko'llanmasi va unga ko'yiladigan talablar, undan foydalanish xususiyatlari.
2. Matematika o'kitishda ko'shimcha vositalar: didaktik materiallar va ulardan foydalanish uslublari.
3. Matematika bo'yicha spravochnik, kizikarli adabiyotlar turkumi.
4. Matematika bo'yicha o'kuv jixozlari va ularning turlari Ukitish-ning texnik vositalaridan darslarda foydalanish.
5. Matematika o'kitishda grafik vositalarning axamiyati va o'rni.

Zarur va yetarli shartlarni xam o'rganish talab etiladi. Umuman olganda, r muloxaza uchun x uchun yetarli shart bo'ladi, agar $x \rightarrow r$ implikasiya rost natija byersa, r muloxaza x uchun yetarli shart bo'ladi, agar $r \rightarrow x$ implikasiya rost bo'lsa. Masalan, natural son 6 ga bo'linishi uchun u juft bo'lishi zarur, lyekin yetarli emas, natural son juft bo'lishi uchun u 6 ga bo'linishi yetarli. Natural son 2 ga bo'linishi uchun u juft bo'lishi zarur va yetarli.

Zarur va yetarli shartlar: r shart uchun zarur va yetarli shart bo'ladi, agar bir vaktning o'zida $x \rightarrow r$ va $r \rightarrow x$ implikasiyalar rost bo'lishi kyerak.

Tushuncha ostiga kiritish. U yoki bu obyekt yoki munosabat byerilgan tushuncha xajmidan iborat obyektlar yoki munosabatlar to'plamiga mos ravishda tyegishliligini isbotlash faoliyati tushuncha ostiga kiritish dyeyiladi.

Maktabda o'kuvchilarining matyematik tafakkurini rivojlantirishda isbotlashga doir masalalarni yechish muximdir. Ayniksa, algebra darslarida bunday masalalarni yechishga o'rgatish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Ko'p ko'llaniladigan tyeskarisidan faraz kilish, matyematik induksiya usullaridan tashkari o'kuvchilarga ba'zi o'ziga xos usullarni xam o'rgatish ularning matyematik fikrlash faoliyatlarini rivojlantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday usullarni 7-9-sinf algebra darslarida foydalanish jixatlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Kontrapozisiya bo'yicha isbotlash. Bu usulda $A \Rightarrow V$ muloxazani isbot-lash o'rniغا V ga karama-karshi muloxazani rost dyeb faraz kilib, A ga karama-karshi muloxazanining xakikatligini kyeltirib chikarishga xarakat kilinadi. Mazkur usul byevosita isbotlash ancha murakkab bo'lgan xolda ko'llanib, dastlab o'kuvchilarga $A \Rightarrow V$ muloxazadan $\neg A \Rightarrow \neg B$ muloxazani tuza olish, so'ngra esa isbotlash usulini tadkik etishga o'rgatiladi. Masalan, kiska ko'paytirish formulalarini o'rganishda: agar $9a^2 - 12as + 2v < 0$ bo'lsa, u xolda $b \leq 5s^2$ o'rini bo'lishini isbotlash o'rniغا, "agar $b > 2c^2$ bo'lsa, $9a^2 - 12ac + 2b \geq 0$ " tyengsizlik o'rini bo'lishini isbotlash oson ekanligini ko'rsatish mumkin:

$$9a^2 - 12ac + 2b > 9a^2 = 12ac + 4c^2 = (3a - 2c)^2 \geq 0$$

2. Konrmisol va tasdiklovchi misol kyeltirish usullari. Konrmisol sifatida $(\forall x / P(x)) \Leftrightarrow (\forall x) P(x)$ muloxazalar tyeng kuchliligini xisobga olib, $\forall x \in X, P(x)$ muloxaza yolg'onligini ko'rsatish uchun X soxadagi shunday x kiymatni topish kyerakki, uning uchun P xossa bajarilmasligini ko'rsatish yetarli. Masalan, "Tyengsizliklar" mavzusini o'rganishda "c > 1/c bo'lsa, s > 1 bo'lishi to'grimi" muloxazasiga konrmisol sifatida s = -0,5 ni olish mumkin, chunki $-0,5 > 1/-0,5 = -2$ bo'lsa, u xolda s = -0,5 < 1 bo'ladi. "Ko'pxadni ko'paytuvchilarga ajratish" mavzusini o'rganishda " $n^3 + 5n - 1$ ifodaning kiymati ixtiyoriy natural n da tub son bo'lishi to'grimi" muloxazasi uchun n = 6 konrmisol bo'ladi va x.k.

Tasdiklovchi misol usulida $\exists x \in X, P(x)$ muloxaza rostligini isbotlash uchun X soxada x yech bo'limganda bitta x kiymatni topish kyerakki uning uchun R xossa bajarilishi ko'rsatiladi. Masalan, "Natural ko'rsatkichli daraja" mavzusini o'rganishda " $x^5 + u^5 = 33^6$ " tyenglikni kanoatlantiruvchi x va u natural sonlar mavjudmi?" mashki uchun tasdiklovchi misol x = 66, u = 33 kiymatlar xisoblanadi. Yoki bunga o'xshash $\sqrt{xy} = xy$ tyenglikni kanoatlantiruvchi x va u sonlar mavjudmi?" (tasdiklovchi misol: x = 1, u = 1), "|a - b| = |a| - |b|" tyenglik ayniyat bo'ladimi?" (konrmisol: a = 3, v = -4) va xokazo.

Bu usulni ko'llashda o'kituvchi asosiy e'tiborni isbotlash talab etilayotgan mashklar talabida "to'grimi?", "mavjudmi?", "mumkinmi?" dyegan savollarning borligiga xamda byerilgan shartda ikkita A yoki \bar{A} tasdiklardan birortasining xakikatligini ko'rsatish zarurligiga karatish lozim.

3. Analiz va sintyezning turli xususiy ko'rinishlaridan foydalanish usuli. Bunday usullarga algebra darslarida: a) kasrning butun kismini ajratish; b) butun kismlarga ajratish (analiz); v) butun kismlar bo'yicha kayta tuzish (sintyez); g) ularning kombinasiyasidan iborat usul (analiz va sintyez) lar kiradi.

Birinchi usul asosan "Algebraik kasrlar" va "Rasional tyenglamalar" mavzularini o'rganishda ifodalarni ayniy shakl almashtirish yoki tyenglamalar yechimlarini topish uchun ko'llaniladi. Masalan, $u=(x^2-5)/(x^2+1)$ kasrning eng kichik kiymatini topishda bu ifodaning butun kismi ajratilib $u=1-6/x^2+1$ ning $x=0$ dagi $u=-5$ ga tyeng kiymati ekanligi kyeltirib chikariladi. Bundan kyeyinchalik funksiyalar eng kichik va eng katta kiymatlarini topishda, funksiya kiymatlar soxasini topishda yoki funksiyaning o'suvchi yoki kamayuvchiligini isbotlashda xam kyeng ko'llaniladi. Masalan, $u=x/x+1$ funksiyaning $x>-1$ da o'suvchi ekanligini isbotlash uchun uni $u=1-1/x+1$ ko'rinishga kyeltirib, isbotlanadi. Ikkinci usulda ifoda kismlarga ajratib tadkik etiladi. Masalan, " a^3+3a^3+8a ifoda ixtiyoriy natural a da 6 ga bo'linishini isbotlash uchun $(a^3+3a^2+2a)+va=a(a+1)(a+2)+va$ ko'rinishga kyeltirilib, muloxaza isbotlanadi. Uchinchi usulda butunning kismlari kayta tuzilib, yangi ko'rinishga kyeltiriladi. Masalan, $9x^2-2ux+6$ ifodaning xamma vakt musbat ekanligini ko'rsatish uchun "to'lik kvadrat ajratilib" $(3x-4)^2+47>0$ ekanligi isbotlanadi. Va nixoyat, to'rtinchi usulda ifoda oldin kismlarga ajratilib, so'ngra ularni tuzish amalga oshiriladi. Masalan, $a>0$, $v>0$, $s>0$ bo'lsa,

$$av(a+v-2s)+vs(v+s-2s)+as(a+s-2v)>0$$

ekanligini isbotlashda

$$\begin{aligned} v^2s-2avs+a^2s+av^2-2avs+as^2+a^2v-2avs+vs^2 &= s(v^2-2av+a^2)+a(v^2-2vs+s^2)+v(a^2-2as+s^2)= \\ &= s(a-v)^2+a(v-s)^2+v(a-s)^2 \geq 0 \end{aligned}$$

dan foydalanish mumkin.

4. Barcha xususiy xollarни karab chikish usuli. Bu usulda muloxazaga tyegishli barcha xususiy xollar karalib, karama-karshilikka yoki to'gri muloxazaga kyelish amalga oshiriladi. Masalan, sonlarning irrasionalligini isbotlashda bo'linish alomatidan foydalanib kuyidagi masalani yechish mumkin.

1-masala. $A=\sqrt{5k+3}$ - bunda k-butun son ko'rinishidagi sonning irrasionalligini isbotlang.

Isbot. Xar kanday butun son 5 ga bo'linganda, fakat 0,1,2,3,4 koldiklar byergani uchun butun sonning kvadrati fakat 0,1 va 4 koldiklarni byeradi. Shuning uchun $a \notin \mathbb{Z}$ va a^2 ning tub ko'paytuvchilari yoyilmasida kandaydir r ko'paytuvchi tok daraja bilan kiradi. Lyekin $a=m/n$ -kiskarmas rasional son bo'lsin, u xolda $m^2=a^2n^2$ va $m:p$, $n:p$ karama-karshilik.

Yana shunga o'xshash kuyidagi masalani yechishda xam biror xususiy xol karalib, kyeyin karama-karshilik xosil kilishdan foydalaniladi.

2-masala. 0,12345.. (barcha sonlar tartib bilan yozilgan) sonning irrasionalligini isbotlang.

Isbot. Faraz kilaylik, bu davriy kasr davri n ta byelgidan iborat bo'lsin. Lyekin bu kasrda katorasiga $2n+1$ ta nolga joy topiladi. Bu oralikda butun bir davr joylashishi lozim, ya'ni butun bir davr joylashadi, ya'ni davr nollardan tashkil topgan, lyekin bu unday emas, karama-karshilikka kyeldik.

Algebra darslarida ayniksa tyengsizliklarni isbotlash usullariga o'rgatish muximdir. Bunda kuyidagi usullarni ko'llashni o'rgatish zarur:

1. Ikki son o'rta arifmyetigi va o'rta gyeomyetrigi orasidagi tyengsizlikdan foydalanish usuli, ya'ni $\frac{a+b}{2} \geq \sqrt{ab}$ tyengsizlikdan foydalanib isbotlash. Avvalo o'kuvchilarga uning sodda ko'rinishlarini isbotlashni taklif etish mumkin:

$$1. 1+x \geq 2\sqrt{x}; 2. x+\frac{1}{x} \geq 2; 3. \frac{x^2+y^2}{2} \geq xy; 4. 2(x^2+y^2) \geq (x+y)^2$$

Shundan so'ng, kuyidagi ko'rinishdagi tyengsizliklarni isbotlashga o'tish mumkin:
Agar x, y, z - musbat sonlar bo'lsa,

$$x^4 + y^4 + z^4 \geq xyz(x+y+z)$$

tyengsizlik o'rini bo'lishini isbotlang.

Buni isbotlash ikki marta asosiy tyengsizlikni ko'llash orkali amalga oshiriladi.

2. Xarfiy ifodani yigindi yoki ayirma shaklida tasvirlash usuli. Bunda kulay shakl almashtirishlar yordamida ifodani xadlarini 1 yoki 0 bilan oson takkoslash mumkin bo'lган ko'rinishga kyeltiriladi.

Misol. x ixtiyoriy son bo'lganda

$$x(x+1)(x+2)(x+3) \geq -1$$

tyengsizlikni isbotlashda uning birinchi va to'rtinchi, ikkinchi va uchinchi xadlarni aloxida ko'paytirib, tyengsizlikning

$$(x^2 + 3x + 1)^2 - 1 \geq -1$$

isbotini olish mumkin.

3. Xarfiy ifodalarni ko'paytuvchilarga ajratish usuli, bunda agar o'suvchi funksiya va a, v bu funksiya aniklanish soxasiga tyegishli sonlar bo'lsa, u xolda $((a-b)(f(a)-f(b)) \geq 0$ tyengsizlik o'rini bo'lishidan foydalilaniladi. Masalan, musbat x va u sonlar uchun

$$x^4 + y^4 \leq \frac{x^6}{y^2} + \frac{y^6}{x^2}$$

tyengsizlikni isbotlashda $x^2 = a, y^2 = b$ byelgilashlarni kiritib, yukoridagi koidadan foydalananamiz.

4. Darajani o'z ichiga olgan sonli ifodalarni ayniy shakl almashtirish usuli, bu asosan darajaga boglik ifodalarni katta yoki kichikligini aniklashga doir masalalarni yechishda ko'llaniladi. Bunga doir kuyidagi mashklardan foydalananish mumkin:

Takkoslang: kaysi katta 7^{92} mi yoki 8^{91} , 2^{40} mi yoki 3^{37} ?

5. Matyematik induksiya prinsipi asosida isbotlash usuli natural sonlar va ularning yigindilari bilan boglik ko'p tyengsizliklarni isbotlashda ko'llaniladi. Bunda o'kuvchilarga xar bir kadamning asoslanishi xamda uning turli xil ko'rinishlarini xisobga olgan xolda isbotlashga o'rgatish maksadga muvofik.

Masalan, agar ikkita natural sonlar kyetma-kyetligi byerilgan bo'lib, biror natural son m uchun $a_m \geq b_m$ o'rini bo'lib, barcha $k \geq m$ lar uchun $a_{k+1} - a_k > b_{k+1} - b_k$ bo'lsa, u xolda barcha $n > m$ lar uchun $a_n > b_n$ o'rnliligidan foydalanim, tyengsizliklarni isbotlash mumkin.

Masalan, $n \geq 2$ da $\frac{1}{2^2} + \frac{1}{3^2} + \dots + \frac{1}{n^2} < 1 - \frac{1}{n}$ tyengsizlikni shu usul bilan isbotlash mumkin.

Xuddi shunga o'xshash, biror natural son m uchun $a_m \geq b_m$ o'rini bo'lib, barcha $k \geq m$ lar uchun $\frac{a_{k+1}}{a_k} > \frac{b_{k+1}}{b_k}$ ($a_i, b_i > 0$) bo'lsa, u xolda barcha $n > m$ lar uchun $a_n > b_n$ o'rini bo'lishidan esa 1) $n \geq 2$ da $n^n > (n+1)^{n-1}$; 2) $n! > 2^n$ ($n \geq 4$); 3) $2^n > 2n$ ($n \geq 3$) tyengsizliklarni isbotlash imkoniyati vujudga kiyeladi.

Shunday kilib, matabda alg'ebra darslarida o'kuvchilarga isbotlash usullarini o'rgatishda xar xil usullar tadbiklarini misollarni muxokama kilish orkali amalga oshirilishi yaxshi natijalar byeradi. Bunda univyerstyetlar talabalarini uslubiy tayyorgarligini amalga oshirishda xam bunga aloxida e'tibor byerish talab etiladi va amaliy mashgulotlarda xamda pyedagogik amaliyotda ko'llash usullariga bo'lajak o'kituvchilarni o'rgatib borish maksadga muvofik.

4 – Amaliy mashg'ulot

MAVZU: MATYEMATIK TA'LIM USULLARI

1. Matyematika ukitishning an'anaviy usullari.
2. Muammoli ta'lism usuli.
3. Matyematika ukitishning yangi texnologiyalari.

1. Matyematika ukitishning an'anaviy usullari

Xozirgi davrda matyematika **ukitishda** ukuvchilarni yodlashga yoki ularni fikrlamasdan fakat olingan bilimlarni kayta suzlab byerish kabi usullardan voz kyechilib, darsning ta'limi jixatlarini kuchaytiradigan usullariga aloxida e'tibor kyelinmokda. Bunda o'kuvchilar bilan bajariladigan barcha ishlar, u yangi mavzuni o'rganish olingan bilimlarni mustaxkamlash, so'rash yoki suxbat bo'lsin, ular o'kuvchilarning kulay yechimlarni izlashga, rasional almashtirishlar bajarishga, xulosa chikarish va isbotlashlarga jalb kilishga karatiladi.

Mustakil ishlar masalalar yechish bo'yicha mashklar bo'lishi, yangi tyeoryemani taxilish bo'yicha ish, yangi formulani chikarish bo'yicha masalalar bo'lishi mumkin. Masalan, ikki son yigindisi kvadrati formulasi chikarilgandan so'ng mustakil ravishda ikki son ayirmasi kvadrati formulasini kyeltirib chikarish taklif etilishi mumkin.

$$(a+b)^2 = a^2 + 2ab + b^2$$

formula kyeltirib chikarilgandan so'ng mustakil xolda

$$(a-b)^2 = a^2 - 2ab + b^2$$

formulani kyeltirib chikarish taklif etiladi.

O'kitishda **lyeksiya (ma'ruza)** usuli kam ko'llaniladi, bunda o'kituvchi matyerialni o'zi bayon etadi. Bu usul asosan yukori sinflarda foyda byeradi.

Amaliy va laboratoriya ishlari xam matyematika o'kitishda an'anaviy usullardan xisoblanadi.

2. Muammoli ta'lism.

Matyematika o'kitishda muammoli ta'lism usuli xam kyeng ko'llanish imkoniyatlari mavjud, chunki ko'pgina tushunchalarni o'rganish muammoli vaziyatni yaratishga olib kyelinishi mumkin.

Muammoli ta'lism usuli bilan bayon etishda kuyidagi mavzularni yoritilish imkoniyatlari mavjud:

1. Logarifmik funksiyaning xossalari va grafigi. Bunda dastlab kuyidagi masalalar karaladi.

a) byerilgan funksiyaga tyeskari funksiyani topish masalasi. Bunda byerilgan funksiyaning tyeskarisini aniklash va o'zgarish soxalari orasidagi bogliklikni aniklashga e'tibor karatiladi. Savollar ko'yiladi: kanday funksiya xamma vakt tyeskarilanuvchi? Tyeskari funksiya formulasini kanday xosil kilish mumkin? O'zaro tyeskari funksiyalar grafiklari kanday joylashadi?

b) Ko'rsatkichli funksiyaning xossalarni takrorlash. Ikkala xolda xam grafiklardan foydalanish lozim, uning aniklanish, o'zgarish soxalari, monotonligi, natijada muammoli savol ko'yiladi: ko'rsatkichli funksiya tyeskari funksiyaga egami? Bu savolni o'kuvchilar muxokama asosida xal kilishga xarakat kiladilar, buning uchun ularda zarur bilimlar mavjud.

Kyeyin kuyidagi *muammoli savollar* taklif etiladi:

1. Ko'rsatkichli funksiya uchun tyeskari funksiya formulasini kanday xosil kilish mumkin?

2. Logarifmik funksiya grafigini kanday xosil kilish mumkin?

5. Logarifmik funksiyaning aniklanish soxasi kanday?

4. Matyerialni o'rganish logarifmik va ko'rsatkichli funksiyalar barcha xossalarni so'rash va bu xossalarni ko'llashga doir mashklarni yechish bilan amalga oshiriladi.

“Tyekisliklar parallyelligi” mavzusini o’rganishda o’kuvchilarga avvalo ularga ma’lum ikki tyekislik joylashish xollarini eslash taklif etiladi, kyesishishi, ustma-ust tushishi va parallyel bo’lishi, shundan so’ng o’kuvchilarga bu xollardan boshka, ikki tyekislik joylashishi vaziyati mavjud yoki mavjud emasligini kilish taklif etiladi.

3. Matyematik ta’lim yangi tyexnologiyalari.

Matyematika o’kitishdagi usullar xam xozirgi davrda takomillashib, yangicha pyedagogik tyexnologiyalar asosida ko’llanilib kyelinmokda. Masalan, *tayanch konspyektlarga asoslangan o’kitish usuli* (V.F. Shatalov usuli), *yiriklashgan didaktik birliklar usuli* (P.M.Erdniyev usuli) va x.k.lar shular jumlasiga kiradi.

Ta’limni *diffyeryensiallashtirish usuli* xam shular jumlasidandir.

Darslarni nostandard usullarda tashkil kilish kyeyingi yillarda o’yin tarzida o’tkazish usullarini xam amaliyotda kyeng ko’llashga alovida e’tibor byerilmokda. Masalan, darslarni *mo’jizalar maydoni, didaktik o’yinlar* tarzida tashkil kilish mumkin. Bunday usullarga bir nyechta misollar kyeltiramiz:

1. Matyematik mashk.

Bu o’yin ko’p sondagi o’kuvchilarga bilimlarni tyezlikda tyekshirishga imkon byeradi. Sinf katorlar bo’yicha jamoalarga bo’linadi. Xar bir kator esa ikki variantga bo’linadi. Xar bir variant o’kuvchilarini, agar ular javob byeradigan obyekt xakida so’z borganda yoki o’rnidan turadi, yoki ko’l ko’taradi.

2. Auksion uyini.

Savdoga biror mavzu bo’yicha topshiriklar ko’yiladi, bunda o’kituvchi oldindan o’kuvchilar bilan o’yining mavzusini kyelishib olishi kyerak. Masalan, 7 -sinfda “Algyebraik kasrlar ustida amallar” mavzusi bo’lsin. O’yinda 4-5 jamoa katnashadi. Kodoskop bilan ekranga 1-lot: kasrlarni kiskartirishga doir byeshta topshirik namoyish kilinadi. 1-jamoa topshirik tanlaydi va unga 1 dan 5 ballgacha baxo ko’yadi.

Agar bu jamoa baxosi boshkalarga karaganda yukori bo’lsa, bu topshirikni jamoa oladi va uni bajaradi.

Shunday kilib, matyematika o’kitish usullari rang –barang va ulardan foydalanish matyematika o’kituvchisi maxoratiga va boshka yukorida ko’rsatilgan imkoniyatlarga boglik bo’ladi.

5 – Amaliy mashg’ulot MAVZU: MATYEMATIKA O’KITISH PRINSIPLARI.

1. Matyematika o’kitish prinsiplarining moxiyati.
2. Ilmiylik va tarbiyaviylik prinsipi.
3. Ko’rgazmalilik prinsipi.
4. Onglilik va faollik prinsipi.
5. Puxta o’zlashtirish prinsipi
6. Sistyemalilik va kyetma-kyetlilik prinsipi.
7. Moslik prinsipi.
8. Tabakalashtirish va individuallashtirish prinsipi.

1. Pyedagogikada umumiy **ta’lim prinsiplarini** matyematika o’kitish jarayoniga ko’llash maktab va umuman o’kuv yurtlarida matyematika o’kitishga ko’yiladigan yagona talablar majmuasidan iborat. Boshkacha aytganda, matyematika o’kitishga jamiyat va fan ko’yadigan asosiy talablarni o’z ichiga oladi. Matyematika o’kitish uslubiyati bu prinsiplarni kuyidagicha byelgilaydi: [2,3,1] a) ilmiylik; b) tarbiyaviylik; v) ko’rgazmalilik; g) onglilik va faollik; d) puxta o’zlashtirish; ye) sistyemalilik va kyetma-kyetlilik;j) moslik; z) tabakalashtirish va individuallashtirish.

Umuman olganda, matyematika o'kitish prinsiplari maktabda o'kitish- ning jamiyat talablariga mos ravishda kanday amalga oshirilishi va bunda asoslaniladigan asosiy talablarni o'z ichiga oladi.

Ilmiylik prinsipi matyematika o'kitish mazmunining ilmiy bo'lisi, matyematikaning xozirgi axvoli va uning rivojlanishini obyektiv aks ettirishni ifodalaydi. Moxiyati o'kitish mazmuni va o'kitish usullari xozirgi paytdagi matyematika fani saviyasi va talablariga mos kyelishini ta'minlashdan iborat. Masalan, matyematik tushuncha va xukmlarni ifodalashda ilmiy ravishda to'gri yondashish xam bunga kiradi. Bundan tashkari, xar bir matyematik xukmga tankidiy karab, u asoslangan bo'lsa xam isbot dyeb karamaslik, ta'rif va tyeoryemalarni bir-biridan ajrata olish kabi uslubiy jixatlarga e'tibor byerish talab etiladi. Masalan, birorta tyenglamaning kaysi to'plamda o'rini ekanligini aniklashda xakikiy sonlar to'plamidan xam kyengrok to'plam komplyeks sonlar to'plami xam mavjudligini ta'kidlab o'tish mumkin. Yoki nolinchi daraja, logarifm ta'riflarini tyenglik ko'rinishda yozilishi ta'rif ekanligi va ular isbotlanmasligi aytib o'tish mumkin. Ko'pincha masalalar yechimlarini tavsiflashda ularning ryeal amaliy xayotga mos kyelish yoki kyelmasligini tyekshirish xam matyematika ko'llanilishi moxiyatini tushunishga imkon byeradi.

2. Tarbiyaviylik prinsipi o'kuvchilarga fanga bo'lgan kizikishni uygotish, yangi bilimlarni o'zlashtirishga xarakatini, ularni egallash va mustakil kyengaytira olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi, shu bilan birga ularda tafakkurni shakllantirish, matyematik tushuncha va tasavvurlar bilan boyitish, xotira va dikkatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarbiyalash kabi ishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Bu prinsip o'kitishda o'kuvchida ziyraklik, topkirlik, akllilik xislatlari bilan birga iroda, chidam, ko'yilgan maksadga erishishda sabot, puxtalik va aniklik, shuningdyek vatanga muxabbat kabi xamda rostguylig, myexnatsyeyvarlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalash xam matyematika darslarida amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligini ifodalaydi.

3. Ko'rgazmalilik prinsipi matyematika o'kitishning eng muxim prinsiplaridan biri bo'lib, u o'kuvchilarning chukur va puxta bilim olishlari uchun asosiy sharoitlarni ta'minlashga xizmat kiladi. Ko'rgazmalilik matyematika o'kitishda kuyi sinflarda kyeng ko'llanilishi bilan birga ayniksa gyeomyetriya o'kitishda kyeng foydalilanadi. Bu prinsipni chyex pyedagogi Ya.A.Komyenskiy asoslagan, rus pyedagogi K.D.Ushinskiy esa ko'rgazmalilik bolalar ruxiy xususiyatlariga javob byeradi dyeb xisoblagan. U o'kuvchilar tasavvurlar doirasini kyengaytiradi, ta'limda konkryetlilik, kizikuvchanlik va fikrlashni rivojlantiradi.

3. Onglilik, faollik va mustakillik prinsipini amalga oshirish kuyidagi shartlarni bajarishni talab etadi: o'kuvchilarning fan ma'lumotlarini, o'kuv matyerialini egallashi, uni chukur fikrlay olishi, bilimlarni yangi sharoitlarda amaliyotda ko'llay olish ko'nikmasi, bilimlarni ishonchga, amalda ko'llanmaga aylanishi sifatida tushuniladi.

4. Puxtalik prinsipi o'kuvchilarning ta'limni muvaffakiyatli davom ettirishlari uchun, ilmiy dunyokarashni shakllantirish, ularni kobiliyatlarini rivojlantirish amaliy faoliyatga tayyorlash uchun zarur.

5. Tabakalashtirish o'kitishda o'kuvchilarni o'z bilim saviyasi va kobiliyatlariga ko'ra guruxlarga ajratgan xolda, tabakalarga bo'lgan xolda o'kitishni nazarda tutadi.

Shunday kilib prinsiplar – matyematika o'kitishning ilmiy pyedagogik konuniyatları va amaliy pyedagogik tajribani taxlil kilish natijasida vujudga kyeladigan asosiy yo'naltiruvchi koidalardir.

6 – Amaliy mashg'ulot MAVZU: MATYEMATIKA O'QITISH VOSITALARI.

1. Matyematika o'kuv ko'llanmasi va darsligi.
2. Didaktik matyeriallar va ko'shimcha uslubiy ko'llanmalar.
3. Matyematika bo'yicha spravochniklar va ma'lumot byeruvchi adabiyotlar bilan ishslash.

4. Matyematika bo'yicha o'kuv jixozlari.

1.Matyematika darsligi, o'kuv ko'llanmasi dastur va didaktika talablari bilan aniklanuvchi o'kitish maksadlariga mos kyluvchi matyematika bo'yicha bilimlar asoslarini bayon etuvchi kitob xisoblanadi.

U kuyidagi talablarga javob byerishi lozim: a) u o'kuvchilarda ilmiy dunyokarash va mantikiy fikrlashni rivojlantirishi; b) matyematika bo'yicha ma'lumotlarni sistyemali va ilmiy bayon kilishi; v) uslubiy nuktai nazardan kyetma-kyet joylashtirilgan yetarli sondagi turli xil masala va mashklarni o'z ichiga olishi kyerak.

Shuningdyek, darslik bayon kilingan matyerial zarurligini asoslashga e'tibor byerishi, masalalarning taksimoti , o'rni va axamiyatini aniklashi, ko'rgazmalilik vazifasini yoritilishini ta'minlashi lozim.

Ukitish vositalariga o'kuv ko'llanmalaridan tashkari, *masalalar to'plamlari, ko'rgazmali kurollar va tyexnika vositalari* kiradi. Ukuv ko'llanmasi o'kitish jarayonida o'kuvchilarga byeriladigan axborotni o'z ichiga oladi. Uni to'gri ko'llaganda o'kuvchilarga matyematika fani asoslarini o'zlashtirishga yordam byeradi, bilimlar bilan kurollanishga va xotirani rivojlantirishga imkon byeradi. Xozirgi zamon o'kuv ko'llanmalarini nazariy ma'lumot va mashklarni o'z ichiga oladi. Tyeng kuchli o'kuv ko'llanmalar mavjudligi bir tomondan o'kituvchining o'kitishda o'z imkoniyatlari va o'kuvchilar bilim savyalariga mos ravishda undan ijodiy foydalanishga, ikkinchi tomondan, nazariy va amaliy jixatlarni o'zaro muvofik xolda bayon etishga, sinf va uy vazifalarini taksimlashni osonlashtiradi.

Ukuv ko'llanmasidan tashkari xar bir sinf uchun o'kitish vositalar tizimiga o'kituvchi *uchun kitoblar (uslubiy ko'llanmalar)* va *didaktik matyeriallar* kiradi. Ukituvchi uchun kitoblarda zarur tavsiyalar, masalalarni yechish yo'llari byerilgan, taxminiy ryejelashtirish kyeltiriladi. U o'kitishning xar bir boskichida erishilishi zarur bo'lgan bilimlar xajmini ta'lim standartlari talablari asosida aniklab byeradi. Didaktik matyeriallar esa mustakil va nazorat ishlari matnlari, tyestlar va ularni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar xamda javoblarni byeradi.

Ukuvchilar bilan o'kuv *darsligi ustida ishni* tashkil etishda birinchi kadam – masalalar matnni o'kishga o'rgatish xisoblanadi. Masala o'kilgandan so'ng masala shartlarini ajratish va ularni kiska yozuvlarda kayd etish taklif etiladi va bundan so'ng suxbat-izoxlash o'tkaziladi.

Ukuv ko'llanmasi bilan ishslashda darsning xar bir boskichi xususiyatlarini xisobga olish zarur.

Masalan, 7-sinfda gyeomyetriya darsida yangi mavzuni mustakil o'rganishni tashkil etishda mos bandini o'kish xamda tyeoryema mazmuni va uning isbotini taxlil etishlari talab etiladi (5).

8-9-sinflarda esa yangi mavzuni o'kuv darsligi bo'yicha o'rganishda o'kuvchilarga mustakil bu mavzuni o'kib kyelish va tushunmagan joylarini savollar orkali ifodalashni toshirish mumkin. Masalan, uchburchaklar o'xhashlik alomatlari xakidagi tyeoryemani o'rganib, kolgan ikkitasini sinfda o'kuv darsligidan mustakil o'rganib chikish taklif etiladi. Barcha xollarda mustakil o'rganilgan isbot o'kuvchi tomonidan sinfda takrorlanishi, bunda o'kituvchi javob byeruvchidan anik va tugri javob byerishga erishishi talab etiladi.

10—11-sinflarda esa bu ish yana xam takomillashtirilishi o'kuvchilar tyeoryemalar yoki mavzularni mustakil o'rganib ma'ruza yoki ryefyerat shaklida yozib. Uni ximoya kilish uchun tayyorgarlik ko'rishlari zarur buladi.

Ukuv ko'llanmasi ko'rgazmaliligi ko'yiladigan talablар kuyidagilarni o'z ichiga oladi: a) *bilish vazifikasi* shundan iboratki oddiydan murakkabga boriladi, o'kuvchilar faoliyatini ko'rgazmalilik vosita va usullari bilan boshkaradi, nazorat va kommunikativ amallarni bajarishga imkon byeradi; b) *intrpryetasion funksiyasi*, turli xil byelgi va rasmlar orkali mavzu va tushunchalar konkryetlashtiriladi; v) *estyetik vazifalari-* uning ko'rinishi va byezalishi o'kuvchilarda go'zallikni va estyetik did kabi tuygularni uygotishi uchun xizmat kilishi zarur.

Didaktik matyeriallar o'kuvchilarning mustakil faoliyatlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'kuvchilarning masalalar yechish bo'yicha mustakil ishlarini, individual

va frontal ravishda kursning mavzulari bo'yicha tyekshirish nazorat ishlari uchun matyeriallarni o'z ichiga oladi. U xar bir mavzu bo'yicha 4 ta va undan ortik mustakil ish va mavzular bo'yicha ko'shimcha mustakil ishlarni o'z ichiga oladi. Ularni o'kitishda ko'llash xususiyati shundan iboratki, o'kituvchi ular yordamida mustakil ishlarini tashkil etishi va nazoratlarni amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun didaktik matyeriallarga xar bir chorak bo'yicha yakuniy nazoratlar uchun yozma ishlar bilan birga tyestlar xam byeriladi.

3. Matyematika bo'yicha **spravochniklar va ma'lumotli matyematikadan adabiyotlar** kuyidagilarni o'z ichiga oladi: xisoblash uchun jadvallar, turli xil elyemyentar matyematika bo'yicha spravochniklar, o'kuvchilarining kundalik o'kuv faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga imkoniyat yaratadi; kizikarli matyematik adabiyotlar; ilmiy-ommabop matyematika bo'yicha adabiyotlar. Ular bilan ishslash sinfda va sinfdan tashkari mashgulotlarda amalga oshirilib, ularning kizikish va bilimlarini rivojlantirish uchun xizmat kilishini xisobga olishi zarur. Ayniksa bunda matyematikadan masalalar to'plamlari, tyestlar to'plamlari, kizikarli matyematik kitoblar va xokazolar bu ishda kyeng ko'llanilishi mumkin.

Matyematika bo'yicha o'kuv **jixozlari** kuyidagi uch turkum jixozlarni o'z ichiga oladi: priborlar, asboblar; o'kitishning nashr vositalari; o'kitishning ekran vositalari. 1-turdagi vositalarga turli xil gyeomeytik modyellar, styeryeomeytik shakllar komplyekti, chizma yasash asboblari va xokazolar kiradi. Ikkinchisiga esa jadvallar va kartochka-toshiriklar, nashr asosli daftarlari, ishchi va ma'lumotli jadvallar va xokazolar kirib, darslar samaradorligini oshirishga xizmat kiladi va o'kuv vaktini tyejashga xamda o'kuvchilar bilimlarini chukur va ongli bo'lishiga erishishga yordam byeradi.

Ukitishning **tyexnik vositalariga** kinofilm, diafilm, diapozitiv, kodopozitiv kabi ko'rgazmalilik vositalari va ularni ekranga tushiruvchi kinoapparat, diaproyektor, epidiaskop kabi asboblar kirib, bunga yana tyelye-radio, vidyeo-audio vositalar xam kiradi. Bu ekran vositalariga EXM kompyutyerlari xam kirib, darslarni jonli kizikarli o'tilishini ta'minlash uchun ko'llaniladi. Ulardan foydalanishning o'ziga xos chyegaralari, uni ko'llash sanitariya-gigiyena koidalari mavjud, bunga o'kituvchilar kat'iy e'tibor byerishlari talab etiladi. Ko'pincha uslubiy adabiyotlarda o'kitishning ekran vositalari o'kitishning tyexnik vositalari(TSO) dyeb xam ataladi va shu bilan birga ularning vazifalari va imkoniyatlari, sinflari va turlari yetarlicha bayon kilingan.

Tyexnik vositalarni o'kitishda ko'llashning asosiy xususiyati o'kuvchilarini o'kuv vaktidan unumli foydalanishga, bilimlarni ko'rgazmali ravishda egallab olishlari uchun imkon byerishi xisoblanadi. Bularдан tashkari, grafikaviy ko'rgazmalilik vositalari xam mavjud bo'lib, matyematika o'kitishda, ayniksa, gyeomeytiriya darslarida kyeng ko'llaniladi. Bu vositalar turkumiga rasm, diagramma, sxyema, va boshka grafikaviy tasvirlar, grafikaviy modyellar kiradi. Ularni ko'llash xususiyatlariga ko'ra: jadvallar, diafilmlar, diapozitivlar va transporantlarga ajratish mumkin.

2.3 - BO'LIM

«MATEMATIKA VA INFORMATIKA O'QITISH METODIKASI» FANINING SEMINAR MATERIALLARI

MUNDARIJA

2.5. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining seminar mashg'ulotlari materillari

- 2.5.1. Matematika oqitishni tashkil etish.
- 2.5.2. Matematika darsi.
- 2.5.3. Matematika oqitishda masalalar yechishning axamiyati va o'rni
- 2.5.4. Matematika bo'yicha sinfdan va mактабдан ташкари mashgulotlar
- 2.5.5. Son va xisoblashlarni o'rganish
- 2.5.6. Maktabda turli sonlar sistemalarini o'rganish
- 2.5.7. Algebrani o'kitish uslubiyati
- 2.5.8. Algebraik ifodalarini ayniy shakl almashtirish-larni urganish uslublari
- 2.5.9 Tenglama va tengsizliklarni o'rganish
- 2.5.10 Funksiyalar va grafiklarni o'rganish
- 2.5.11 Geometriya oqitish uslubiyati masalalari.
geometriya o'quv predmeti sifatida
- 2.5.12 Fazoda to'gri chizik, tekisliklar va fazoviy jismlarni o'rganish
- 2.5.13 Maktabda informatika o'gitishning mazmuni va vazifalari

1-2 – Semunar mashg’uloti

MAVZU: MATEMATIKA O’QITISHNI TASHKIL ETISH. MATEMATIKA DARSI.

1. Matematika darsi va unga qo’yiladigan talablar.
2. Matematika o’qituvchisining darsga tayyorgarlik tizimi.
3. Matematika darsini tahlil qilish.
4. Talabalar bilimini baholash.

Tayanch iboralar: matematika, matematika darsi, taxlil qilish, o’quvchilar bilimini nazorat qilish.

1. Darsga quyidagicha ta’rif berish mumkin.

Dars – bu mantiqan tugallangan, butun vaqt bilan chegaralangan o’quv-tarbiya jarayonining qismidir.

Matematika darsining belgilariga quyidagilar kiradi:

- 1) Ta’lim va tarbiya vazifalari hal qilinadi;
- 2) Konkret o’quv materiali muhokama etiladi;
- 3) Maqsadlarni amalga oshirish uchun mos o’qitish usullari tanlanadi;
- 4) O’quvchilar jamoasining ma’lum tarzda faoliyati tashkil etiladi.

Matematika darslariga qo’yiladigan **asosiy talablar** quyidagilar hisoblanadi:

1. Darsda **asosiy didaktik(o’quv) maqsadining mavjudligi**. Bunda bir necha masalalarga e’tibor qaratiladi: a) yangi materialni o’rganish (tushunchani shakllantirish, qonun va algoritmlar o’rnataladi); v) o’rganilayotgan bilimlarni mustahkamlash (takrorlash, masalalar yechish) Ular orasida muhimi asosiy maqsadni to’g’ri aniqlab olishdir. Dars maq-sadi uning mavzusini aniqlaydi, darsda nima qilish kerak savoliga javob beradi. Masalan, “Keltirilgan kvadrat tenglama ildizlari” formulasini o’tishda asosiy maqsad o’quvchilarni keltirilgan kvadrat tenglamani yechish algoritmi bilan tanishtirish hisoblanadi. Shu asosda o’quv masalalari vujudga keladi: a) chala kvadrat tenglama yechish ko’nikmasini tekshirish; b) kvadrat uchhaddan to’la kvadrat ajratish usulini takrorlash; v) algoritmni qo’llash.

2. Darsda ta’limiy vazifalar bilan birga **tarbiyaviy masalalar** ham hal qilinadi. Bunda: a) o’quvchilar qiziqishini o’yg’otish va saqlash; b) o’quvchilarning o’qishga ma’suliyatini oshirish; v) matematikani o’rga-nishga ehtiyoj va ko’nikmalarni tarbiyalash. Bu talab konkret matematik tushunchalarni o’zlashtirishda quyidagilarni ko’zda tutadi:

- bilimlarni o’z so’zlari bilan bayon etish;
- undagi asosiy aniqlangan tushunchalar mohiyatini o’zlashtirish;
- ta’rif bo’yicha uni tanib olish

Teoremani to’g’ri ifodalash, subyekt va predikatlarni ajrata olish kabilar ham bu talabning zarurligini tasdiqlaydi.

3. **O’quv materialining asoslangan holda tanlanishi**. Bu quyidagi-larni nazarda tutadi: 1) asosiy o’quv maqsadining mazmunga mos kelishi; 2) yetarli hajmda o’quv materialining mavjudligi; 3) konkret va abstrakt materialning optimal munosabatda bo’lishi; 4) nazariy va amaliyotning o’zaro aloqasining yoritilishi muhimdir.

Asosiy ish darsda bajarilishi kerak. Darsda konkretlikdan umumiylukka o’tish (formula, qoida). Shuningdek, nazariya (formula keltirib chiqarish) va amaliyot (tenglamalar yechishga qo’llash) ham muvoofiqli holda bo’lishi zarur.

4. Darsda **o’quvchilar faolligini oshiruvchi o’qitish usullarini** qo’llash. Bunda qo’yidagilarga e’tibor berilishi lozim: a) o’quvchilarning o’zlari navbatdagi navbatdagi muammolarni ifodalay olishi; b) kiriti-layotgan tushunchalarni ta’riflashni amalga oshirishlari zarur. Bunda o’quv materialini qismlarga ajratish hamda o’quvchilar oldiga xususiy o’quv masalalarni qo’yib borish talab etiladi.

5. Darsning **tashkiliy puxtaligi** talabini amalga oshirish uchun quyidagi zaruriy shartlar bo’lishi zarur: a) o’qituvchi dars materialini erkin bilishi; b) har bir navbatdagi savol uslubiyatini bilishi, uni o’rgatish usul va vositalarini egallagan bo’lishi; v) o’quvchilar individual

xususiyatlarining taqsimoti to'g'ri yo'lga qo'yilishi, sinf taxtasi va daftardagi mazmun va yozuvlar joylashishini hisobga olish, darsda ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanish, uning tayyorgarligini yo'lga qo'yish.

2. Matematika o'qituvchisining darsga tayyorgarlik tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Yangi o'quv yili arafasidagi tayyorgarlik, bunda kalendar ish rejasini tuziladi.
2. O'quv mavzusi bo'yicha darslar sistemasi tuzib chiqiladi.
3. Har bir darsga tayyorgarlik, konspektlar tayyorlash. Bunda: a) har bir mavzu o'rni, uning mazmuni, o'rganish vazifalari aniqlanadi – zarur o'quv materiali tanlanadi; b) masala va o'quv materiali darslarga taxminan taqsimlanadi; v) vaqt va mazmun bo'yicha o'tilganlarni takrorlash amalga oshiriladi, mustaqil va nazorat ishlari o'tkazish vaqtini aniqlanadi.

Darsga tayyorgarlik ko'rish quyidagi ishlarni bajarishni ko'zda tutadi: 1) o'quvchilarni mavzuga kiritish, ularga navbatdagi o'quv masalani qo'yish; 2) yangi tushunchalarini bayon etish; 3) kiritilayotgan tushunchalar xossalari qanday topish mumkinligini ko'rsatish; 4) induktiv asoslashga erishish; 5) bir xil tipdagi masalani yechish usulini ko'rsatish; 6) darsga masalalarni materialga mos tanlash; 7) o'quvchilarni masala sharti bilan tanishtirish; 8) tanlangan masala qanday yechilishini bayon qilishi lozim.

Asosiy **dars tiplari** quyidagilar hisoblanadi:

1. Yangi materialni bayon qilish darsi
2. O'rganilganlarni mustahkamlash darsi.
3. Bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi.
4. O'rganilganlarni sistemalashtirish va umumlashtirish darsi

Darsning tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Oldingi bilimlar va amal usullarini takrorlash (aktual-lashtirish)
2. Yangi bilim va amal usullarini shakllantirish.
3. Qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Darsning asosiy bosqichlari:

1. O'quvchilar oldiga dars maqsadini qo'yish.
2. Yangi material bilan tanishtirish.
3. Yangi materialni mustahkamlash.
4. Bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish.
5. Bilimlarni sistemalashtirish, o'rganilganlarni umumlashtirish.

Talablar – tarbiya maqsadlarini o'rnatish uchun maqsadga yo'nal-tirilgan ishni amalga oshirish, o'quvchilar bilish faoliyatlarini faollashtiradi. Umumiy maqsad sari yo'l ochiladi.

3. Matematika darsini *tahlil qilish* nazorat va ta'lim berish vositasi sifatida xizmat qiladi va bunda quyidagi maqsadlarni tekshirish asosiy vazifa qilib olinishi mumkin:

1. Dars maqsadlarining amalga oshirilishi;
2. Darsning matematik mazmuni va ilmiy saviyasi;
3. Darsda qo'llanilgan o'qitish usullari samaradorligi;
4. Darsda o'qituvchi va o'quvchining faoliyati sifati;
5. O'quvchilarda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Buning har bir bandi uchun dars tahlil qilinadi va tegishli xulosalar, yutuq va kamchiliklar ko'rsatiladi, taklif va mulohazalar bildiriladi. Darsning to'la tuzilishi o'qituvchining dars berish xususiyat va bosqichlarini hisobga olgan holda tuzib chiqilishi mumkin.

4. Matematika bo'yicha **o'quvchilar bilimini baholash va tekshirishning** asosiy maqsadlari quyidagilar: o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish sifatini hamda predmet bo'yicha dasturda ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarini egallash saviyasini tekshirishdan iborat.

Bu uch xil tekshirishni o'z ichiga oladi: *joriy* (uy vazifasini tekshirish, og'zaki so'rash, kundalik baho qo'yish va h.k.), *oraliq nazorat* yoki *davriy nazoratlar* (nazorat ishlari, mavzu yoki bob bo'yicha nazorat ishlari va h.k.), *yakuniy nazorat* chorak uchun yoki yarim yillik va yillik nazoratlarini o'z ichiga oladi.

Oraliq nazorat uchun asosan "Didaktik materiallar" dan foydalangan holda ish olib borish ko'zda tutiladi. Yakuniy nazoratlar yakuniy nazorat ishlari yoki chorak uchun og'zaki so'rash, bitirish imtihonlar (testlarni) o'z ichiga oladi.

Maksimal ball matematika bo'yicha 500 ball hisoblanadi. O'quv fani maksimal balli JN, ON va YaN ballarini jamlash orqali aniqlanadi.

Bilimlarni baholash tartibi quyidagi darajalarga bo'linadi:

1-daraja- matematikadan davlat ta'lif standartida belgilab berilgan bilimlarni o'zlashtirishning minimal darajasini bajarganlar "past" daraja hisoblanadi.

2 –daraja – reproduktiv darajada bo'lib, DTS da belgilab berilgan bilimlarni o'zlashtirishning minimal darajasidan yuqori bo'lganlari "o'rta" baholanadi.

3-daraja – rekonstruktiv darajada qo'llaniladigan DTS dagi bilimlarning imkoniyat darajasi talablariga javob beradiganlari "yuqori" baholanadi.

4- daraja – DTSda belgilab berilgan bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyat darajasiga muvofiq keladigan va uni ijodiy qo'llay oladiganlar "o'ta yuqori" baholanadi.

Reytingi 100-96% bo'lganlar - o'ta yuqori, 86-95% bo'lganlar – yuqori,
81-71% bo'lganlar-o'rta, 70-56% bo'lganlar – past baho bilan baholanadi, --0-55% bo'lganlar esa attestasiya qilinmaydi.

O'quv fani bo'lim va mavzularni maksimal ballarga taqsimlashda quyidagicha yo'l tutiladi: masalan, 6-sinfda haftasiga 5 soatdan, jami 170 soat o'qitiladi, o'quvchi to'playdigan maksimal ball-500.

1-mavzu "O'nli kasrlar ustida dastlabki tushuncha, qo'shish va ayirish" mavzusiga 22 soat vaqt ajratilgan, shuning uchun 22 soatga to'g'ri kelgan ball $R = (500:170) \cdot 22 = 64,7 = 65$ ga teng.

2-mavzu "O'nli kasrlarni ko'paytirish va bo'lish" mavzusiga 40 soat ajratilgan, shuning uchun $R = (500:170) \cdot 40 = 117,6 = 118$ ball va h.k.

Mustaqil o'rganish uchun savollar:

1. Matematika darsi va unga qo'yiladigan talablar.
 2. Matematika o'qituvchisining darsga tayyoragarlik tizimi.
 3. Matematika darsi tahlili, kuzatish va dars konseptlari.
 4. Kalendar ish reja qanday tuziladi?
- 5.O'quvchilar bilimini baholash va reyting tizimi qanday xususiyatlarga ega?

Agarda hisob san'ati yo'qotilganda hamma san'atlardan bittasi ham qolmasligi, bularning barchasi butunlay yo'qolib ketishi mumkin edi.

Platon

Sanoq va hisoblashlar – boshdag'i tartibning asosidir.

I.Pestalossi

3 - seminar mashg'uloti

MAVZU: MATEMATIKA O'QITISHDA MASALALAR YECHISHNING AHAMIYATI VA O'RNI

1. Matematik masalalar yechishning matematika o'kitishdagi vazifalari.
2. Masalalarning matematika o'kitish jarayonidagi axamiyati.

3. Matematikani masalalar yechish orkali o'rgatish
4. Matematika masalalarning turlari va ularni yechish boskichlari.

Tayanch iboralar: matematik masala, vazifalari, o'kitishdagi axamiyati, yechish usullari, turlari.

1. Maktabda matematikani o'rganish turli xil matematik masalalarni yechish orkali amalga oshiriladi. Shu sababdan uslubiyatchilar matematik masalalarning matematika o'kitishda kuyidagi vazifalari mavjudligini ta'kidlaydilar: 1) umumta'lim; 2) amaliy; 3) rivoj-lantiruvchi; 4) tarbiyaviy; 5) nazorat etish.

Umumta'lim vazifalariga o'kuv dasturida ko'rsatilgan matematik ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalari kiradi. Bundan tashkari, yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan birga o'zining matematik ma'lumotini oshirish, matematik masalalar yechish ko'nikmasi shakllana boradi.

Amaliy vazifalari yordamida o'kuvchilar masalalar yechish orkali amaliy ko'nikma va malakalar bilan kurollanib, matematikani tadbik etish va xayotda ko'llashga doir zaruriy bilimlarni egallaydilar.

Rivojlantiruvchi vazifalariga o'kuvchilarda masalalar yechish asosida ularning matematik tafakkuri va kobiliyatlarini rivojlantirish kiradi. Shuning uchun o'kituvchi xar bir masaladan bunday maksadlarda foydalanimishiga e'tiborni karatish talab etiladi.

Tarbiyaviy maksadlari - matematik masalalarning o'kuvchilarda yaxshi insoniy fazilatlarni tarkib toptirish uchun ko'llanilishidan iborat.

Nazorat etish vazifalariga masala va mashklardan o'kuvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini egallah saviyasini tekshirish vazifasida ishlatalishi kiradi.

2. Matematik masalalarning matematika o'kitishdagi axamiyati uning bajaradigan vazifalaridan ko'rinish turibdiki, bilim, ko'nikma berish bilan chegaralanib kolmay, balki uning matematik tafakkurini rivojlan-tirish, ma'naviy tarbiyalash kabi muxim ishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Bunda matematik masalalar yechishga kuyidagi talablarning ko'yili-shi muxim axamiyat kasb etadi: matematik masalalar o'rganilayotgan tushunchalar mazmunini to'la kamrab oladigan shaklda ko'llanilishi zarur; matematik masalalarni yechishda o'kuvchilar mustakilligi va faolligini ta'minlashga e'tiborni karatish; matematik masalaning turli dars boskichlarida ko'llanilishini xisobga olish; matematik masalalar turlari xilma-xillidan foydalananish; matematik masalalar yechish usullariga e'tibor berish, yutuk va kamchiliklarini kayd etish; matematik masalalar yechish boskichlari nazardan kolmasligi maksadga muvofik.

Bu talablardan ko'rinishdiki, matematika o'kitishda har bir mashk, misol va masala o'z urnida va uning vazifalariga mos ravishda ko'llanilishi axamiyatlidir.

Umumi nuktai nazardan matematik masalani yoki masalani matematik usul bilan yechish uch boskichdan iboratligi uslubiyatchilar tomonidan tan olingan: 1) matematik model tuzish; 2) matematik model ichida yechish; 3) yechimning masala shartlariga mos kelishini tekshirish.

Matematik masalalar: birinchidan, fanni chukur va puxta o'rganish uchun xizmat kiladi, ya'ni matematik madaniyatni tarkib toptirish; matema-tikani mustakil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish, mustakil bilish faoliyatini rivojlantirib, o'kuv masalalarni ko'llash orkali amalga oshirilib, matematik rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Matematik masalalarni yechish o'kuvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, matematik mazmunni va ijodiy fikrlash uchun asosiy vosita xisoblanadi. Matematika o'kitishda masalalar sistemasining ko'yilishi amaliyoti kamchiliklarga ega: bular masalalar yechish mazmuni va usullari standartlashuvining amalga oshirilishi; masalalar yechishga o'rgatish uslubiyati takomillashmagan va matematik masalalar orkali o'rganishni talab etadi, masalalarning ko'yilishi matematik tafakkur rivojlanish konuniyatlariga mos kelmasligidir.

5. Matematik masalalar matematika o'kitishda va matematik tushunchalarni shakllantirishda ko'llash uchun kuyidagi masalalar turlari ko'l keladi: matematik tushunchalarni o'zlashtirishga doir; matematik belgilarni ko'llashga doir; isbotlashga doir; matematik ko'nikma

va malakalarni shakllantirishga doir; yangi matematik ma'lumotlarni o'rganishga doir; muammoli vaziyatlarni yaratishga doir masalalar shular jumlasiga kiradi.

Matematik tafakkurni rivojlantirishda kuyidagi masalalar muxim axamiyatga ega: umumiy fikrlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga doir; tafakkur usullariga o'rgatishga doir; o'kuvchilar faoliyatlarini faollashtirishga doir; tadkikotga doir; isbotlashga doir; xatolarni topishga doir; sofizmlarni taxlil etishga doir; kizikarli masalalar; turli xil yechish usullarini ko'llashga doir; o'kuvchilar tomonidan masalalar tuzishga doir va x.k.

Masalalarning yagona sinfi yo'k bo'lgani kabi, masalalar yechishning yagona usullari mavjud emas. Algoritmlarni esda saklash va ko'llash malakalarini tarkib toptirishda masala-mashklarni yechishda kuyidagi sxemadan foydalanish tavsija etiladi: algoritmni kashf etish; algoritmni o'zlashtirish bo'yicha ish olib borish(nazariy tushunchalarga tayangan xolda mashklar yechish, xatolarni taxlil kilish, xar bir kadamni asoslash); mashk kildirish; algoritmni ko'llashning maxsus xollarini ko'rib chikish; mustaxkamlash.

D.Poya "Masalani kanday yechish kerak" nomli asarida xar kanday masalani yechishning 4 ta asosiy boskichini ko'rsatib o'tadi: masalaning ko'yilishini tushunish; yechish rejasini tuzish; rejani amalga oshirish; "orkaga nazar solish".

Xech kanday ko'rsatma va tavsiyalar o'kituvchiga masalalar yechishga yordam bermaydi, agar u o'zi mustakil masalani yecha olmasa. Ukituvchining moxirligi, masalalar yechishga muxabbatigina o'kuvchilarni masalalar yechishga kizikishini ta'minlashi mumkin.

Ta'limiylar asosan nazariy bilimlar elementlari va unga boglik ko'nikmalarni shakllantirishga karatilgan, ya'ni tushuncha, ta'rif, teorema va uning isbotlari, koidalar, algoritmlarni o'rgatishga mo'ljallangan masalalardir.

Amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda kuyidagi maksadlarni amalga oshirishga karatilgan masalalar ko'llaniladi: tushunchalarni to'gri shakllantirish; xisoblash ko'nikmalarini shakllantirish; algebraik va transsident ifodalarni ayniy shakl almashtirishlar; tenglama va tengsizliklarni yechish, tiplarini aniklash.

Tushuncha va ta'riflarni o'zlashtirishda kuyidagi masalar turlari axamiyatga ega: amaliy mazmunli masalalar; muxim xossalarni ajratishga doir; tushunchalarni farklay olish; tushuncha ta'rifi matnini tushunishga doir; aktuallashtirishga doir; tushunchalar bilan boglik simvollarni ajrata olishga doir; tushunchalarni ko'llay olishga doir; Bunda ikki o'kuv amali: umumlashgan tushuncha xajmiga kiritish, berilgan tushunchaga tegishli ma'lumotdan natijalarni chikarish muxim o'rinni egallaydi.

Teorema va uni isbotlashga doir masalalar xususiyatlari kuyidagilardan iborat: teoremda bayon kilishga zarur matematik ma'lumotlar va bilimlarni ochib beruvchi; isbotda foydalaniladigan matematik ma'lumotlarni takrorlash; teoremda bayon etilgan natijaga olib keluvchi isbotlashga va xisoblashga doir masalalar yechilishi; teorema bayonini o'zlashtirishga doir, teorema isboti ayrim boskichlarini o'zlashtirishga doir va isbotning boshka usullarini izlashga doir va teoremda bayon kilingan ma'lumotlarni, yangi matematik bilimlarni ko'llay olishga doir mashk va masalalardan foydalanish.

Koida, algoritmni o'zlashtirishga doir kuyidagi masalalar o'kuv jarayonida ko'llaniladi: koidani karash zarurligi asoslanishiga doir; koidani asoslash uchun zarur bilimlarni va uni bajarish uchun ko'nikmalarni bajarish; algoritmgaga kiruvchi ayrim amallarni bajarish; koidani turli vaziyatlarda ko'llash.

Mustakil o'rganish uchun savollar:

1. Matematik masalalarning matematik ta'liddagi axamiyati va o'rni nimalarda ko'rindi?
2. Kaysi matematik masalalar turlari mavjud?
3. Matematik masalalar o'kitishda kanday ko'llaniladi?
4. Matematik masalalar yechish usullaridan kaysilarini bilasiz?
5. Matematik masala tafakkurni rivojlantirishda kanday ko'llani-lishi mumkin?
6. Qoida va algoritmlarni o'rganishda qanday masalalardan foydalanish yaxshi natija beradi?

4 – seminar mashg’uloti

MAVZU: MATEMATIKA BO’YICHA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHKARI MASHGULOTLAR

1. Maktabda matematika bo’yicha sinfdan tashkari ishlarning mak-sadlari va mazmuni.
2. Fakultativ mashgulotlar.
3. Maktabdan tashkari va sirtki matematik tadbirlar.

Tayanch iboralar: matematika, matematik to’garaklar, matematik kechalar, fakultativ mashgulotlar, maktabdan tashkari ishlar.

1. Matematika bo’yicha sinfdan tashkari ishlar deb darsdan tashkari vaktda o’kuvchilar bilan olib boriladigan majburiy bo’Imagan mashgulotlarga tushuniladi.

Ikkita yo’nalish mavjul: boshkalardan dastur materialini o’zlashtirishda orkada kolayotgan o’kuvchilar bilan ishlash(ko’shimcha sinfdan tashkari mashgulotlar); matematikani o’rganishga boshkalarga karaganda kizikish va kobiliyat ko’rsatayotgan o’kuvchilar bilan ishlash.

Birinchi yo’nalish maktablarda amalga oshiriladi, individual asosda olib boriladi. Asosiy maksadi, matematika kursi bo’yicha o’kuvchilar bilimidagi kamchiliklarni o’z vaktida bartaraf etish xisoblanadi. Uning kuyidagi xususiyatlari mavjud: ko’shimcha sinfdan tashkari mashgulotlar 3-4 o’kuvchi bilan olib boriladi, ular bir xil bilim saviyasida, kobiliyatি bir xil; bu mashgulotlar individuallashtirilgan; bir xtaftada bir marta, individual reja bo’yicha uy ishi bilan ko’shib olib boriladi; takroriy o’tilgandan so’ng yakuniy nazorat o’tkazilib, baxo ko’yiladi; ta’limiy xarakterga ega, “ didaktik materiallar” dagi mustakil ish yoki nazorat ishlardan foydalaniladi; o’kituvchi o’zgarishni taxlil etib boradi, tipik xatolarni o’rganadi va bartaraf etish yo’llarini izlaydi.

Ikkinci yunalishda esa kuyidagi asosiy maksadlar ko’zda tutiladi: o’kuvchilarda matematikaga turgun kizikishni uygotish va rivojlantirish; o’kuvchilar bilimlarini kengaytirish va chukurlashtirish; matematik kobiliyatlarni optimal rivojlantirish; matematik tafakkur madaniyatini tarkib toptirish; mustakil ijodiy ko’nikmalarni shakllantirish; matematikaning amaliy axamiyati xakidagi tasavvurlarni kengaytirish; matematik modellashtirish axamiyatini tushunish; jamoa faoliyatini vujudga keltirish; faol matematik faoliyatga ko’rsatishga tayyorlash.

Sinfdan va maktabdan tashkari ishlar uch xil bo’ladi: bular sinfdan tashkari ishlar; maktabdan tashkari ishlar; sirtki ishlar.

Sinfdan tashkari ishlarning eng tarkalgan turi bo’lib, kuyidagi turlari mavjud: matematik to’garak, matematik xtaftalik, matematik kecha, viktorina va konkurslar, matematik musobakalar, maktab matematik olimpiadalari, devoriy gazeta, yosh matematiklar klub, matematik ekskursiyalar, sinfdan tashkari o’kish, ilmiy konferensiylar va x.k.lar.

13.Amaliy maqsadlari- olingan bilimlarni oddiy hayotiy masalalarni yechishga, boshqa o'quv fanlarni o'rghanishda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish; matematik asboblar va jihozlardan foydalana olishga o'rgatish; bilimlarni mustaqil egallay olish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

14.Maktabda o'quvchilarga matematikani o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlar:

- o'quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, matematik tushuncha va munosabatlarni ular tomonidan ongli o'zlashtirilishida hamda hayotga tadbiq eta olishiga intilish;

- o'quvchilarda izchil mantiqiy fikrlashni shakllantirib borish natijasida ularning aql-zakovat rivojiga, tabiat va jamiyatdagi muammolarni hal etishning maqbul yo'llarini topa olishlariga ko'maklashish;

- insoniyat kamoloti, hayotning rivoji, texnika va texnologiyaning takomillashib borishi asosida fanlarning o'qitilishiga bo'lgan talablarni hisobga olgan holda maktab matematika kursini ularning zamonaviy rivoji bilan uyg'unlashtirish;

- vatanparvarlik, milliy g'ururni tarkib toptirish, rivojlantirish, matematika rivojiga komusiy olimlarimiz qo'shgan ulkan hissalaridan o'quvchilarni xabardor qilish;

- jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini his qilgan holda umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida matematika to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantrish;

- o'quv jarayonini demokratiyalashtirish, gumanitarlashtirishga eri-shish.

15.Umumiy o'rta ta'lif maktablarida *matematik ta'limning vazifalari* -son haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish va hisoblashning inson tajribasidagi o'rnini ko'rsatish; hisoblashning amaliy ko'nikmalarini va hisoblash madaniyatini shakllantirish; algebraik amallarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish va ularning matematika va boshka sohadagi masalalarni yechishda qo'llash; elementar funksiyalarning xossalari, grafiklarini o'rghanish va ularni tabiatdagi mavjud munosabatlarni tahlil qilish hamda ularni bayon qilishda foydalanish; planimetriyaning usullari va asosiy ma'lumotlarini o'zlashtirish; o'r ganilayotgan tushuncha va uslublar hayotda va tabiatda ro'y berayotgan hodisalarni matematik modellashtirish vositasi ekanligi to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish; fazoviy jismlarning xossalarni o'rghanishda bu xossalarning amaliyot masalalarini yechishga tadbiq qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

16. *Davlat ta'lif standarti(DTS)-* matematikadan ta'lif mazmunining majburiy hajmini; o'quvchilarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadigan o'quv yuklamasining yuqori miqdoridagi hajmini; asosiy yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar va ularni baholash me'yorlarini belgilaydi.

17.Matematik ta'limning *asosiy yunalishlari*- son va hisoblashlar; ifodalarni ayniy shakl almashtirishlar; tenglamalar va tengsizliklar; funksiyalar va grafiklar; geometrik shakllar va kattaliklar.

18.O'quvchilarning *matematik tayyorlarligiga qo'yiladigan talablar*-:

- a) matematik ta'lif jarayonida o'quvchilarga beriladigan imkoniyatlar bayon etiladi; v)o'quvchilarning matematikadan egallashlari majbur bo'lgan bilim va malakalar, masalalar yechish ko'nikmalarini ko'rsatiladi.

19 Matematika o'qitishda predmetlararo aloqalar- bu

matematika boshqa o'quv fanlari bilan ,ayniqsa fizika, astronomiya, biologiya, chizmachilik, kimyo va hokazo fanlar bilan bog'lanishlarga.

20.Matematika boshqa predmetlar bilan ichki aloqalari-bu geometriya va algebra orasida ham aloqalar

21.Matematik tadqiqotning matematika o'qitishda qo'llaniladigan asosiy usullari-kuzatish va tajriba; taqqoslash va analogiya; analiz va sintez; umumlashtirish, maxsuslashtirish, konkretlashtirish va abstraksiyalash.

22. **Kuzatish** - atrof olam alohida obyektlar va hodisalarining xossalari va munosabatlarini ular mavjud bo'lgan tabiiy sharoilarda o'rganish usuliga aytildi.

23.Tajriba - obyektlar va hodisalarni o'rganishning shunday usuliga aytildiki, bunda biz ularning tabiiy holatiga va rivojiga aralashamiz, ular uchun sun'iy sharoitlar yaratamiz, qismlarga ajratib boshqa obyektlar va hodislar bilan bog'lanishlar hosil qilib tadqiq etamiz.

23.Taqqoslash – o'rganilayotgan obyektlarning o'xshashlik va farqlarini fikran ajratishdan iborat.

24.Taqqoslashni qo'llashga **talablar**-

1.Biri-biri bilan ma'lum bog'lanish va aloqalarga ega obyektlarni taqqoslash lozim, ya'ni ma'noga ega bo'lishi talab etiladi.

2.Taqqoslash reja asosida amalga oshirilishi kerak, ya'ni taqqoslash o'tkazilayotgan bosqichlar, xossalari aniq belgilanishi zarur.

3. Matematik obyektlarni bir xil xossalari bo'yicha taqqoslash to'la bo'lishi, ya'ni oxirigacha yetkazilishi lozim.

25.Analogiya-taqqoslanayotgan obyektlarning xususiy xossalari (belgi-lari) o'xshashligiga asoslangan tasdiq bo'lib tahlil qilish natijasida hosil qilinadi.

26. **Analiz va sintez** tadqiqot usullari- matematika o'qitishda turli shakllarda namoyon bo'ladi: masalalar yechish usuli, teoremalarni isbotlash usuli, matematik tushunchalar xossalarni o'rganish usuli va xokazo.

27.Analiz ikki xil shaklda "**filtr**" shaklida- masalani yechayotgan kishi tasodifiy ravishda yechish usulini izlab birin-ketin mavjud usullarni qo'llab ko'radi.

28.Analiz sintez orqali qo'llanilishi- aylanaga tashqi chizilgan teng tomonli uchburchak perimetri bu uchburchakka ichki chizilgan teng tomonli uchburchak perimetridan ikki marta katta ekanligini isbotlashni qaralsa. Avvalo AOS uchburchak qaraladi va A_1S_1 bu uchburchak o'rta chizig'i ekanligi ibotlanadi, so'ngra esa xuddi shunday ichki chizilgan uchburchak tomonlari yarmiga teng ekanligi isbotlanadi.Demak, bulardan tashqi chizilgan uchburchak perimetri ichki chizilgan uchburchak perimetridan ikki marta katta ekanligi kelib chiqadi.

29.**Umumlashtirish**- obyektlar to'plamiga tegishli va bu obyektlarni birlashtiruvchi birorta xossa fikran ajratiladi.

30. Umumlashtirishda- a) obyekt biror o'zgarmasni o'zgaruvchi bilan almashtirish(uchburchakni ko'pburchak bilan); b) o'rganilayotgan obyektga qo'yilgan cheklashni olib tashlash(masalan, birinchi chorakdag'i burchakni ixtiyoriy burchak bilan) usullari qo'llaniladi.

31.**Maxsuslashtirish**- o'rganilayotgan obyekt xossalari to'plamidan birorta xossa fikran ajratishdan iborat..

32.Maxsuslashtirish –berilgan to'plamdan bunda yotuvchi to'plamga qarashga o'tishdan iborat.

34.**Abstraksiya**- analiz va umumlashtirish kabi ikki xil shaklda bo'lishi mumkin. **Birinchi shakli**, predmetni hissiy bilish bo'lib, bunda predmetning bir xossasiga qaramasdan boshqa uning xossalarni ajratishdir. Geometrik jism sifatida qarab predmetning shakli, o'lchovlari, tekislikda yoki fazo-dagi vaziyatiga qaraladi. **Ikkinci shakli** abstraksiya hissiy bilishdan umuman olganda kelib chiqadi. Masalan, uchburchakning turli burchaklar buyicha sinflashda abstraktlashtirib uchburchakning turlicha tomonga egaligi xossasiga e'tibor bermay, abstrakt uchburchak tushunchasi bilan ish ko'rildi. etish uchun muhim xossa ajratib qaraladi.

35.Konkretlashtirish-o'qitishning dastlabki bosqichlaridagi qo'llani-ladi. U o'rganilayotgan obyektning bir tarafı bir yoqlama o'rganiladi va bu o'rganish uning boshqa tomonlariga bog'liq bo'lмаган holda amalga oshiriladi..

36. Induksiya.- yo'naltirish, uyg'otish ma'nosida bo'lib, uch asosiy ko'rinishga ega: 1) ikki yoki bir nechta birlik yoki xususiy hukmlardan yangi umumiyluk xulosa chiqariladi; 2) tadqiqot usuli bo'lib, obyektlar to'plami barchasiga tegishli xossalari ba'zi alohida olingan obyektlarda o'rganiladi; 3) materialni bayon qilish usuli bo'lib o'qitishda unchalik umumiyluk bo'lмаган qoidalardan umumiyluk qoidalari(xulosa va natijalar)ga kelinadi.

37.Ikki xil induksiya- to'liq bo'lмаган va to'liq.

38.*To'liq bo'lмаган induksiyada* berilgan vaziyatga taaluqli barcha xususiy hollar qarab chiqilmaydi. Masalan, $5+2=2+5$ tenglikdan $a+v=v+a$ yoki arifmetik progressiya p-chi hadi formulasini keltirib chiqarish, bunda faraz keltirib chiqariladi, isbot esa deduktiv yo'l bilan amalga oshiriladi.

39.*To'liq induksiya* berilgan vaziyatga taaluqli barcha birlik va xususiy xukmlarni qarashga asoslangan xulosa chiqarishga tayanadi. Masalan, birinchi 10 ta son orasidagi tub sonlar sonini aniqlash uchun barcha sonlarni qarab chiqish mumkin. Ba'zida to'liq induksiya isbotlash uchun qo'l keladi, masalan, ichki chizilgan burchakni o'chishda uchta xususiy hol qaralishi mumkin: burchakning bir tomoni diametr, burchak ichida diametr, diametr burchakdan tashqarida.

40.Deduksiya lotincha deduktio – keltirib chiqarish ma'nosini anglatib, tasdiqning bir shakli bo'lib, bitta umumiyluk hukmdan va bitta xususiy hukmdan yangi unchalik umumiyluk bo'lмаган yoki xususiy hukm keltirib chiqariladi. Umumiyluk hukm EKUB (6,7) =1. Yangi xususiy hukm: 6 va 7 o'zaro tub sonlar.

41.Deduktiv xulosalar - uch xilda bo'ladi: a) umumiyroq qoidadan umumiyroq bo'lмаган (yoki birlik) hukmga o'tish, masalan, yuqoridagi misol bundan dalolat beradi; b) umumiy qoidadan umumiy qoidaga o'tish (masalan, barcha juft sonlar 2 ga bo'linadi, barcha toq sonlar 2 ga bo'linmaydi, hyech qanday juft son bir vaqtida toq son ham bo'lomaydi);
v) birlikdan xususiyga o'tish (2 soni-tub son, 2 –natural son, ba'zi natural sonlar tub sonlardir).

42. **Matematik induksiya prinsipi** -u orqali ko'pgina mulohxzazalarni isbotlash mumkin bo'ladi.Uning bosqichlari quyidagilardan iborat: 1) kuzatish va tajriba; 2)faraz; 3) farazni asoslash(isbotlash). U uch qadamda amalga oshirilishi mumkin: 1) $p=1$ uchun mulohaza to'g'riliqi tekshiriladi: 2) $p=k$ uchun mulohaza to'g'ri deb, mulohazaning $p=k+1$ uchun to'g'riliqi isbotlanadi.3) isbotning oldingi ikki qadami va matematik induksiya prinsipiga asosan teorema yoki mulohaza har qanday p uchun to'g'ri degan xulosaga kelinadi.

43.**Tafakkur**- inson ongida ask etgan obyektlar tomonlar va xossalari ajratish va ularni yangi bilim olish uchun boshqa obyektlar bilan tegishli munosabatlarda qo'yish jarayoniga aytildi. Umuman olganda, tafakkur obyektiv borliqning inson ongida faol aks ettirish jarayonidir.

44.Tafakkurning shakllari -tushuncha, hukm va tasdiqlar.

45. Tushunchalar- obyektlarning turli xil sifatlari, belgilari va xususiyatlarini aks ettiradi, bunda birlik va umumiylilik xossalari mayjud. Birlik xossalari faqat shu obyektga tegishli bo'lib, uni boshqalaridan farqlovchi belgilarni o'z ichiga oladi, umumiyluk xossalari – obyektlarga tegishli muhim xossalarni ifodalash uchun tushunchani boshqa tushunchalardan farqli belgilari va umumiyligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

46.Tushunchaning xususiyatlari- moddiy dunyonи aks ettiruvchi kategoriya hisoblanadi; bilishda umumlashgan narsa sifatida paydo bo'ladi; tushuncha o'ziga xos inson faoliyatini bildiradi; inson ongida tushuncha shakllanib, u nutqda, yozuvda va belgilarda ifodalanishi bilan xarakterlanadi.

47.Tushunchaning shakllanish jarayoni boskichlari: qabul qilish, xissiy bilish, tasavvur , tushunchaning shakllanishi.

48.Tushuncha **mazmun** va **hajmga** ega: mazmun – bu tushunchaning barcha muhim belgilari to'plamidan iborat, hajmi esa – bu tushunchani qo'llash mumkin bo'lган obyektlar to'plami, demak, mazmun – belgi, xossalar, hajm- obyektlarni ifodalaydi.

Tushunchanining ta'rifida har bir belgi zaruriy, barchasi esa yetarli bo'lishi zarur..

Tushunchalarni ta'riflash usullar -jinsdosh va turdosh orqali ta'riflash: masalan, kvadrat – teng tomonli to'g'ri to'rtburchak, romb – diagonallari o'zaro perpendikulyar parallelogramm, genetik usul – tushunchalarning kelib chiqishini ko'rsatish orqali: masalan, aylana ta'rifi, bunga misol bo'la oladi. Induktiv ravishda ta'riflash – rekkurent tengliklar yordami bilan ta'riflash, masalan, arifmetik progressiya ta'rifini p-chi hadi umumiy hadi formulasi orqali berilishi bunga misoldir. Abstrakt ta'riflashda tushunchaga xos belgi va xossalar asosida ta'riflanadi, masalan, natural sonni ekvivalent chekli to'plamlar xarakteri sifatida ta'riflanadi.

Matematik tushunchalarni shakllantirish bosqichlar-qabul qilish va sezgi; qabul qilishdan tasavvurga o'tish; tasavvurdan tushunchaga o'tish; tushunchani shakllantirish; tushunchani o'zlashtirish.

Matematik hukmlar- obyektlar haqidagi fikrlar tuzilmasidan iborat bo'lib, tushunchaning biror xossa yoki boshqa tushunchalar bilan munosabatini o'rnatish uchun qo'llaniladigan tafakkur shakli hisoblanadi, tushunchadan farqli tomoni to'g'ri yoki rostligi asoslanilishi talab etiladi yoki bunday usul mavjudligi ko'rsatilishi lozim.

Matematik hukmlarning turlari - aksiomalar, teoremlar, postulatlar.

Aksiomalar -isbot talab qilmaydigan fikr bo'lib, matematika fani asosida bunday boshlang'ich fikrlar – aksiomalarga tayanilgan holda ish ko'rildi.

Teoremlar esa matematik xukmlarning eng ko'p ishlataladigan turi bo'lib, u aksiomalar yordamida o'rnatilayotgan nazariy natijalarni ifoda etib, isbotlanishi talab etiladi.

Teorema ikki qismidan iborat: shart va xulosa va $A \Rightarrow V$ shaklda belgilanishi mumkin. Berilgan teoremaga asoslanib uchta teoremani tuzish mumkin: teskarigi teorema $V \Rightarrow A$, qarama-qarshi teorema $\neg A \Rightarrow \neg B$; teskariga qarama-qarshi $\neg B \Rightarrow \neg A$.

Teoremaning turlari orasida quyidagi bog'lanish mavjud: agar to'g'ri teorema rost bo'lsa, qarama-qarshi teorema ham rost va aksincha. Teskarigi teorema rost bo'lsa, teskariga qarama-qarshi teorema ham rost bo'ladi.

r mulohaza uchun x uchun yetarli shart bo'ladi, agar $x \rightarrow r$ implikasiya rost natija bersa, r mulohaza x uchun yetarli shart bo'ladi, agar $r \rightarrow x$ implikasiya rost bo'lsa.

Zarur va yetarli shartlar: r shart uchun zarur va yetarli shart bo'ladi, agar bir vaqtning o'zida $x \rightarrow r$ va $r \rightarrow x$ implikasiyalar rost bo'lishi kerak.

Tushuncha ostiga kiritish - u yoki bu obyekt yoki munosabat berilgan tushuncha hajmidan iborat obyektlar yoki munosabatlar to'plamiga mos ravishda tegishliligini isbotlash faoliyati tushuncha ostiga kiritish deyiladi.

1. Kontrapozisiya bo'yicha isbotlash. Bu usulda $A \Rightarrow V$ mulohazani isbot-lash o'rniga V ga qarama-qarshi mulohazani rost deb faraz qilib, A ga qarama-qarshi mulohazanining haqiqatligini keltirib chiqarishga harakat qilinadi.

2. Kontrmisol va tasdiqllovchi misol keltirish usullari. Kontrmisol sifatida $(\forall x / P(x)) \Leftrightarrow a. (\forall x) \overline{P(x)}$ mulohazalar teng kuchliligini hisobga olib, $\forall x \in X, P(x)$ mulohaza yolg'onligini ko'rsatish uchun X sohadagi shunday x qiymatni topish kerakki, uning uchun P xossa bajarilmasligini ko'rsatish yetarli.

Tasdiqllovchi misol usulida $\exists x \in X, P(x)$ mulohaza rostligini isbotlash uchun X sohada hyech bo'limganda bitta x qiymatni topish kerakki uning uchun R xossa bajarilishi ko'rsatiladi.

3. Analiz va sintezning turli xususiy ko'rinishlaridan foydalanish usuli. Bunday usullarga algebra darslarida: a) kasrning butun qismini ajratish; b) butun qismlarga ajratish (analiz); v)

butun qismlar bo'yicha qayta tuzish (sintez); g) ularning kombinasiyasidan iborat usul (analiz va sintez) lar kiradi.

4. Barcha xususiy hollarni qarab chiqish usuli. Bu usulda mulohazaga tegishli barcha xususiy hollar qaralib, qarama-qarshilikka yoki to'g'ri mulohazaga kelish amalga oshiriladi.

Mustaqil ishlar -masalalar yechish bo'yicha mashqlar bo'lishi, yangi teoremani tahlil qilish bo'yicha ish, yangi formulani chiqarish bo'yicha masalalar bo'lishi mumkin.

O'qitishda **leksiya (ma'ruza)** usuli- bunda o'qituvchi materialni o'zi bayon etadi. Bu usul asosan yuqori sinflarda foyda beradi.

Matematika o'qitishda muammoli ta'lim usuli - ko'pgina tushunchalarni o'rganish muammoli vaziyatni yaratishga olib kelinishi mumkin.

3. Matematik ta'lim yangi texnologiyalari

tayanch konseptlarga asoslangan o'qitish usuli (V.F. Shatalov usuli), *yiriklashgan didaktik birliklar usuli* (P.M. Erdniyev usuli) va x.k.lar shular jumlasiga kiradi.

Darslarni nostandard usullarda tashkil qilish -*mo'jizalar maydoni*, *didaktik o'yinlar* tarzida tashkil qilish mumkin.

Matematik mashq-bu o'yin ko'p sondagi o'quvchilarga bilimlarni tezlikda tekshirishga imkon beradi. Sinf qatorlar bo'yicha jamoalarga bo'linadi. Har bir qator esa ikki variantga bo'linadi. Har bir variant o'quvchilari, agar ular javob beradigan obyekt haqida so'z borganda yoki o'rnidan turadi, yoki qo'l ko'taradi.

Auksion uyini. Savdoga biror mavzu bo'yicha topshiriqlar qo'yiladi, bunda o'qituvchi oldindan o'quvchilar bilan o'yining mavzusini kelishib olishi kerak. Masalan, 7 - sinfda "Algebraik kasrlar ustida amallar" mavzusi bo'lsin. O'yinda 4-5 jamoa qatnashadi. Kodoskop bilan ekranga 1-lot: kasrlarni qisqartirishga doir beshta topshiriq namoyish qilinadi. 1-jamoa topshiriq tanlaydi va unga 1 dan 5 ballgacha baho qo'yadi.

Agar bu jamoa bahosi boshqalarga qaraganda yuqori bo'lsa, bu topshiriqni jamoa oladi va uni bajaradi.

Ilmiylik prinsipi matematika o'qitish mazmunining ilmiy bo'lishi, matematikaning hozirgi ahvoli va uning rivojlanishini obyektiv aks ettirishni ifodalaydi. Mohiyati o'qitish mazmuni va o'qitish usullari hozirgi paytdagi matematika fani saviyasi va talablariga mos kelishini ta'minlashdan iborat.

Tarbiyaviylik prinsipi- o'quvchilarga fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, yangi bilimlarni o'zlashtirishga harakatini, ularni egallah va mustaqil kengaytira olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi, shu bilan birga ularda tafakkurni shakllantirish, matematik tushuncha va tasavvurlar bilan boyitish, xotira va diqqatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarbiyalash kabi ishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Ko'rgazmalilik prinsipi -matematika o'qitishning eng muhim prinsiplaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning chuqur va puxta bilim olishlari uchun asosiy sharoitlarni ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Onglilik, faollik va mustaqillik prinsipi -o'quvchilarning fan ma'lumotlarini, o'quv materialini egallashi, uni chuqur fikrlay olishi, bilimlarni yangi sharoitlarda amaliyatda qo'llay olish ko'nikmasi, bilimlarni ishonchga, amalda qo'llanmaga aylanishi sifatida tushuniladi.

4. Puxtalik prinsipi- o'quvchilarning ta'limni muvaffaqiyatli davom ettirishlari uchun, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni qobiliyatlarini rivojlantirish amaliy faoliyatga tayyorlash uchun zarur.

5. Tabaqalashtirish -o'qitishda o'quvchilarni o'z bilim saviyasi va qobiliyatlariga ko'ra guruhlarga ajratgan holda, tabaqalarga bo'lgan holda o'qitishni nazarda tutadi.

Matematika darsligi, o'quv qo'llanmasi - dastur va didaktika talablari bilan aniklanuvchi o'qitish maqsadlariga mos keluvchi matematika bo'yicha bilimlar asoslarini bayon etuvchi kitob hisoblanadi.

Darslikka qo'yiladigan talablar: a) u o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi; b) matematika bo'yicha ma'lumotlarni sistemali va ilmiy bayon qilishi;

v) uslubiy nuqtai nazardan ketma-ket joylashtirilgan yetarli sondagi turli xil masala va mashqlarni o'z ichiga olishi kerak.

Didaktik materiallar - mustaqil va nazorat ishlari matnlari, testlar va ularni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar hamda javoblarni beradi.

O'quv qo'llanmasi ko'rgazmaliliga qo'yiladigan talablar -a) *bilish vazifasi* shundan iboratki oddiydan murakkabga boriladi, o'quvchilar faoliyatini ko'rgazmalilik vosita va usullari bilan boshqaradi, nazorat va kommunikativ amallarni bajarishga imkon beradi; b) *interpretasion funksiyasi*, turli xil belgi va rasmlar orqali mavzu va tushunchalar konkretlashtiriladi; v) *estetik vazifalari*- uning ko'rinishi va bezalishi o'quvchilarda go'zallikni va estetik did kabi tuyg'ularni uyg'otishi uchun xizmat qilishi zarur.

Didaktik materiallar o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarning masalalar yechish bo'yicha mustaqil ishlarni, individual va frontal ravishda kursning mavzulari bo'yicha tekshirish nazorat ishlari uchun materiallarni o'z ichiga oladi.

Matematika bo'yicha **spravochniklar va ma'lumotli matematikadan adabiyotlar**- hisoblash uchun jadvallar, turli xil elementar matematika bo'yicha spravochniklar, o'quvchilarning kundalik o'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga imkoniyat yaratadi; qiziqarli matematik adabiyotlar; ilmiy-ommabop matematika bo'yicha adabiyotlar. Matematika bo'yicha o'quv **jihozlari** -priborlar, asboblar; o'qitishning nashr vositalari; o'qitishning ekran vositalari.

1-turdagi vositalar- geometrik modellar, stereometrik shakllar kompleksi, chizma yasash asboblari va hokazolar kiradi.

Ikkinchisi -jadvallar va kartochka-toshiriqlar, nashr asosli daftarlari, ishchi va ma'lumotli jadvallar va hokazolar kirib, darslar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va o'quv vaqtini tejashta hamda o'quvchilar bilimlarini chuqur va ongli bo'lismiga erishishga yordam beradi.

O'qitishning **texnik vositalari**- kinofilm, diafilm, diapozitiv, kodopozitiv kabi ko'rgazmalilik vositalari va ularni ekranga tushiruvchi kinoapparat, diaproyektor, epidiaskop kabi asboblar kirib, bunga yana tele-radio, video-audio vositalar xam kiradi. Bu ekran vositalariga EHM kompyuterlari ham kirib, darslarni jonli qiziqarli o'tilishini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Texnik vositalarni o'qitishda qo'llashning asosiy xususiyati- o'quvchilarni o'quv vaqtidan unumli foydalanishga, bilimlarni ko'rgazmali ravishda egallab olishlari uchun imkon berishi hisoblanadi.

Dars – bu mantiqan tugallangan, butun vaqt bilan chegaralangan o'quv-tarbiya jarayonining qismidir.

Matematika darsining belgilari-

- 1)Ta'lif va tarbiya vazifalari hal qilinadi;
- 2)Konkret o'quv materiali muhokama etiladi;
- 3)Maqsadlarni amalga oshirish uchun mos o'qitish usullari tanlanadi;
- 4)O'quvchilar jamoasining ma'lum tarzda faoliyati tashkil etiladi.

Matematika darslariga qo'yiladigan **asosiy talablar**

1. Darsda **asosiy didaktik(o'quv) maqsadining mavjudligi**. Bunda bir necha masalalarga e'tibor qaratiladi: a) yangi materialni o'rganish(tushunchani shakllantirish, qonun va algoritmlar o'rnatiladi); v) o'rganilayotgan bilimlarni mustahkamlash (takrorlash, masalalar yechish)

2 .Darsda ta'lifiy vazifalar bilan birga **tarbiyaviy masalalar** ham hal qilinadi. Bunda: a) o'quvchilar qiziqishini o'yg'otish va saqlash; b)o'quvchilarning o'qishga ma'suliyatini oshirish; v) matematikani o'rga-nishga ehtiyoj va ko'nikmalarni tarbiyalash. Bu talab konkret matematik tushunchalarni o'zlashtirishda quyidagilarni ko'zda tutadi:

- bilimlarni o'z so'zlari bilan bayon etish;
- undagi asosiy aniqlangan tushunchalar mohiyatini o'zlashtirish;
- ta'rif bo'yicha uni tanib olish

3.O'quv materialining asoslangan holda tanlanishi. Bu quyidagi-larni nazarda tutadi: 1) asosiy o'quv maqsadining mazmunga mos kelishi; 2) yetarli hajmda o'quv materialining mavjudligi; 3) konkret va abstrakt materialning optimal munosabatda bo'lishi; 4) nazariy va amaliyotning o'zaro aloqasining yoritilishi muhimdir.

4. Darsda **o'quvchilar faolligini oshiruvchi o'qitish usullarini** qo'llash. Bunda qo'yidagilarga e'tibor berilishi lozim: a) o'quvchilarning o'zları navbatdagi navbatdagi muammolarni ifodalay olishi; b) kiriti-loyotgan tushunchalarni ta'riflashni amalgaga oshirishlari zarur. Bunda o'quv materialini qismlarga ajratish hamda o'quvchilar oldiga xususiy o'quv masalalarini qo'yib borish talab etiladi.

5. Darsning **tashkiliy puxtaligi** talabini amalgaga oshirish uchun quyidagi zaruriy shartlar bo'lishi zarur: a) o'qituvchi dars materialini erkin bilishi; b) har bir navbatdagi savol uslubiyatini bilishi, uni o'rgatish usul va vositalarini egallagan bo'lishi; v) o'quvchilar individual xususiyatlarining taqsimoti to'g'ri yo'lga qo'yilishi, sind taxtasi va daftardagi mazmun va yozuvlar joylashishini hisobga olish, darsda ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanish, uning tayyorgarligini yo'lga qo'yish.

Matematika o'qituvchisining darsga tayyorgarlik tizimi

1. Yangi o'quv yili arafasidagi tayyorgarlik, bunda kalendar ish rejasi tuziladi.
2. O'quv mavzusi bo'yicha darslar sistemasi tuzib chiqiladi.
3. Har bir darsga tayyorgarlik, konspektlar tayyorlash. Bunda: a) har bir mavzu o'rni, uning mazmuni, o'rganish vazifalari aniqlanadi – zarur o'quv materiali tanlanadi; b) masala va o'quv materiali darslarga taxminan taqsimланади; v) vaqt va mazmun bo'yicha o'tilganlarni takrorlash amalgaga oshiriladi, mustaqil va nazorat ishlari o'tkazish vaqtini aniqlanadi.

Darsga tayyorgarlik ko'rish: 1) o'quvchilarni mavzuga kiritish, ularga navbatdagi o'quv masalani qo'yish; 2) yangi tushunchalarni bayon etish; 3) kiritilayotgan tushunchalar xossalarni qanday topish mumkinligini ko'rsatish; 4) induktiv asoslashga erishish; 5) bir xil tipdag'i masalani yechish usulini ko'rsatish; 6) darsga masalalarini materialga mos tanlash; 7) o'quvchilarni masala sharti bilan tanishtirish; 8) tanlangan masala qanday yechilishini bayon qilishi lozim.

Asosiy dars tiplari :

1. Yangi materialni bayon qilish darsi
2. O'rganilganlarni mustahkamlash darsi.
3. Bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi.
4. O'rganilganlarni sistemalashtirish va umumlashtirish darsi

Darsning tuzilishi:

- 1.Oldingi bilimlar va amal usullarini takrorlash (aktual-lashtirish)
2. Yangi bilim va amal usullarini shakllantirish.
3. Qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Darsning asosiy bosqichlari:

1. O'quvchilar oldiga dars maqsadini qo'yish.
2. Yangi material bilan tanishtirish.
3. Yangi materialni mustahkamlash.
4. Bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish.
5. Bilimlarni sistemalashtirish, o'rganilganlarni umumlashtirish.

Talablar – tarbiya maqsadlarini o'rnatish uchun maqsadga yo'nal-tirilgan ishni amalgaga oshirish, o'quvchilar bilish faoliyatlarini faollashtiradi. Umumiy maqsad sari yo'l ochiladi.

3. Matematika darsini *tahvil qilish* nazorat va ta'lim berish vositasi sifatida xizmat qiladi

1. Dars maqsadlarining amalgaga oshirilishi;
2. Darsning matematik mazmuni va ilmiy saviyasi;

3. Darsda qo'llanilgan o'qitish usullari samaradorligi;
4. Darsda o'qituvchi va o'quvchining faoliyati sifati;
5. O'quvchilarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

4. Matematika bo'yicha **o'quvchilar bilimini baholash va tekshirishning** asosiy maqsadlari - o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish sifatini hamda predmet bo'yicha dasturda ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash saviyasini tekshirishdan iborat.

Bu uch xil tekshirishni: *joriy* (uy vazifasini tekshirish, og'zaki so'rash, kundalik baho qo'yish va h.k.), *oraliq nazorat* yoki *davriy nazoratlar* (nazorat ishlari, mavzu yoki bob bo'yicha nazorat ishlari va h.k.), *yakuniy nazorat* chorak uchun yoki yarim yillik va yillik nazoratlarini o'z ichiga oladi.

Oraliq nazorat uchun asosan "Didaktik materiallar" dan foydalangan holda ish olib borish ko'zda tutiladi.

Yakuniy nazoratlar yakuniy nazorat ishlari yoki chorak uchun og'zaki so'rash, bitirish imtihonlar (testlarni) o'z ichiga oladi.

Bilimlarni baholash tartibi darajalar:

1-daraja- matematikadan davlat ta'lif standartida belgilab berilgan bilimlarni o'zlashtirishning minimal darajasini bajarganlar "past" daraja hisoblanadi.

2 –daraja – reproduktiv darajada bo'lib, DTS da belgilab berilgan bilimlarni o'zlashtirishning minimal darajasidan yuqori bo'lganlari "o'rtal" baholanadi.

3-daraja – rekonstruktiv darajada qo'llaniladigan DTS dagi bilimlarning imkoniyat darajasi talablariga javob beradiganlari "yuqori" baholanadi.

4- daraja – DTSda belgilab berilgan bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyat darajasiga muvoofiq keladigan va uni ijodiy qo'llay oladiganlar "o'ta yuqori" baholanadi.

Reytingi 100-96% bo'lganlar - o'ta yuqori, 86-95% bo'lganlar – yuqori,
81-71% bo'lganlar-o'rtal, 70-56% bo'lganlar – past baho bilan baholanadi, --0-55% bo'lganlar esa attestasiya qilinmaydi.

Matematik masalalarning matematika o'qitishda vazifalari mavjudligini ta'kidlaydilar: 1) umumta'lif; 2) amaliy; 3) rivoj-lantiruvchi; 4) tarbiyaviy; 5) nazorat etish.

Umumta'lif vazifalari- o'quv dasturida ko'rsatilgan matematik ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalari kiradi. Bundan tashqari, yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan birga o'zining matematik ma'lumotini oshirish, matematik masalalar yechish ko'nikmasi shakllana boradi.

Amaliy vazifalari- o'quvchilar masalalar yechish orqali amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollanib, matematikani tadbiq etish va hayotda qo'llashga doir zaruriy bilimlarni egallaydilar.

Rivojlantiruvchi vazifalari- o'quvchilarda masalalar yechish asosida ularning matematik tafakkuri va qobiliyatlarini rivojlantirish kiradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir masaladan bunday maqsadlarda foydalanilishiga e'tiborni qaratish talab etiladi.

Tarbiyaviy maqsadlari - matematik masalalarning o'quvchilarda yaxshi insoniy fazilatlarni tarkib toptirish uchun qo'llanilishidan iborat.

Nazorat etish vazifalari- masala va mashqlardan o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini egallash saviyasini tekshirish vazifasida ishlatilishi kiradi.

masalani matematik usul bilan yechish uch bosqichdan iborat: 1) matematik model tuzish; 2) matematik model ichida yechish; 3) yechimning masala shartlariga mos kelishini tekshirish.

5. Matematik masalalar matematika o'qitishda va matematik tushunchalarni shakllantirishda qo'llash uchun quyidagi masalalar turlari qo'l keladi: matematik tushunchalarni o'zlashtirishga doir; matematik belgilarni qo'llashga doir; isbotlashga doir; matematik ko'nikma va malakalarni shakllantirishga doir; yangi matematik ma'lumotlarni o'rganishga doir; muammoli vaziyatlarni yaratishga doir masalalar shular jumlasiga kiradi.

Matematik tafakkurni rivojlantirishda quyidagi masalalar muhim ahamiyatga ega: umumiy fikrlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga doir; tafakkur usullariga o'rgatishga doir; o'quvchilar faoliyatlarini faollashtirishga doir; tadqiqotga doir; isbotlashga doir; xatolarni topishga doir; sofizmlarni tahlil etishga doir; qiziqarli masalalar; turli xil yechish usullarini qo'llashga doir; o'quvchilar tomonidan masalalar tuzishga doir va h.k.

Teorema va uni isbotlashga doir masalalar xususiyatlari teoremada bayon qilishga zarur matematik ma'lumotlar va bilimlarni ochib beruvchi; isbotda foydalilaniladigan matematik ma'lumotlarni takrorlash; teoremada bayon etilgan natijaga olib keluvchi isbotlashga va hisoblashga doir masalalar yechilishi; teorema bayonini o'zlashtirishga doir, teorema isboti ayrim bosqichlarini o'zlashtirishga doir va isbotning boshqa usullarini izlashga doir va teoremada bayon qilingan ma'lumotlarni, yangi matematik bilimlarni qo'llay olishga doir mashq va masalalardan foydalanish.

Qoida, algoritmni o'zlashtirishga doir masalalar: qoidani qarash zarurligi asoslanishiga doir; qoidani asoslash uchun zarur bilimlarni va uni bajarish uchun ko'nikmalarni bajarish; algoritmga kiruvchi ayrim amallarni bajarish; qoidani turli vaziyatlarda qo'llash.

Matematika bo'yicha sinfdan tashqari ishlari - darsdan tashqari vaqtida o'quvchilar bilan olib boriladigan majburiy bo'limgan mashg'ulotlarga tushuniladi.

Ikkita yo'naliish mayjul: boshqalardan dastur materialini o'zlashtirishda orqada qolayotgan o'quvchilar bilan ishslash(qo'shimcha sinfdan tashqari mashg'ulotlar); matematikani o'rghanishga boshqalarga qaraganda qiziqish va qobiliyat ko'rsatayotgan o'quvchilar bilan ishslash.

Birinchi yo'naliish maktablarda amalga oshiriladi, individual asosda olib boriladi. Asosiy maqsadi, matematika kursi bo'yicha o'quvchilar bilimidagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish hisoblanadi. Uning quyidagi xususiyatlari mavjud: qo'shimcha sinfdan tashqari mashg'ulotlar 3-4 o'quvchi bilan olib boriladi, ular bir xil bilim saviyasida, qobiliyatি bir xil; bu mashg'ulotlar individuallashtirilgan; bir haftada bir marta, individual reja bo'yicha uy ishi bilan qo'shib olib boriladi; takroriy o'tilgandan so'ng yakuniy nazorat o'tkazilib, baho qo'yiladi; ta'limiy xarakterga ega, “ didaktik materiallar” dagi mustaqil ish yoki nazorat ishlardan foydalilanadi; o'qituvchi o'zgarishni tahlil etib boradi, tipik xatolarni o'rganadi va bartaraf etish yo'llarini izlaydi.

Ikkinci yunalishda asosiy maqsadlar: o'quvchilarda matematikaga turg'un qiziqishni uyg'otish va rivojlantirish; o'quvchilar bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish; matematik qobiliyatlarni optimal rivojlantirish; matematik tafakkur madaniyatini tarkib toptirish; mustaqil ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish; matematikaning amaliy ahamiyati haqidagi tasavvurlarni kengaytirish; matematik modellashtirish axamiyatini tushunish; jamoa faoliyatini vujudga keltirish; faol matematik faoliyatga ko'rsatishga tayyorlash.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlari uch xil bo'ladi: bular sinfdan tashqari ishlari; maktabdan tashqari ishlari; sirtqi ishlari.

Sinfdan tashqari ishlarning eng tarqalgan turlari mavjud: matematik to'garak, matematik haftalik, matematik kecha, viktorina va konkurslar, matematik musobaqalar, maktab matematik olimpiadalari, devoriy gazeta, yosh matematiklar klubi, matematik ekskursiyalar, sinfdan tashqari o'qish, ilmiy konferensiyalar va h.k.lar.

Matematik to'garaklar reja asosida amalga oshirilib, har haftada bir marta mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Matematik kechalar ham ma'lum sanaga bag'ishlab o'tkazilib, o'quvchilarni matematikaga qiziqtirishda muhim o'rinni egallaydi. Turli xil ommaviy tadbirlar ham o'quvchilarning matematikaga qiziqishlarini tarbiyalashda asosiy ahamiyatga ega.

Devoriy gazeta chiqarishda o'qituvchi quyidagilarni aks ettirilishiga alohida e'tibor berishi lozim: turli qiziqarli ma'lumotlar: turlicha qiyinlikdagi va qiziqarli masalalar berilishi, masalalar yechish bo'yicha konkurslar e'lon qilishi; matematika va amaliyat, hayotiy masalalar va h.k.lar bo'yicha materiallar bilan birga turli matematik olimlar ishlari va hayoti haqida ma'lumotlar bayon etilishi zarur.

3.Fakultativ mashgulotlar tanlangan fan bo'yicha umumta'lim tayyorgarligi bilan muvofiq va uning asosida o'quvchilar qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Maqsadlari – o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, matematik tafakkurini rivojlantirish, faol bilish qiziqishini shakllantirish, yaxshi insoniy fazilatlarni, matematikani chuqur o'rganish vositalari bilan tarbiyalashdan iborat..

Fakultativ mashgulotlarning **mazmuni**

Matematikaning tanlangan boblari (haftasiga 1 soat). Matematikaning tadbiqlari (haftasiga 1 soat, 7-9-sinflar). Matematika tarixi(7-9-sinflar).

Matematika va iqtisodiyot(9-sinf).

Amaliy ishlar (geometrik yasashlar, taqrifiy xisoblash usullari). Kompyuterlar va matematik masalalar yechish).

Asosiy uslublari: o'quvchilar fikrlashlarini rivojlantirish bunga doir masalalarni muhokama etish, referatlar yozish, ma'ruzalar tayyorlash, taqriz va masalalar tuzish. Bunda ilmiy-ommabop va qiziqarli matematik adabiyotlardan keng foydalanish muhimdir.

Maktabdan tashqari ishlar:

- oliy o'quv yurtlari qoshidagi matematik to'garaklar;
- yosh matematiklar jamiyat;
- matematiklar maktablari;
- yozgi matematik maktablar;
- tuman, viloyat matematik olimpiadalar;
- yosh matematiklar konferensiya va yig'ilishlari.

Sirtqi matematik tadbirlar -sirtqi matematik olimpiadalar, sirtqi konkurslar, masalalar yechish bo'yicha tanlovlardan, sirtqi yosh matematiklar maktablari va h.k. Bunday ishlar vaqtli matbuot va turli homiy tashkilotlar yordamida amalga oshiriladi, bunga doir zarur o'quv qo'llanmalari va uslubiy ko'rsatmalar mavjud.

1. Arifmetika – matematika fani bo'limi sifatida maktabda o'qitilish maqsadlariga ega. Bular: son haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish; sonlar ustida to'rt amalni bajarish malakalari va hisoblash madaniyatini shakllantirishdan iborat. (Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi. Matematika taraqqiyoti. 4-maxsus son. –T., 1999 y. – 173-b.).

Arifmetika (grekchasiiga "artimos" - son) sonlar haqidagi ta'limot hisoblanadi.

Son va hisoblashlarni o'rganishni o'quvchilarda arifmetik mazmunli tushuncha va tasavvurlar konkret materialda (bir, son, sanoq va hokazo) tarkib toptirish va asta-sekin o'quvchilarni umumlashtirishlarga o'rgata borishdan iborat. Boshlang'ich sinflarda tayyorlash kursi o'rgatiladi, 5 va 6-sinflarda esa arifmetikaning sistemali kursi o'qitiladi.

2. 1-4- sinflarda arifmetika o'qitishning mazmunini musbat butun sonlar va ular ustida amallar tashkil etadi. Asosiy maqsadlardan biri o'quvchilarda puxta yozma va og'zaki hisoblash malakalarini shakllantirish hisoblanadi. Shuningdek, o'lchovlarni o'rganish va o'lchashda mashqlarga alohida e'tibor beriladi. Ismli sonlar ustidagi amallar oson hollar bilan chegaralaniladi. Ulushlar bilan tanishtiriladi, ularga sonning qismi haqida tushuncha beriladi. Yarim chorak, nimchorak, o'ndan bir kasrlar hosil bo'lishi tushuntiriladi.

Boshlang'ich sinflarda son va hisoblashlarni o'rganish uslublarining asosiy qoidalari mavjud:

1) Tushunchalarni tarkib toptirishda ko'rgazmali qurollarga tayaniladi, so'ogra bir qator mashqlardan keyin umumlashtirishlarga o'tiladi;

2) Tushunchalarni asta-sekin shakllantirish va hisoblash usullarini o'zlashtirishga erishish uchun arifmetika boshlang'ich kursi konsentrnlarga bo'linadi:

1 konsentr – sanoh, raqamlar, o'ngacha qo'shish va ayirish;

2 konsentr – ikki o'nlik doirasida nomerlash va amallar;

3 konsentr – yuzlik chegarasida o'sha ish;

4 konsentr – minglik chegarasida o'sha ish;

5 konsentr – million chegarasidagi sonlar ustida o'sha ishlarni bajarish;

6 konsentr – ixtiyoriy kattalikdagi sonlar ustida qo'shish va ayirish;

3) Amallar haqidagi tushunchalarni tarkib toptirishda oddiy masalalarni yechish va tuzish qo'llaniladi.

4. Son va hisoblashlarni o'rganishning **umumiyl uslubiy prinsiplari** quyidagilar:

1. Tushunchalar ma'lum sistemada bayon etiladi;

2. O'qitish uzlashtirish eng ongli bo'lishi va fikrlash mustaqilligiga erishish nuqtai nazaridan tashkil etiladi;

3. Xulosalarni qulay mantiqiy asoslashga katta e'tibor beriladi;

4. O'qitish jadval, chizma, sxema ko'rinishdagi har qanday ko'rgazmalik bilan amalga oshiriladi, bunda matematik mulohazalar murakkab mantiqiy bosqichlari ko'rsatiladi;

5. Hisoblashning rasional usullariga e'tibor beriladi;

6. Olingan xulosalar amaliy mazmunli masalalarni yechishda foydalanishi lozim;

7. Matematikani o'zlashtirishning har qanday uslublari fan talablariga zid bo'lmasligi lozim;

8. 4 va 5-sinflarda ta'lim uzviyligini saqlash zarur. Buning uchun bu sinflar o'qituvchilari bir-birlarining darslariga kirishlari, o'zaro ish uslublarini o'rganishlari talab etiladi.

O'qitish usullarida **uzviylik** yangi mavzuni o'rganishda o'quvchilarning ko'proq faol ishlashlariga jalb etish, mustaqil ishlar uchun beriladigan topshiriqlarni tushuntirishlari, daftarlар tutishlariga va ularni nazorat qilishga e'tibor qaratish lozim. O'qitish mazmunida uzviylik bu oldingi tushunchalar sistemasini tuzish, yangi elementlar kiritilishi, yangi nazariy tushunchalar bayon etilishini kuzda tutadi.

MUNDARIJA

1. **Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining o'quv predmetiga kirish.**
Kirish so'z
 - 1.1. «**Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanidan davlat ta'lif standarti**
 - 1.2. «**Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fan dasturi**
 - 1.2.1. Fanga kirish, uning dolzarbliji, maqsad va vazifalari, uni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar.
 - 1.2.2. Fanning hajmi va mazmuni.
 - 1.2.3. Fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar.
 - 1.2.4. Taqvim mavzuiy reja.
 - 1.2.5. Mustaqil o'rganish va referatlar tayyorlash uchun tavsiya etiladigan namunaviy mavzular.
 - 1.2.6. Reyting baholash mezonlari.
 - 1.2.7. Tavsiya etiladigan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati
2. **«Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining o'quv - uslubiy materiallari.**
 - 2.1. **«Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining ma'ruza mashg'ulotlari materiallari**
 - 2.1.1. Matematika ukitish uslubiyati fani predmeti
 - 2.1.2. Matematika ukitishning mazmuni va vazifalari
 - 2.1.3. Matematika ukitishning ilmiy usullari
 - 2.1.4. Matematika o'qitishning ilmiy usullari (davomi)
 - 2.1.5. Matematika o'qitishda tafakkur uslublari va shakllari
 - 2.1.6. Matematik ta'lif usullari
 - 2.1.7. Matematika o'qitish prinsiplari.
 - 2.1.8. Matematika o'qitish vositalari.
 - 2.1.9. Matematika o'qitishni tashkil etish. Matematika darsi.
 - 2.1.10. Matematika o'qitishda masalalar yechishning axamiyati va o'rni
 - 2.1.11. Matematika bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari mashgulotlar
 - 2.2. **«Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining amaliy mashg'ulotlari materiallari**
 - 2.2.1. Matematika o'qitishning ilmiy usullari
 - 2.2.2. Matematika o'qitishning ilmiy usullari (davomi)
 - 2.2.3. Matematika o'qitishda tafakkur uslublari va shakllari
 - 2.2.4. Matematik ta'lif usullari
 - 2.2.5. Matematika o'qitish prinsiplari.
 - 2.2.6. Matematika oqkitish vositalari.
 - 2.3. **«Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining seminar mashg'ulotlari materiallari**
 - 2.3.1. Matematika oqitishni tashkil etish.
 - 2.3.2. Matematika darsi.
 - 2.3.3. Matematika oqitishda masalalar yechishning axamiyati va o'rni
 - 2.3.4. Matematika bo'yicha sinfdan va maktabdan tashkari mashgulotlar
 - 2.3.5. Son va xisoblashlarni o'rganish
 - 2.3.6. Maktabda turli sonlar sistemalarini o'rganish
 - 2.3.7. Algebrani o'kitish uslubiyati
 - 2.3.8. Algebraik ifodalarni ayniy shakl almashtirish-larni urganish uslublari
 - 2.3.9. Tenglama va tengsizliklarni o'rganish
 - 2.3.10. Funksiyalar va grafiklarni o'rganish
 - 2.3.11. Geometriya oqitish uslubiyati masalalari.
geometriya o'quv predmeti sifatida
 - 2.3.12. Fazoda to'g'ri chizik, tekisliklar va fazoviy jismlarni o'rganish
 - 2.3.13. Maktabda informatika o'gitishning mazmuni va vazifalari
 - 2.4. **«Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari ta'lif texnologiyalari**
 - 2.5. **«Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining nazoratlari materiallari**
«**Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanidan glossariy**

MUNDARIJA

1.	Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining o'quv predmetiga kirish.	3
	Kirish so'z	4
	1.1. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanidan davlat ta'lif standarti	6
	1.2. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fan dasturi	11
2.	«Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining o'quv - uslubiy materiallari.	35
	2.1. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining ma'ruza mashg'ulotlari materiallari	37
	2.2. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining amaliy mashg'ulotlari materiallari	65
	2.3. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining seminar mashg'ulotlari materiallari	81
	2.4. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari ta'lif texnologiyalari	118
	2.5. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanining nazoratlari materiallari	245
	2.6. «Matematika va informatika o'qitish metodikasi» fanidan glossariy	263